



Tadjqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TALIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2024

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKISTON: 2024

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

NOYABR  
№70  
NAVOIY



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР  
1-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЙ ИССЛЕДОВАНИИФ  
ЧАСТЬ-1**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC RESEARCH  
PART-1**

**ТОШКЕНТ-2024**



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

Й-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 70-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2024 йил. – Тошкент: «Tadqiqot», 2024. – 141 бет.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазибалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

## **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

## **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

## **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -**

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

## **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тугган ўрни -**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **5. Давлат бошқаруви -**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

## **6. Журналистика -**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

## **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –**

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

## **8. Адабиёт -**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни -**

Phd Воҳидова Меҳри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

## **11. Жисмоний тарбия ва спорт -**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



## 14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 15.Муסיқа ва хаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## 16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## 17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## 18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Т.ф.д., доцент Мамадова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

## 19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## 20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## 21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

## 22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## 23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## 25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000



## ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ЗАМОНАВИЙ ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ачилова Лилия Илхомовна,  
Тошкент давлат юридик университети  
мустақил изланувчиси  
Телефон: +998909257711

**АННОТАЦИЯ:** Бугунги кунда замонавий туристик хизматларни тартибга солишга оид жиҳатлар алоҳида долзарблик касб этмоқда. Мазкур мақолада муаллиф туристик хизматлар кўрсатиш билан боғлиқ нормалар таҳлили асосида унинг моҳиятини очиб беришга ҳаракат қилади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** тадбиркорлик фаолияти, туристик хизмат, хизмат кўрсатиш, рақамли макон.

Замонавий дунёда глобаллашув ва иқтисодий ривожланишнинг халқаро интеграция жараёнлари сунъий интеллект технологияларини бизнес жараёнларига жорий этишга жиддий таъсир кўрсатмоқда. Шубҳасиз, технологик инқилоб туризмда қиймат яратиш занжирини аллақачон ўзгартириб, бозорни, малака талаб қилинган мутахассисларга бўлган эҳтиёжни ва туризмдаги иш ўринларининг хусусиятларини ўзгартирмоқда. Жаҳон иқтисодий форуми маълумотларига кўра: “Келгуси ўн йилликда (2016 – 2025 йиллар) ҳаво йўловчилари, саёҳатлар ва туризм соҳасида рақамли технологияларга ўтиш натижасида туризм индустриясининг ҳажми 305 миллиард АҚШ долларига ошиши кутилмоқда, 100 миллиард АҚШ доллари миқдоридаги туризм бозоридаги маблағлар анъанавий ўйинчилардан янги рақобатчиларга ўтиши мумкин, истеъмолчилар ва кенг жамоатчилик атроф-муҳитга таъсирни камайтириш, ҳимоя ва хавфсизликни ошириш орқали 700 миллиард АҚШ доллари қийматидаги фойда олади, ва истеъмолчилар учун маблағ ва вақт тежалиши таъминланади.” Бундан ташқари, ҳозирги вақтда саноатда мавжуд бўлган иш ўринларининг бошқа тармоқларга аниқ кўчиши рўй беради, бу қисман саёҳат экотизими ичида ва ташқарисида кейинги авлоднинг малакали иш ўринларини яратиш билан қопланади.” Кўплаб мамлакатлар, масалан, Бразилия, Эквадор, Боливия, Австралия, АҚШ, Андорра, Аргентина, Гресья, Кения ва Япония “рақамли туризм”ни ривожлантиришни бошлади ёки фаоллаштирди, шундай қилиб виртуал саёҳатлар ва ижтимоий медиа кампаниялари орқали одамларни қизиқтириш ва келажакда саёҳатни режалаштиришга ундаш мақсадида. Янги ечимлар ва бизнес моделларни туризм соҳасида рағбатлантириш учун бир қатор мамлакатлар туристик акселераторлар ва инновасион хаблар яратмоқда. Хусусан, Европа Иттифоқида рақамли инновасия марказлари шаклланди. Бундай марказлар компанияларга техник экспертизадан фойдаланиш имкониятини тақдим этади ва турли инновасион технологияларни уларга сармоя киритишдан олдин синовдан ўтказиш имкониятини беради.

Ўзбекистон Республикасида “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси доирасида виртуал ва кенгайтирилган реаллик, сунъий интеллект ва туризм маҳсулотларини диверсификация қилиш имкониятларини тадқиқ қилиш ва жорий этиш ҳамда иқтисодийнинг рақамлашуви даврида тадбиркорликни ривожлантириш бўйича ишлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон ташаббуси билан 2027 йилда дунёда “Халқаро барқарор ва яшовчан туризм йили” ўтказилади. Бу қарор БМТ Бош Ассамблеяси томонидан маъқулланди. Резолюсияда туризмнинг турли цивилизациялар бой маданий меросини сақлаб қолишдаги муҳим ролига оид принциплар мустаҳкамланган. Ҳудудларнинг туристик салоҳияти асосан замонавий туристик инфратузилмани динамик ривожлантириш самарадорлигини ошириш, кўрсатилаётган хизматлар сифатини кенгайтириш ва яхшилаш, имиджни яхшилаш ҳамда туристик соҳада инвестисиялар ва янги рақамли технологияларни кенг жалб қилиш орқали ривожланмоқда. “Жамоат муносабатларини



хуқуқий тартибга солишнинг барқарорлиги, сифати ва самарадорлигини таъминлаш мақсадида “ақлли тартибга солиш” модели элементларини қўллаш доирасида қонун ҳужжатларининг регулятор таъсирини баҳолашни ривожлантириш ва кенгайтириш” хуқуқий тизимни комплекс ривожлантиришнинг устувор мақсади ва бу соҳадаги қонунчиликни давлат стандартлари асосида такомиллаштиришнинг асосий вазифаси этиб белгиланган. Туризм бизнесида тадбиркорлик фаолиятини рақамлаштириш ривожланишини акс эттирувчи қатор норматив-хуқуқий ҳужжатларни қайд этиш мумкин: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Коронавирус пандемиясининг салбий таъсирини камайитириш учун туризм соҳасини қўллаб-қувватлашга доир кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони [1] (тадбиркорларнинг давлат томонидан қўллаб-қувватланиши уларнинг глобал пандемия туфайли қатта зарар кўришининг олди олинди); Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони [2] (қўшимча тарзда мамлакат иқтисодиётига нақд пулсиз ҳисоб-китоб, электрон ҳамёнлар, блокчейн, сунъий интеллект, виртуал ва кенгайтирилган реаллик технологиялари каби рақамли имкониятларни жорий этиш барча бизнес соҳаларида тадбиркорлик фаолиятини янги босқичга олиб чиқиш имконини беради); Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони [3]; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони [4]; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Туризм, маданий мерос ва спорт соҳаларида давлат бошқарувини такомиллаштириш доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони [5].

Албатта, туристик хизматлар кўрсатиш бозори кун сайин кенгайиб, ривожланиб бормоқда. Янги-янги имкониятларни излаб топиш ва соҳага самарали жорий этиш долзарб ва аҳамиятли бўлиб қолаверади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 майдаги “Коронавирус пандемиясининг салбий таъсирини камайитириш учун туризм соҳасини қўллаб-қувватлашга доир кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6002-сон Фармони // <https://lex.uz/ru/docs/4831122>;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/5030957>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрелдаги “Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6199 Фармони // <https://lex.uz/docs/5356753>;

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>;

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18 февралдаги “Туризм, маданий мерос ва спорт соҳаларида давлат бошқарувини такомиллаштириш доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-75-сон Фармони // <https://lex.uz/uz/docs/5868607>.



**ЗАМОНАВИЙ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ СУДЛАР ФАОЛИЯТИДА  
ҚўЛЛанилиши бўйича ХИТОЙ ХАЛҚ РЕСПУБЛИКАСИ ТАЖРИБАСИ**

**Эшмирзаев Зоҳиджон Муҳаммадиевич**  
**Ҳамроқулов Ислон Қаяумович**  
Самарқанд вилоят судининг иқтисодий  
ишлар бўйича судьялари

**АННОТАЦИЯ:** Давлатимизда судлар фаолиятига замонавий - рақамли технологияларни жорий этиш юзасидан изчил ҳуқуқий ислохотлар амалга оширилмоқда. Ривожланган хорижий мамлакатларда суд-ҳуқуқ тизими рақамли технологияни жорий этилиши суд-ҳуқуқ тизимини ижобий жиҳатдан ривожланишига ўз таъсирини кўрсатган. Мазкур мақола мамлакатимизда суд-ҳуқуқ тизими янги рақамли технологияни жорий этишда муҳим туртки бўлиб ҳисобланади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Электрон суд, онлайн суд процесси, онлайн-медиа платформа, электрон далил, мобиль кўчма микро-суд.

Сўнгги йилларда дунёнинг кўплаб мамлакатларида рақамли технологияларни суд фаолиятига жорий этиш ишлари жадал олиб борилмоқда. Ушбу соҳада ҳуқуқий нормаларни, муассасалар, тармоқлар ва тизимларда қўлланилишини таққослаш алоҳида аҳамият касб этади.

Халқаро тажриба алмашинуви ўсиш сари улкан қадам ташлашга, одил судловнинг очиклиги ва рақамли технологияларни суд тизимига жорий этишни янада такомиллаштирилишига имкон яратади. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, суд-ҳуқуқ тизими рақамли технологияларни жорий этилиши фақатгина судга мурожаат қилишни эркинлаштириш, одил судловга эришиш ва судлар фаолиятида очиклик ва шаффофликни таъминлашда муҳим роль ўйнаб қолмасдан, балки жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқларини асоссиз равишда бузилишини, бюджет ҳисобидан сарфланадиган ортикча харажатларнинг олдини олиш, ишни кўриб чиқиш муддатини қисқартириш ва шу каби бошқа муҳим афзалликларга эга.

Маълумки, Хитой Халқ Республикаси (кейинги ўринларда ХХР деб номланади) барча соҳаларни кенг қамраб олаётган энг илғор давлатлардан бири ҳисобланади. ХХР иқтисодиёт, ишлаб чиқариш, ижтимоий институтлар ва ҳуқуқ соҳасини рақамлаштиришда ҳам катта муваффақиятларга эришиб келмоқда.

Хусусан, 2019 йил август ойида Пекин, Шанхай ва Гуанчжоу туманларининг барча уч даражадаги судлари даъволарни доменлараро топшириш, суд ишларини юрисдикцияга мувофиқ рўйхатдан ўтказиш, ишларни масофадан кўриб чиқиш ва кўриб чиқиш ишларини максимал даражада олиб бориш бўйича узлуксиз ишлашга эришдилар.

Бугунги кунда ҳам ХХР ўз иқтисодиёти, ишлаб чиқариш, ижтимоий институтлар ва ҳуқуқ соҳасини рақамлаштиришда ҳам ажойиб ютуқларга эришди. ХХРнинг қонун ва ҳуқуқий институтларини рақамлаштиришнинг ноёб тажрибаси энг долзарб тадқиқот мавзуларидан биридир.

Чжецзян провинцияси Олий халқ суди 2015 йил апрель ойида ўз ваколатлари доирасида электрон тижорат бўйича низоларни ҳал қилиш учун тажрибавий интернет судини ташкил этиш ташаббуси билан чиқди. Онлайн суд процессида онлайн тўловлар тўғрисидаги, интернетдаги муаллифлик ҳуқуқининг бузилиши тўғрисидаги, Интернет-транзакциялар тўғрисидаги низоларни онлайн суд процессида биринчи бўлиб кўриб чиқди.

2016 йилнинг октябрь ойида ХХР Олий халқ суди - “ХХР халқ судлари медиа платформаси” деб номланувчи ягона онлайн-медиа платформани ишга туширган бўлиб, ушбу платформа функционал тарзда, ишни юритувга қабул қилиш, ишларни тақсимлаш, медиация ва ҳ.к. ларни ўз ичига олади. Бунда, мазкур платформа орқали, суддан олдинги медиация каби, суд жараёни иштирокчи-томонларни яраштирув таомиллари, юридик фактларни тасдиқлаш жараёнлари ҳам амалга оширилади.

2020 йил 29 апрель ҳолатига ХХР халқ судларининг Медиа платформасида 2 819 та суд, 31 836 та онлайн касбий медиа ташкилотлари, 125 411 касбий медиаторлар аккредитациядан ўтказилган, ушбу платформа орқали 5 950 341 медиа ишлар тартибга солинган.

2019 йил 2 март куни Гуанчжоунинг Интернет-суди орқали “Катта кўрфаз” худудида (Гуандун-Гонконг Макао вилояти) медиация учун Интернет-суднинг - Гуанчжоу онлайн Интернет-суди низоларининг диверсификацион медиацияси платформаси (Guangzhou Court



OF The Internet Online Dispute Resolution Platform) ишга туширилди, мазкур платформа, ХХР да ҳуқуқий кибермайдонни куриш ғоясига кўра, тўлиқ циклдаги интернет-низоларни, жараён иштирокчилари “уйдан, Интернет тармоқдан чиқмасликлари” кўзда тутилган онлайн шаклда ҳал этувчи ягона сервисга айлантирилиши мўлжалланган. Ҳозирги кунга келиб (29.04.2020 йил) платформа 48 та медиа ташкилотлар, 714 та медиаторларни (шу жумладан уларнинг 20 таси Гонконг ва Макаога жойлашган) бирлаштиради. Ушбу платформа орқали интернет-ҳуқуқлар бузилиши (энг кўп бузилишлар фуқаронинг суратидан Интернетда фойдаланишга бўлган ҳуқуқнинг бузилиши ҳисобланади – асосан Пекин, Гуанчжоу, Сингапур, Гонконг ва Макао каби 5 та ҳудудда) тўғрисидаги низолар муваффақиятли ҳал этилади.<sup>1</sup>

Электрон суд далиллар билан ишлашни (қабул қилиш, сақлаш, сертификатлаш) суд ишларини оптималлаштириш учун ХХР судлари “блокчейн суд ишларини юритиш” модели (блокчейн технологияси)ни фаол ўрганмоқдалар, амалиётга татбиқ этмоқдалар, бу катта маълумотлар технологияларининг комбинациясига асосланган (облачных хранилищ) булут сақлаш ва блокчейн, суд ичидаги далилларни сақлаш тизимини ҳимоя қилади ва қалбаки электрон далилларга қарши курашади, унинг ишончилигини оширади.

Бугунги кунга қадар электрон далилларни сақлашнинг асосий платформаси Пекин интернет суди томонидан 2018 йил 9 сентябрда ишга туширилган “Тарози занжири” платформаси ҳисобланади.

Компьютер хизмат кўрсатиш платформаларидан ташқари, ХХР аҳолиси томонидан мобиль телефонлар ва WeChat дастурларидан кенг фойдаланишнинг умумий тенденциясига жавобан ХХР судлари томонидан “Mobil микро-суд” электрон суд платформаси (кўчма микро суди) яратилиб, фаол такомиллаштирилди ва тарғиб қилинди. WeChat платформаси асосида юзни аниқлаш, масофадан туриб аудио ва видео, электрон имзо ва бошқалар функциялардан фойдаланилади. Mobil микро суд орқали даъво аризаси билан мурожаат қилиш, ҳужжатларни юбориш, суд муҳокамасида иштирок этиш, иш бўйича далил алмашиш, воситачилик қилиш ва ҳоказоларни амалга ошириш мумкин.

ХХРда “Мобиль микро-суд” суд мажлисини бошлаган биринчи суд Чжецзян вилояти Юяо шахрининг Халқ суди ҳисобланади (2017 йил октябрь). 2018 йил январь ойида Чжецзян провинциясининг Нинбо шаҳар ўрта халқ суди томонидан “Нинбо мобиль кўчма микро-суди” очилди ва ўша йилнинг октябр ойида Чжецзян вилоятининг барча судлари ушбу платформага уланишди.

2019 йил март ойида, Чжецзян провинциясидаги кўчма микро судларнинг иш тажрибасини умумлаштириш ва таҳлил қилиш асосида ХХР Олий халқ суди ХХРнинг 12 та вилоят судлари томонидан микро-судларнинг ушбу форматга синовли уланишини осонлаштирди.

2019 йил 31 октябрь ҳолатига кўра “Мобиль микро-суд”ларда рўйхатдан ўтган фойдаланувчи-тарафлар сони 1,16 миллион нафарни, рўйхатдан ўтган адвокатлар - 73 200 нафарни ташкил қилиб, улар бўйича берилган даъволар ва улар бўйича рўйхатга олинган ишлар сони 3,14 миллиондан ошди.<sup>2</sup>

ХХР тажрибасидан келиб чиққан ҳолда электрон суд далилларини ишончли сақланишини ва қалбакилаштиришдан ҳимояланишини таъминлаш мақсадида “блокчейн суд ишларини юритиш” модели (блокчейн технологияси)ни янгиланиб турилишини таъминловчи тизимни ва “Mobil микро-суд” электрон суд платформаси (кўчма микро суди)ни яратиш ва ушбу электрон суд платформасини мамлакатимиз суд фаолиятига жорий этиш мамлакатимиз суд тизимида замонавий рақамли технологияни шакллантиришда ҳамда суд тизимини мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. [https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie\\_na\\_konchikah\\_palcev\\_opyt\\_knr\\_83633](https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie_na_konchikah_palcev_opyt_knr_83633) (Правосудие на кончиках пальцев: опыт КНР)

<sup>1</sup>[https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie\\_na\\_konchikah\\_palcev\\_opyt\\_knr\\_83633](https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie_na_konchikah_palcev_opyt_knr_83633) (Правосудие на кончиках пальцев: опыт КНР)

<sup>2</sup>[https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie\\_na\\_konchikah\\_palcev\\_opyt\\_knr\\_83633](https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie_na_konchikah_palcev_opyt_knr_83633) (Правосудие на кончиках пальцев: опыт КНР)





ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Allanazarova Nilufar Behzod qizi  
Ichki ishlar akademiyasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida qonun qabul qilinishi yoshlar tashkilotlarini tashkil qilinishi va ushbu qonun va yoshlar tashkilotlarining maqsad va vazifalari bo‘yicha manbalarga keng o‘rin berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlarga oid davlat siyosati, ilm-fan, O‘zbekiston Respublikasida, Qonun, Farmon, Qaror, Ustav, tadbirlar.

Yoshlar mamlakatning barcha jabhalarida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruh ekanligi sir emas albatta. Bugungi kunda yoshlar har qanday jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga salmoqli ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan jamiyatning ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi qudratli kuch hisoblanadi. Shu sababdan ham ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta’minlash doimiy ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi yaratilgan bo‘lib, uning samarasini yoshlarimizning jahon sahnalarida erishayotgan yutuqlari va zafarlarida ko‘rishimiz mumkin.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati haqida gapirar ekanmiz shuni alohida qayd etish zarurki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz Prezidenti sifatida ishga kirishgan ilk kunlaridanoq yoshlarga oid davlat siyosatining muhim tarkibiy qismlari qayta ishlab chiqilib, ushbu soha mamlakat siyosatining alohida yo‘nalishi sifatida rivoj topdi va ushbu sohadagi ishlar yangi yoshlarga oid davlat siyosati qonuni bilan belgilab qo‘yildi. Bugungi kunda ushbu jarayonlar muhimlik nuqtai nazaridan davlatimiz va shaxsan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning olib borayotgan insonparvarlikka asoslangan davlat siyosatida alohida o‘rin tutadi. Zero Prezidentimiz ta’kidlaganidek, Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. **Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etiladi.**<sup>2</sup>

Yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan e’tibor tarixiy tajribaga ega. Ushbu qonun bilan yoshlarga O‘zbekiston Respublikasida davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralib, yoshlarning ijtimoiy jihatdan kamol topishi, ijodiy iqtidorlarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish kafolatlandi. Mazkur qonunning qabul qilinishi o‘ziga kelayotgan yosh avlodni barkamol, jismoniy va ma’aniy jihatdan kamol toptirish yo‘lida davlatimiz tomonidan o‘z vaqtida qabul qilingan muhim qonun xujjati desak, xato bo‘lmaydi. Aynan mamlakatimizda olib borilgan davlat siyosatida aholining 64,0 foizini tashkil etadigan yoshlar qatlami masalasi kun tartibidagi doimiy masala sifatida ko‘ndalang turdi.

Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mamlakatimizda yosh

<sup>1</sup> Мирзиёев.Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.: Ўзбекистон. 2017. Б.-16.

<sup>2</sup> Мирзиёев.Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон. 2016. Б.-14.



avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning xayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar siyosati bo'yicha olib borilgan ishlarni tadqiq qilar ekanmiz, yurtimizda aynan yoshlarga bo'lgan e'tibor ularni mustaqil fikrlaydigan yurt kelajagiga dahldorlikini uyg'otish kabi maqsadlar davlatning oliy maqsadlaridan biri bo'lib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunning ham ikkinchi marotaba yangi tahrirda qabul qilinganligi yangi moddalar qo'shilganligi qudratli davlat shakllanishida muxim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston. 2017. B.-16.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2016. B.-14.

3. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2016-yil 14-sentabr, O'RQ-406-son

4. O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni. 1996-yil 31-may. 207-son.

5. O'zbekistonda 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi natijalari "Factbook" 2021 yil B.-122



GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA O'ZBEKISTON YOSHLARGA  
MA'NAVIYATINI TA'MINLASHDA BAG'RIKENGLIK MASALASI.

**Saidov Hakim G'ofurovich**

Urganch Davlat Pedagogika Instituti,  
Filologiya va tarix fakulteti f.f.d (PhD).

**Ruzmetova Zulfizar Aminboyevna.**

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi  
(ma'naviyat asoslari) yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadi doirasida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Unda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, ekstremistik oqimlarga qarshi tura olish kabi fazilatlarini rivojlantirish ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, globallashuv jarayonlarining yoshlarga ta'siri va ularning milliy o'zlikni anglashida siyosiy partiyalarning roli haqida fikr yuritiladi. Yoshlar orasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va yoshlarning ma'naviy kamolotiga erishish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** yangi O'zbekiston, yoshlar siyosati, fuqarolik mas'uliyati, bag'rikenglik, globallashuv, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, ekstremizmga qarshi kurash, siyosiy partiyalar roli, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 70-maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" yo'nalishi belgilangan bo'lib, unda yoshlarning fuqarolik mas'uliyati va bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish borasida bir qator muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar, ya'ni "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoya qilish"<sup>1</sup>, nazarda tutilgan. Jamiyatda yoshlar ma'naviy bag'rikenglik tuyg'usini kamol toptirish ijtimoiy hayotning hayot-mamot vazifasiga kirib, inson qadri va ijtimoiy mavqei yuqoriga ko'tarish, uning sha'ni, qadr-qimmatini ustuvorligini ta'minlash muhim insonparvarlik timsoli hisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy borliqqa, ma'naviy hayotning esa yoshlarga beradigan nafi va ko'magi muhim xususiyat bo'lib, birbirini mantiqan to'ldiradigan va bog'laydigan holatlardir. Yoshlarning jamiyat ma'naviyatini takomillashtirish ishidagi burch va mas'uliyatini oshirish ham mazkur vazifalar sirasiga kiradi. Mazkur ma'naviy, madaniy va ijtimoiy o'zaro aloqadorlikni yanada rivojlantirish, uni yangicha an'analar bilan boyitishni ta'minlash bugungi globallashuv davridagi zamonaviy jamiyatda muhim xususiyatlardan biridir.

Zamonaviy jamiyat barcha ijtimoiy-madaniy jarayonlarni istisnosiz rivojlantirishi bilan xarakterlanadi. XX asr o'rtalarida jamiyat rivojlanishi uchun strategik manbalar sifatida axborot va bilimlarga yo'naltirish, keyinchalik virtuallashtirish va ijtimoiy hayotning globallashuvi jamiyatning ayrim sohalarida ham (siyosiy, iqtisodiy, sanoat, ijtimoiy-shaxsiy) tub o'zgarishlarga olib keldi. Madaniyatlararo siyosat masalalarini dolzarblashtirish, mamlakat ichki va tashqi siyosatida yangi ustuvor yo'nalishlarni yaratish, madaniyatli sanoatning globallashuvi «postindustrial jamiyat», «axborotlashgan jamiyat», «intellektual jamiyat» singari yangi tushunchalarni shakllantirdi va zamonaviy sivilizatsiya postindustrial bosqichiga o'tishi tezlashdi.

Globaldashuvning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirini oldini olish uchun avvalo ularda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish zarur. Turli mafkuraviy ta'sirlar, ayniqsa, yoshlar tafakkuriga ta'sir etayotgan globallashuv sharoitida bugungi kun tahdidlariga qarshi ogoh bo'lish burchimizdir. Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy bilimlarini to'g'ri shakllantirish, uni turli tahdidlardan asrash, ogohlilikni oshirish ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridandir. Endi globallashuvning mamlakatimiz kelajagiga salbiy ta'siri haqida to'xtalsak. Globallashuvning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'siri: Birinchidan, bu Internet, mobil telefonlar, telekommunikatsiyalar va turli axborot

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.



vositalarining yuksak rivojlanishi natijasidir. Bu yo'llar bilan taqdim yetilayotgan "qadriyatlar" bizni tarixiy qadriyatlarimizdan mahrum qiladi, yoshlarimizni milliy ma'naviyatimizdan uzoqlashtiradi. Ta'kidlash joizki, internet tarmog'idagi diniy mazmundagi buzg'unchi audio va video materiallar tufayli adashgan o'smirlar ko'p. Jahon amaliyotida tan olingan haqiqat bor. Bu mamlakat bo'lishning yuksak tuyg'usidir. Yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash va ularda bag'rikenglik fenomenini yuksaltirishda partiyalarning o'rni kattadir. Siyosiy partiyalar g'oyalari jamiyatda yoshlar qatlamlarning ham ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy xohishirodalarini ifodalaydi va bu tamoyillarni takomillashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi g'oyaviy yo'nalishida yoshlar ma'naviyatida bag'rikenglik fenomenini ro'yobga chiqarish yuzasidan ular ongiga vatanga sadoqat, insonparvarlik, millatga mas'uliyat bilan xizmat qilish kabi fazilatlarini singdirish vazifalari qo'yilgan. Partiya Ustavida belgilanganidek, "partiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o'zlikni anglash hissini oshirish, milliy g'urur, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish; o'z safida yurtning vatanparvarlarini birlashtirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini O'zbekiston manfaatlari hamda uning xalqaro obro'-e'tiborini oshirish yo'lida safarbar etish; yoshlarni milliy mustaqilligimizni, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash, o'zlari qiziqqan kasb-hunarga yo'naltirishga ko'maklashish; yoshlar ongi uchun zararli bo'lgan "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoya qilishga hissa qo'shish, ularning Vatan ravnaqi yo'lidagi amaliy harakatlarini qo'llab-quvvatlash"<sup>1</sup>. Uning asosini davlat, aniqrog'i milliy davlat tashkil etadi. Adolat uchun aytish kerakki, davlatini barpo etgan davlatgina dunyo bilan hamnafas bo'la oladi, o'z qiyofasiga ega sivilizatsiya yarata oladi, o'z navbatida, deraza yarata olgan davlatgina boshqa sivilizatsiyalashgan davlatlar bilan raqobatlasha oladi. Shunday ekan, mamlakatimizning bugungi ahvoli, dunyoda o'z o'rnini topishga intilish davlatchilikning boshlanishi deyishga to'liq asoslar bor. Biz mustamlaka bo'lganimizda "tug'ma millat", "milliy", "millatchilik", "milliy g'oya", "milliy manfaat", "milliy tarbiya" haqida gapirishning iloji yo'q edi. Zero, bu mustamlakachi mamlakatning "ijodkor" baynalmilalistik mafkurasini buzish, deb hisoblangan. Endi yuksak milliy ongni qanday shakllantirish kerak, uni amalga oshirish yo'llari qanday, degan savolga kelsak. Bugungi kunda barcha davlat va davlatlar globallashgan dunyoda yashashga moslashmoqda. Uning zamirida individual tanlash erkinligi va individual tashabbus g'oyasiga asoslangan G'arb sivilizatsiyasi yotadi.

Bugungi kunda jamiyatda yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini yanada yuksaltirish uchun tadqiqot va tahliliy ishlar, ilmiy-texnologik jarayonlarni tashkil etish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, bu jarayonda asosiy muammolarni hal etib borishga ko'maklashadi. Bu borada "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ta'kidlanishicha, "O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda"<sup>2</sup>

Yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazilish choratadbirlarining qanday holatda ekanligini aniqlash borasida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. "Sizning fikringizcha, joylarda aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari yetarli darajada olib borilyapti deb uylaysizmi?", degan savolga respondentlar 31 foiz holatda joylarda aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari yetarli darajada emas, deb javob berishgan, 34 foiz ishtirokchilar targ'ibot ishlari past darajada, deb javob bergan. Demak, mazkur savolga respondentlar 65 foiz holatda salbiy holatda javob berganlar. 6 foiz ishtirokchilar aytishim qiyin, deb javob berganligi ularning ma'naviy-ma'rifiy soha bilan qiziqmasligi, ishtirok etib bormasligini bildiradi. Ishtirokchilar faqat 29 foiz holatda targ'ibot chiqishlari yetarli darajada, deb javob bergan, xalos"<sup>3</sup>. Mazkur sotsiologik tadqiqot natijasiga ko'ra xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda joylarda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari kuchaytirilishi lozim. Yoshlar o'rtasida ma'naviyat, bag'rikenglik va uning bunyodkor tamoyillari mohiyatini shunday mezonlarda targ'ibot qilishimiz lozimki, uni yoshlar nafaqat tushunishi, balki ijtimoiy hayotda doimiy ravishda amal qilish qobiliyatini shakllantirishimiz lozim. Ma'naviyat va ma'rifat markazlari va boshqa targ'ibot funksiyasiga ega bo'lgan tashkilotlar joylarda targ'ibot uchrashuvlarida

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi Ustavi. Toshkent-2019. –B. 3.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/4676839?ONDATE2=19.06.2020&action=compare>.

<sup>3</sup> "Istiqbol" Mintaqaviy tadqiqot markazi axborot-tahlil materillari. MTM, JDPU, 2021 yil.



yoshlarning jamiyat taraqqiyoti uchun bunyodkorlik, yaratuvchanlik va bag'rikenglik kayfiyatlarini namoyon bo'lishiga erishishlari lozim. Umuman olganda, davlat va jamoat, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda yoshlar o'rtasida milliy ma'naviyatimiz targ'ibotini kuchaytirishimiz lozim.

**Xulosa:** Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi doirasida yoshlarga oid davlat siyosatining ahamiyati, ularning ma'naviy kamolotini oshirish va jamiyatda bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirish masalalari yoritilgan. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularga fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik va qonunlarga hurmat tuyg'ularini singdirish globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Siyosiy partiyalar va davlat institutlari yoshlar orasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni kuchaytirish, ularni milliy madaniyat va qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali yoshlarni zararli oqim va mafkuralardan himoya qilishda asosiy rol o'ynashi ta'kidlanadi. Maqolada keltirilgan xulosalarga ko'ra, jamiyatning barqaror taraqqiyoti va yoshlarning ongli, ma'naviy jihatdan yetuk avlod sifatida shakllanishi uchun davlat va jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalari hamkorlikda izchil chora-tadbirlar amalga oshirishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi Ustavi. Toshkent-2019. –B.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori..
4. "Istiqbol" Mintaqaviy tadqiqot markazi axborot-tahlil materillari. MTM, JDPU, 2021 yil.



**Saidov Hakim G‘ofurovich**

Urganch Davlat Pedagogika Instituti,  
Filologiya va tarix fakulteti f.f.dok (PhD).

**Ibragimova Nilufar Qudrat qizi.**

Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi  
(Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi  
1-kurs magistranti

**Annatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar ongi va qalbiga vatanparvarlik tuyg‘usini singdirish, bugungi kunda har bir jamiyat uchun muhim vazifalardan biridir. Vatanparvarlik, nafaqat tarixiy meros, balki yoshlarda o‘z xalqiga, yurtiga nisbatan kuchli bog‘lanish hissini yaratishi borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘z:** vatanparvarlik, qahramonlik, yoshlar tarbiyasi, oila va jamiyat roli, ta’lim va tarbiya, vatan himoyasi, milliy qadriyatlar, ma’naviy qadriyatlar, qahramonlar.

**Abstract:** This article discusses the importance of instilling a sense of patriotism in the minds and hearts of young people, which is a crucial task for every society today. Patriotism not only relates to historical heritage but also involves fostering a strong connection among the youth towards their people and homeland.

**Key words:** Patriotism, heroism, youth upbringing, role of family and society, education and upbringing, defense of the homeland, national values, spiritual values.

**Аннотация:** Эта статья обсуждает важность привития чувства патриотизма в умах и сердцах молодежи, что является ключевой задачей для каждого общества сегодня. Патриотизм не только связан с историческим наследием, но и включает в себя развитие крепкой связи молодежи со своим народом и родиной.

**Ключевые слова:** Патриотизм, героизм, воспитание молодежи, роль семьи и общества, образование и воспитание, защита родины, национальные ценности, духовные ценности.

Vatanparvarlik va milliy g‘urur inson hayotining, mavjudligining mohiyatini ifodalovchi faoliyat, faoliyat, amallar, altruizm, qahramonlik va jasorat kabi kategoriyalarga bo‘linadi. Vatanparvar bo‘lishga intilib yashash odatiy tuyg‘u va unga hamma ham qodir. Istagan bir kishi vatanparvar bo‘lishi va bu tuyg‘uni ob‘ektivlashtirishi mumkin. Ammo qahramon bo‘lish har kimga nasib etavermaydi. Qahramonlik vatanparvarlikning yuqori ko‘rinishi. Bu o‘rinda vatanparvarlik va milliy tuyg‘uning turli darajalarda, pog‘onalarda kelishi ko‘zga tashlanadi. Mavjud ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlarni, tajribalarni o‘rganishdan kelib chiqib, biz ularni quyidagi pog‘onalarga ajratishimiz mumkin:

- Ongosti pog‘onasi;
- Anglangan va hayotiy maqsad sifatida shakllangan ma’naviy axloqiy ideal pog‘onasi;
- Palliatif motivlar ta’siri pog‘onasi;
- Chuquroq e’tiqod pog‘onasi;
- Turli-tuman vaziyatlar va sensitiv (hisij ruhiy) ta’sirlar pog‘onasi;
- Taqodifiy omillar ta’siri pog‘onasi.

Vatanparvarlik va milliy g‘urur goho taqodifiy ta’sirlar mahsuli sifatida ham kelishi mumkin. Inson xarakterida taqodiflar muhim o‘rin egallaydi. Masalan, etnopsixologik kuzatishlardan ma’lumki, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtidan uzoqda ishlayotgan shaxs xalqi, millati haqida haqoratli fikr eshitib qolsa, kutilmaganda unda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘usi jo‘sh uradi, u o‘z xalqi, millati sha’nini himoya qilishga intiladi. U shu paytgacha etnoegoistik kayfiyatga berilgan bo‘lishi mumkin, ammo bir turtki bo‘lib, u endi vatanparvarga, xalqparvarga aylangan. Ko‘rinib turibdiki, vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usi ko‘p omilli hodisa, ular turli, goho esa zidiyatli ta’sirlar ostida shakllanadi. Vatanparvarlik asosan “yurt”, “ota makon”, “ona vatan” kabi ijtimoiy-jug‘rofiy tushunchalar orqali idrok etiladi. Milliy g‘urur esa ma’lum bir millatga mansublikda faxrlanishni taqozo qiladi. Millat yaratgan artefaktlar, madaniy boyliklar, tili, yozuvi va tarixi, o‘tmishi shaxsda faxr hissini uyg‘otishi kerak. Vatan betakror. Ushbu betakrorlik vatanparvarlik tuyg‘usini ham betakror, izohlash qiyin qiladi. Shaxsda ikki yoki uch vatan bo‘lmaydi, u doim bitta. Xalq iborasi bilan aytganda: “Inson kinodik qoni to‘kilgan joy uning vatani. U ikkita bo‘lmaydi”. To‘g‘ri, keyingi yillarda bu tushunchada, tasavvurda transformatsiya kuzatiladi.



Globalizatsiya, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi vatan va vatanparvarlik tushunchasiga ma’lum bir o‘zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlarni ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>. Misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6260-son farmoni ijrosini ta’minlash<sup>2</sup>, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish va o‘shib kelayotgan yosh avlodni Vatan taqdiriga daxldorlik, ma’naviy-axloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda qonunlarimizga nisbatan yuksak hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, erkin fikrlaydigan, mustahkam bilimli, jamiyatda munosib mavqeyini egallash qobiliyatiga ega, mustaqil qaror qabul qilishga qodir, mamlakatining, xalqi va o‘z oilasining farovonligi va yanada rivojlanishi orzusida bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun harakatlar qilinmoqda. Bugun vatandoshlarimiz AQSH va Evropadagi ilg‘or davlatlarda yashashadi, ishlashadi, o‘sha davlatlardagi fuqarolar bilan oila qurishadi. Bu migratsiya jarayonlari vatan va vatanparvarlik tushunchalariga ta’sir etmay qolmaydi, albatta. Ammo unutmaslik kerakki, o‘sha yurtidoshlarimiz “o‘z kinodik qoni to‘kilgan” O‘zbekistonni ona vatan deb biladi, o‘zining millati o‘zbek ekanidan g‘ururlanadi. Vatan va vatanparvarlik kishida hisiy-ruhiy ko‘tarinkilik, altruistik niyatlar, fikrlar uyg‘otadigan voqealar hisoblanadi. Vatan uchun fidokorona mehnat qilish, uni donishmandlardan himoya etish boshqa xalqlar, millatlar qatorida navbat, hurmat qilish, farovon va obod yurtga aylantirish kabi oliyjanob maqsadlar ana shu niyatlar va fikrlarning amaldagi ifodasi sifatida keladi. Fidoyilik, altruizm, qahramonona mehnat shunchaki, ishtaklar va shiorlar emas, ular har doim ob’ektivlashishi tufayli real voqealarga aylanadi. Shoir aytganidek, “Mening vatan ishqim ajib muhabbat, bu ishqni engolmas idrokim, zehnim. Ha, vatanga bo‘lgan mehr, muhabbatni idrok va zehn bilan izohlash qiyin”. Akademik E. Yusupov yozganidek, “vatanparvarlik – o‘z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog‘lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro‘-e’tibori ham shu millat kishilari vatanparvarlik tuyg‘usining darajasi bilan bog‘liqdir”. Vatanparvarlik ham milliy, ham umuminsaniy ma’naviy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Olim ta’kidlaganidek: “vatanga bo‘lgan munosabat ma’naviya darajasiga ko‘tarilib, inson faoliyatiga maqsad va yo‘nalish berish - vatanparvarlikdir”. Bunday ta’rif va tasniflarni yana keltirish mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlagandek: “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o‘qitish, navqiron avlodimizni bizning xalqimizga mutlaqo begona bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish masalalariga zarur darajada e’tibor qaratilmadi. Ayniqsa, diniy ekstremizm g‘oyalari berilib, yo‘ldan adashgan yoshlarni sog‘lom turmush tarziga qaytarishda biz Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan askar va ofitserlarimizning salohiyatidan foydalana olmayapmiz. Holbuki, Vatan himoyasida toblangan mard o‘g‘lonlarimiz o‘zining mardlik va jasurlik fazilatlarini, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usi bilan obro‘-e’tibor qozongan harbiy xizmatchilarimiz yoshlarga har tomonlama ibrat va o‘rnak namunasi bo‘lishi mumkin. Bir fikrni hech qachon unutmasligimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurol-yarog‘lar bilan ta’minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma’naviy jihatdan zaif bo‘lsa, ya’ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin<sup>3</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, vatanparvarlik nafaqat betakror, balki izohlanishi qiyin hol, hodisa. Uning paydo bo‘lish nuqtasini topish qiyin. Tadqiqotchilar, inson xatti-harakatlarining, masalan, tashqi tovushga, xavfga, silashga, ovqatlanish va suvga bo‘lgan ehtiyojlarning bo‘ligiga oid psixofiziologik va neyrologik nuqtalarni topishgan, lekin ular sevgi, muhabbat uyg‘otadigan nuqtani topisholmadi. Bunda ular sevgi, muhabbat bir vaqtning o‘zida butun vujudda paydo bo‘ladi, degan

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF- 5106-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – № 27. – 2017

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 mart kunidagi PQ-150 sonli “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 3-soni. – 2017. – 10 yanv.



xulosaga kelishgan. Vatanparvarlik ana shunday butun vujudda paydo bo‘ladigan tuyg‘udir. Shuning uchun bu tuyg‘uni tadqiqotchilardan ko‘ra inson his-hayajonlari, ichki sensitivil kechinmalari chuqur sezadigan shoirlar to‘laroq, ob‘ektivroq ifodalaydilar.

Erkin Vohidovning “O‘zbekim” yoki Abdullo Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekiston” ni she‘rlari ana shunday tuyg‘ular ifodasidir.

*Men nechun sevaman O‘zbekistonni  
Tuproqni ko‘zimga aylab to‘tiyo.  
Nechun Vatan deya yer-u osmonni  
Muqaddas atayman, atayman tanho.*

A. Oripov turli vatanlar to‘g‘risida to‘xtalar ekan, har kim o‘z vatanini sevishiga shubha uyg‘otmaydi. Ammo u O‘zbekiston farzandi sifatida jonu tanini shu yurt, shu o‘lka bilan omuxta ekanini g‘urur bilan qayd etadi:

*Vatanlar, Vatanlar,  
Mayli, gullasin,  
Bog‘unsin mangulik muzda ham, ammo  
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun  
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!*

Demak, vatanni boyliklari uchun emas, balki qalbi, vujudi va borligi ona zamin bilan omuxta, bir bo‘lganligi uchun sevadilar. Vatanparvarlik ana shunday sevgi!

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 3-soni. – 2017. – 10 yanv.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF- 5106-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – № 27. – 2017

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 mart kunidagi PQ-150 sonli “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.





YOSHLAR ONGIDA TINCHLIK VA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH  
OMILLARI

Saidov Hakim G'ofurovich

Urganch Davlat Pedagogika Instituti,  
Filologiya va tarix fakulteti  
f.f.dok (PhD).

**Annatsiya:** Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni Vatan tuyg'usi, tinchlik va milliy g'urur haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'z:** vatanparvarlik, tinchlik, mexir muruvat, jasorat, himoya qilish, Vatan.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются чувства патриотизма, мира и национальной гордости у подрастающего молодого поколения.

**Ключевые слова:** патриотизм, полководец, герой, мужество, защита, Родина.

**Abstract:** This article discusses the feelings of patriotism, peace, and national pride in the growing younger generation

**Key words:** patriotism, warlord, hero, courage, protection, homeland.

“Agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi”<sup>1</sup> Tinchlik qaror topgan yurtida xotirjamlik hukm suradi, jamiyatda har tomonlama yuksalish va rivojlanish ro'y beradi. Odamlarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan ishonch va sadoqatlari, mehr-muruvvatlarining samimiy bo'lishi ham asosan yurt tinchligining samarasidir. Agar istiqloqlarning o'tgan qariyb yigirma uch yiliga nazar tashlasak, poytaxtimiz, viloyatlar markazlari, shahar, qishloqlarimiz, hatto eng chekka hududlarda ham katta o'zgarishlar ro'y berganiga guvoh bo'lamiz. Yurtimizdagi xotirjamlik va barqarorlik tufayli xonadonlarda to'y-u tomoshalar, bayram-u shodiyonalar bir-biriga ulanib ketmoqda. Bu ne'matlarga chin ma'noda shukrona qilish va ularning qadriga etish kerak. Agar notinchlik hukm surayotgan yurtlarga nazar tashlasak, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikka ming bora shukr qilamiz. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 600 ga yaqin terrorchi tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi Islom niqobi ostida faoliyat olib borishyapti. “Al-jihad al-islomiy” (Islom jihodi), “Al-qoida” (asos), “lashkari jihod”, “Qurolli Islomiy harakat”, “Turkiston Islom harakati”, “Islom fronti” kabi o'nlab tashkilotlarni ana shu ro'yxatga kiritish mumkin. Tinchlikning qadriga etish, uni saqlab turishda oilada ota-onaning roli katta. Ota-ona farzandlariga tinchlik oliy ne'mat ekanligi, tinchlik hukm surayotganligi sababli farovon hayot kechirayotganimizni muntazam tushuntirib borishlari darkor. Ayniqsa, ayol kishi bolalari tarbiyasiga mas'ul bo'lgani uchun ham bolalariga tinchlik o'zi nima ekani, bugungi kundagi mustaqilligimizga osonlik bilan erishmaganimiz, uning qadriga etishimiz kerakligini tushuntirish bilan bir qatorda farzandlarida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib borishi zarur. Shundagina farzandlarimiz elim-yurtimi deb yonib yashaydi va jamiyatga kerakli shaxs bo'lib etishadi.

Yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

Qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

Milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

Har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> <https://m.zamin.uz/uz/ozbekiston/13089-islom-karimov-ozimizdan-sotqin-chiqmasa-ozbek-halqini-hech-kim-hech-qachon-eng-a-olmaydi.html>

<sup>2</sup> Yoshlarni Harbiy –vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi



Jismoniy jixatdan chinikkanlik -bu nafakat sog‘lom tanaga ega bo‘lish, balki, bu Vatan himoyasiga va mexnatga tayyorgarlik hamdir. Hozirgi statistik ma‘lumotlarga qaraganda, yoshlarning 50 foizining salomatligi va jismoniy tayyorgarligi kuyilayotgan talablarga javob bermaydi. Bu kamchiliklar umum-o‘rta ta‘lim maktablarida, yoshlar tashkilotlarida, jismoniy tarbiyani talab darajasida olib borilmaganligi, bu muhim ishga, aytish mumkinki, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ishga ko‘p xollarda yuzaki yondoshilayotganlikdan dalolat beradi. Xalq farovonligi yo‘lida har turli usullarni axtarmoq va iloji boricha Vatanga zarar yetkazadigan illatlarga barham bermoq kerak.<sup>1</sup> Hozirgi vaqtda, O‘zbekistonda bir necha qonun va qarorlar ana shu muammolarni bartaraf etish, yoshlarning jismoniy tarbiyasini yaxshilash maksadida Prezident va hukumat tomonidan kabul qilingan va bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston mustaqillik, taraqqiyot yo‘lidan buyuk kelajak sari shaxdam odimlar tashlab bormoqda. Mehnatsevar, tinchlikparvar, tarakkiyoti yuksak darajada bo‘lgan, madaniyati, fani rivojlangani, huquqiy jamiyat poydevorini yaratish jarayonida yosh avlodning ham, albatta o‘z o‘rni bo‘lishi kerak. Yosh avlodni buyuk kelajak ko‘ruvchilar sifatida tarbiyalash, ularni xalqimizning bugungi kundagi ulkan yaratuvchanlik ishlarining munosib davomchilari sifatida voyaga yetkazish uchun Prezidentimiz, hukumatimiz barcha ishlarni amalga oshirmoqdalar. Xalqimizning mana shu ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun hukumatimiz tomonidan biriga qator qonunlar, qarorlar qabul qilindi. Bular jumlasiga, “Ta‘lim xaqidagi konun”, “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturlari”, “Sog‘lom avlod uchun” va boshqalar kiradi. Bu qonunlar bizlarga ta‘lim va tarbiyaning barcha turlari bilan bir qatorda yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini xam mazmunan sifat jixatidan yanada yuqori darajalarida tashkil etish va amalga oshirish imkonini beradi. Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, O‘zbekiston xalqi buyuk davlat, jamiyat qurilishi yo‘lida mardonavor mehnat qilmoqda.

Yoshlar orasida ularda vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga mas‘uliyatli munosabat, harbiy xizmatga hurmat tuyg‘ularini tarbiyalash, mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo‘yicha yuksak burch tuyg‘usini shakllantirish borasidagi ishlarni kuchaytirsin;

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan turli sport va boshqa tadbirlarni, festivallar va tanlovlarni tashkil etish va o‘tkazishni kengaytirsin;

Zamon talablarini hisobga olgan holda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish hamda yoshlar va fuqarolarda yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bo‘yicha ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirsin. Vatanparvarlik davlat, xalq tomonidan qabul qilingan, jamiyat taraqqiyotini belgilab beradigan, strategik maqsad mujassam Konstitusiyani (asosiy Qonunini), ungi asoslangan qonuniy tartiblarni himoya qilishida ham aks etadi. Konstitusiya va unga asoslangan qonunlar shunchaki normal narsa emas, ularda jamiyatning strategik maqsadi, kelajak haqidagi tasavvurlar va orzu tilaklar mujassamdir. Ularni himoya qilish Vatanni himoya qilishga tengdir. Jannatmakon yurtimizda tinchlik-osoyishtalik barqarorligini ta‘minlash yo‘lida davlatimiz tomonidan katta ish olib borilayotgani bizning baxtimizdir. Shunga ko‘ra biz ham tinch, osoyishta va farovon hayotning qadriga etish, bu farovonlik, osuda turmushimizning barqarorligini ta‘minlashlikda o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz lozim. Bu orqali turmushimiz farovonligiga erishamiz.

Ibn Abbos r.a.dan rivoyat qilingan hadisi sharifda aytilganidek, «ikki eng aziz ne‘mat boru, ko‘plar buning qadriga yetishmaydi, bular salomatlik va tinchlik-xotirjamlikdir» (Imom Buxoriy va Imom Termiziy rivoyati). Tinchlik qaror topgan yurtda xotirjamlik hukm suradi, farzandlar emin-erkin kamolga erishadi, oqibatda, jamiyatda har tomonlama yuksalish va rivojlanish ro‘y beradi. Demak, dunyoda hayotning bir maromda davom etishi, xalqning haq taolo buyurgan ishlarini mukammal va xotirjam ado etishlari uchun tinchlik va osoyishtalik lozim. Yaratgan Parvardigor Qur‘oni karimda ana shu tinchlikni saqlash va qadrlash vazifasini inson zimmasiga yuklab, Islom dini tinchlikka targ‘ib qilishini, shaytoniy yo‘llarga ergashmaslik lozimligini ta‘kidlab, shunday deydi: «Ey, imon keltirganlar! Yoppasiga itoatga kirishingiz va shaytonning izidan ergashmangiz! Albatta, u sizlarga aniq dushmandir».<sup>2</sup>

Demak, vatanni boylklari uchun emac, balki qalbi, vujudi va borlig‘i ona zamin bilan omuxta, bir bo‘lgani uchun sevadilar. Vatanparvarlik-ana shunday sevgi!

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://m.zamin.uz/uz/ozbekiston/13089-islom-karimov-ozimizdan-sotqin-chiqmasa-ozbek-halqini-hech-kim-hech-qachon-eng-olmaydi.html>
2. Yoshlarni Harbiy –vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi
3. <https://eco.gov.uz/uz/site/news?id=2380>

<sup>1</sup> <https://eco.gov.uz/uz/site/news?id=2380>

<sup>2</sup> Qur‘oni karim.(Baqara, 208).



**Xasanov Maksud Furkatovich**

Urganch Davlat Pedagogika Institutining  
Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o'qitish metodikasi  
(Ma'naviyat asoslari) ta'lim yo'nalishi  
1-kurs magistranti (+998999658381)

**Annotatsiya:** Zamonaviy axborot texnologiyalari ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillarga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ular ma'naviy bilimlarning global tarqalishiga bundan tashqari odamlarning turli madaniyat va diniy oqimlar bilan tanishishiga imkon yaratadi. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlarning universallasuvi va shaxsiylashuviga olib keladi va bu an'anaviy diniy tuzilmalarning o'z ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Ammo, texnologiyalar orqali axloqiy normalarga ziddiyatli axborotlarning tarqalishi salbiy oqibatlariga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Sun'iy intellekt, raqamli axborot vositalarining rivojlanishi, yangi axloqiy masalalarni ham yuzaga keltiradi. Texnologiyalar ma'naviyatga ijobiy imkoniyatlar yaratsa ham u bilan bog'liq axloqiy cheklovlar va xavflar ham dolzarbligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy axborot texnologiyalari, ma'naviyat, axloqiy tamoyillar, global axborotni tarqalishi, sun'iy intellekt, axloqiy ziddiyatlar, diniy ta'lim, individualizm, ma'naviy izolyatsiya.

Ma'lumki axborot turli sohalarda turlicha tushunib kelinadi. Masalan, dehqon uchun axborot yerning ozuqa bilan to'yinganligi yoki yetishtirilgan mahsulotning bozordagi narxi, muhandislar uchun texnika va texnologiyalar, o'quvchi uchun fanlardan olayotgan ma'lumotlaridir. Ya'ni, turli soha xodimlari o'z sohalari bilan bog'liq ma'lumotlarni axborot sifatida qabul qiladilar. Demak, inson doimo axborot bilan ish ko'rib kelgan. Hozirgi zamon axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar insoniyat uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Axborot olish, bilim almashish va global miqyosda muloqot qilish jarayonlari ancha tezlashib va qulaylashdi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar insonning ma'naviy hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ular ma'naviyatni boyitish va tarqatish vositasi bo'lishi bilan birga, ayrim hollarda an'anaviy ma'naviy qadriyatlarga zarar yetkazish xavfini tug'diradi.

Axborot texnologiyalarining ijobiy tomonlari sifatida ular orqali diniy, axloqiy va ma'naviy bilimlarni keng ommaga yetkazish imkoniyati qayd etiladi. Shu bilan birga, ularning salbiy ta'siri ham mavjud bo'lib, bu globallasuv va madaniyatlar aralashuvi tufayli milliy ma'naviyatning yo'qolib ketish xavfini oshiradi. Ushbu mavzu zamonaviy texnologiyalarning inson ma'naviyatiga bo'lgan ta'sirini chuqur o'rganishni talab qiladi, chunki texnologiyalar va ma'naviyatning o'zaro aloqasi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari zamonaviy dunyoda asosiy vositalardan biriga aylangan bo'lib, ular hayotning barcha jabhalarida, jumladan, ta'lim, madaniyat va ma'naviyat sohalarida ham keng foydalanilmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar yordamida axborot tarqatish va olish jarayoni tezlashib, globallasuv jarayoni kuchaygan. Shu jarayonning natijasida insonlar orasida muloqot va bilim almashinuvi osonlashdi, lekin ayni vaqtda bu texnologiyalar milliy ma'naviyatga ham sezilarli ta'sir o'tkazmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar, ma'naviy bilimlar va qadriyatlarni keng ommaga yetkazish va ularni o'rganish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan: ma'naviy-ma'rifiy ta'lim, onlayn ma'ruzalar, vebinarlar va diniy bilimlarni o'rgatuvchi saytlar orqali insonlar o'z ma'naviyatini mustahkamlash imkoniga ega bo'lishmoqda. Madaniy va diniy an'analarni targ'ib qilish, raqamli platformalar milliy va diniy qadriyatlarni va an'analarni keng ommaga tarqatishda samarali vositaga aylanmoqda. Axborot olish qulayligi yoshlar va katta avlod vakillari qiyinchiliksiz turli axloqiy va ma'naviy manbalarni topishi va o'rganishi mumkin. Bu jarayon milliy madaniyatning saqlanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va dunyo miqyosida o'zbek xalqining ma'naviy boyliklarini keng tarqatishga yordam berishi mumkin. Biroq axborot texnologiyalarining keng qo'llanishi ma'naviyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Ushbu salbiy ta'sirlar quyidagilar bilan izohlanadi:

Axloqiy va madaniy buzilish, internet orqali yot g'oyalar, buzg'unchi madaniyatlar va noto'g'ri axloqiy qadriyatlar tez tarqalmoqda. Bu esa yoshlar orasida ma'naviy zaiflikni keltirib chiqarishi



mumkin. Milliy qadriyatlarning zaiflashishi, globallashuv natijasida xalqning an'anaviy ma'naviy qadriyatlari xorijiy madaniyatlar bilan aralashib, ularning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni e'tiborsiz qoldirish xavfi tug'iladi.

Axborot texnologiyalari salohiyatidan maqsadli va samarali foydalanish orqali ma'naviyatni mustahkamlash va rivojlantirish mumkin. Bunda onlayn platformalar orqali ma'naviy tarbiya berish, maktablar va ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar orqali ma'naviyatga oid darslarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda maxsus platformalar va ilovalar yaratish lozim. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda milliy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish, Televidenie, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot manbalarida milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilish lozim. Shuningdek, milliy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan dasturlar va loyihalar ishlab chiqilishi kerak. Axborot madaniyatini rivojlantirish jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida axborotdan foydalanganda tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va texnologiyalar orqali ijobiy ta'sirlarni tanlash malakasini oshirish kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalari insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, ma'naviyatga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot davomida texnologiyalarning inson ma'naviy hayotini boyitish va unga zarar yetkazish salohiyati o'rganildi. Ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali diniy, madaniy va axloqiy bilimlarni kengaytirish imkoniyatlari yaratildi, bu esa global miqyosda ma'naviyatning tarqalishiga yordam bermoqda. Biroq bu jarayon, ayniqsa yoshlar orasida, milliy ma'naviyatga yot g'oyalar va madaniyatlarning kirib kelishi, an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi kabi xavflarni ham yuzaga keltirdi. Texnologiyalarning ijobiy ta'sirini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun axborot vositalaridan foydalanishda ma'naviy yetuklik va axloqiy mas'uliyatning oshirilishi zarur. Texnologiyalarni to'g'ri yo'naltirgan holda, ular jamiyat ma'naviyatini boyitish, madaniy merosni saqlash va kengaytirish uchun kuchli vositaga aylanishi mumkin. Shu bois, zamonaviy axborot texnologiyalaridan maqsadli va ongli foydalanish orqali milliy va umumiy ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga erishish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va eng asosiysi so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqloq g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat-axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish va ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini kursatadigan shunday bir gap bor: "har qanday puch g'oya, uydirma, haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa-"haqiqat" tayyor bo'ladi, odamlar unga chippachin ishonadilar"<sup>1</sup>. Jumladan shuni anglash mumkun-ki, insonlarning ma'naviyatiga va tarbiyasiga har qanday usulda ta'sir qilish mumkin. Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ham shu ya'ni nafaqat yoshlar balki yoshi kata odamlarimiz ham ularning domiga tushim qolmoqda. Ayniqsa yoshlar har xil turdagi yevropacha urflar va odatlarni, kiyinish estetikasini va etiket muammolarini ommaviy axborot vositalaridan o'rganib hayotga tadbir qilishga harakat qilishmoqda. Bu oxir oqibatda mintalitetning jar yoqasiga olib kelib qo'yishiga sabab bo'ladi. Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol-axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbini nishonga olinadi. Garchi u o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasada, uning qo'poruvchilik kuchi va keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurollarnikidan kam bo'lishi mumkun emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi va uni o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi, demak insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi.

Virtual voqelik va kibermadaniyat, kishilarning fe'l-atvorini osonlikcha dasturlashtirish imkoniyatini beryapti, ya'ni yoshlar ongi, ichki dunyosi va qalbini egallashning qulay vositasiga aylandi. Shu jihatdan, hozirgi kunda O'zbekiston aholisining aksariyati internet tarmog'idan foydalanadi. Global tarmoqning ijobiy jihatlari bilan birga uning salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib,

<sup>1</sup> A.Lutfullayev, E.Jabborov "Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri hamda axborot hurujlari"-2021



u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- real muloqotning virtualga aylanishi;
- ko'ngilochar saytlarga ro'ju qo'yish oqibatida vaqtning boy berilishi;
- kompyuterda ko'p vaqt o'tirishning salomatlikka salbiy ta'siri;
- noxolis ma'lumotlarga ishonish holatlarining ko'pligi;
- pornografik saytlar orali axloqsizlikning targ'ib qilinishi;
- psixologik manipulyatsiya qiladigan saytlar (sektalar, terroristlar va hokazo) orqali turli g'arazli maqsaddagi guruhlariga qo'shib ketish holatlari.<sup>1</sup>

Bugungi kunda biz ayni vaqtda bitta haqiqatni anglashimiz lozim, u ham bo'lsa axborot hajmining o'sishi haqiqiy bilimlar hajmining o'sishini anglatmaydi. Ulkan axborot makonida ma'no-mazmunini yo'qotish muammosi nihoyatda o'tkirlashadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda uyum-uyum "axborot axlatlari" borligini e'tirof etish ham o'rinli. Garchi ijtimoiy tarmoqlar axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to'plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmoqlaridagi erkinlik kompyuteriga qaramlikni kuchaytiradi, bugungi kunda bir qancha davlatlarda bunday kishilarni majburiy davolash yo'lga qo'yilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevga tegishli bir ma'noli jumlani aytib o'tish zarur: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustozmurabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"<sup>[2, 25]</sup>, deya ta'kidlagan edi.

Bizning malakatimizda axborot olamini tartibda saqlash va xalqimiz ma'naviyatini buzilib ketishini oldini olish maqsadida qonunchiligimizda ayrim qonun va meyoriy hujjatlar mavjuddir. Chunki davlatimiz yoshlar ongini boshqa bir g'arazli insonlar buzib, o'zining qabih rejalarida foydalanmasliklari uchun mamlakatimizning mamuriy va jinoiy javobgarlik kodekslarida tegishli tartibda chora ko'rish kerakligi va shu qonunlarga asoslangan holda qonun himoyachilari kuzatuv nazoratlari olib borishadi. Chunki har qanday muammoni bo'lishidan oldin uning oldini olish juda o'rinlidir deb hisoblayman. Misol tariqasida mamuriy javobgarlik kodeksida: milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish<sup>3</sup> yuzadisan javobgarlik mavjud. Yoki jinoiy javobgarlik kodeksida: Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish yuzadisan javobgarlik mavjud va bular yuzasidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi<sup>4</sup> haqida belgilab qo'yilgan. Shu kabi qonun va qoidalar yoshlarimizni mamlakatimizga qarshi harakat qilishiga yoki yot g'oyalarni o'zining onginga singdirishiga qarshi harakatlar qilishimizga asos bo'la oladi. Biroq bir narsani unutmasligimiz kerak-ki tanganing ikkita tarafi bo'lgani kabi zamonaviy texnologiyaning va axborotning ham yaxshi tarafi mavjuddir. Bularga misol tariqasida ta'lim sohasidagi islohotlar, ijtimoiy hayotdagi islohotlar, yo bo'lmasa zamonaviy texnologiyaning ijtimoiy hayotning yengillashtirishi va vaqt taqsimotining tejalishida ta'sirlariga ko'z yumushning iloji umuman mumkun emas.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har qanday mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlariga qarshi kurashda muhtaram Prezidentimizning asarlari dasturulamal vazifasini bajarishi kerak. Texnologiya zamonida bizning asosiy vazifalarimizdan **birinchisi**, xalqimizda, ayniqsa, yoshlarimizda axborot madaniyatini va immunitetini shakllantirish bo'lsa, **ikkinchisi**, mamlakatda yangi texnologiyalarni egallash va uni barcha sohalarga keng joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarimizni amalga oshirishdir. **Uchinchisi**, turli xil ma'naviy tahdidlarning oldini olishda yoshlarda internetdan olinayotgan ma'lumotlarni ajrata bilish savodxonligini shakllantirish, ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib

<sup>1</sup> Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Tashmetov T.

<sup>2</sup> Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 25.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 1842-modda

<sup>4</sup> O'zbekiston respublikasining jinoyat kodeksi 2441-modda



borish, axborot xurujlariga nisbatan zamonaviy ko‘rinishdagi targ‘ibot ishlarini olib borish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kerak. Bularda bizga ma‘naviyatimiz yordam bera oladi. Chunki ma‘naviyat bu inson ongida filtr bo‘lib, u bizga sog‘lom fikrlashimizda va qaror qabul qilishimizda juda katta ro‘l o‘ynaydi. Agar biz shu ma‘naviyatimizni mukammal darajada shakillantira olsak, hech qanday tahdidlar va axborot xuruji yoshlarni yo‘ldan og‘dira olmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Lutfullayev, E.Jabborov “Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta’siri hamda axborot hurujlari”-2021
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2017 B. 4-5
3. Yoshlarni ma‘naviy tarbiyalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Tashmetov T.
4. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 25.
5. O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 184<sup>2</sup>-modda
6. O‘zbekiston respublikasining jinoyat kodeksi 244<sup>1</sup>-modda



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### AMUDARYO SO‘L SOHIL HUDUDIDA GEOGRAFIK HOLATI, AHOLINING JOYLASHISHI HUSUSIYATLARIGA DOIR BA‘ZI BIR MULOHAZALAR

UrDU, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, “Tarix” kafedrası  
Tadqiqotchi: **Salayev Umrbek Kadambayevich**

**Annotatsiya:** Maqolada Amudaryo so‘l sohili hududida bronza davrida aholining joylashish hususiyatlari tahlil qilish.

**Kalit so‘zlar:** B.V.Andrianov, P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov, S.P.Tolstov, B.I.Vaynberg, M.A.Itina, A.V.Vinogradov. N.Xolmatov. O‘zboy, Sarikamish, Quyi Amudaryo, Tuyamo‘yin, Jonbos-4, Quysisoy, Tumekkichidjik, Sulton Sanjar, Ko‘shbuloq, Qarriqizil.

Mil. avv. VII-VI ming yilliklarda Amudaryo dinamikasi natijasida Xorazm vohasi o‘ng va so‘l sohili hududlari bo‘linganlik ham hususiyati davom etmoqda. So‘l sohili hududi asosan tekislik bo‘lgan, uning geografik manzarasiga ta‘sir o‘tkazgan, hududni qismlarga bo‘linishi Amudaryo suv sathi ko‘tarilishi natijasida Dovdon (300 km), va Daryoliq (250 km) irmoqlari suvini Sariqamish ko‘liga olib bergan. Mazkur tekisligi manzarasini Yumurtog‘, Qubatog‘, Toshsoqa, Manqir, Qang‘aqaqir, Ko‘zaliqir, Qalaliqir, Manqir, Tuzqir, Yassiqir, balandlik va botiqlar tasvir qilgan<sup>1</sup>. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston respublikasi hamda Toshhovuz viloyati hududlari umumiy maydoni 2 mln kv. km ni tashkil etgan.<sup>2</sup> Darxaqiqat, Amudaryo faoliyati natijasida O‘zboy, Qoraqum to‘lqinsimon sochma qumlar oralig‘ida maydonlar suv havzalariga aylangan, ularning sohili adog‘iga ulangan hudud atroflari flora va faunaga sof tuproq, chuchuk suv manbaga serob bo‘lsa ham odamzot tomonidan o‘ng sohil hududiga qaraganda kech o‘zlashtirilgan. Arxeologik adabiyotlarda Tuyamuyin hududi atroflari va Sariqamishbuyi hududi janubi-g‘arbiy hududlari Quysisoy balandligi atroflari neolit davridan o‘zlashtirilganligi qayd qilingan<sup>3</sup>.

S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov, M.A.Itina asarlarida Jonbos-4 manzilgohi urug‘ jamoalarida bu yorug‘ olamga chiqqan avlodlari aholi soni oshganligi, mexnat qurollari tanqisligi, Amudaryo toshqinlari natijasida joylashgan o‘rnilarini tez-tez o‘zgartirib turishi sabablari tevarak-atroflariga joylashib, yangi sharoitga moslashib, sun‘iy tarzda turar-joylarda istiqomat qilib xo‘jaligini turli sohalarini rivojlantirish sohasida to‘plagan tajribasi to‘g‘risda xulosalarini kuzatish mushkul. S.P.Tolstov tomonidan taklif etilgan Jonbos-4 manzilgohi mil. avv. IV-III ming yillikka oid bo‘lgan<sup>4</sup>. Tadqiqotchi N.Xolmatovni Quyi Zarafshon vodiysi, Oqchadaryo havzasi neolit davri aholisini joylashish xronologiyasida Jonbos-4 manzilgohi masalasida fikriga qo‘shilish mumkin. Chunonchi, Jonbos-4 manzilgohi ovchi va termachilar olib borgan xo‘jalik madaniyati mil.avv. V ming yillik oxiri IV ming yillik o‘rtalari, ularning avlodlari olib borgan kundalik mashg‘ulotlari mil.avv. IV ming yillik ikkinchi yarmi III ming yillik bilan belgilangan<sup>5</sup>. Tadqiqotchining so‘nggi neolit davri xronologiyasini rivojlantirish imkoniyati mavjud, chunki mil.avv. III ming yillik bilan cheklangan.

So‘nggi neolit davri oxiri davrini III ming yillik birinchi yarmigacha qadimiylashtirishni taklif qilamiz. Huddi ushbu tarixiy xronologiya davrida Tuyamo‘yin va Sariqamishbo‘yi hududi janubiy g‘arbiy hududi Quysisoy balandligida urug‘ jamoalari tomonidan o‘zlashtirilishi munosabati bilan etnik

<sup>1</sup> Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья-М.: Наука, 1969-С.98.

<sup>2</sup> Баратов П, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси-Тошкент, Ўқитувчи, 2007-Б. 283.

<sup>3</sup> Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы / Древности Южного Хорезма // Тр. ХАЭЭ-М.: Наука 1991. Т. XVI-С. 68-70. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма-М.: Наука, 1979-С.29.

<sup>4</sup> Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации-М-Л.: Наука. 1948-С.66-72.

<sup>5</sup> Холматов Н. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти-Тошкент.:Фан, 2008-Б.19.



munosabatlar geografik kenglikni hosil qilgan (Qo'shbuloq, Sulton Sanjar, Qarriqizil-Tuyamo'yin hududi) Tumekichidjik, Sariqamishbo'yi janubi-g'arbiy xududi).

Yuqorida zikr qilingan ma'lumotlar ushbu mavzuni quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

- Mavzu mazmunida aks etgan ma'lumotlarga qaraganda mil. avv. IV ming yillik-ikkinchi yarmi - III ming yillik birinchi yarmiga kelganda Jonbos-4 urug' jamoalari tarix taqozasiga ko'ra o'ng sohilda Sho'raxon va Sulton Uvays oralig'idan Tuyamuyin hududi hamda Sariqamishbo'yi janubi-g'arbiy Quyisoy balandligi O'zboy atroflariga migratsion siyosatini olib borib, Jonbos-4 urug' jamoalari xo'jalik an'analari davom ettirganlar.

- Tarix taqozasiga ko'ra, joylashgan geografik hudud doirasidan chiqib, tabiiy-iqtisodiy hududlarning o'zlashtirilishi (aholi soni zichligi, mehnat qurollari tanqisligi, turar-joylarni tez-tez almashtirib turishi) geografik kenglikda aloqa yo'llariga asos solinadi, bu esa qon-qorindoshlik o'rtasida munosabatlarini olib borishga hizmat qilgan.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья-М.: Наука, 1969-С.98.
2. Баратов П, Маматкулов М, Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси-Тошкент, Ўқитувчи, 2007-Б. 283.
3. Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма // Тр. ХАЭЭ-М.: Наука 1991. Т. XVI-С. 68-70. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма-М.: Наука, 1979-С. 29.
4. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации-М-Л.: Наука. 1948-С. 66-72.
5. Холматов Н. Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти-Тошкент.: Фан, 2008-Б. 19.





USMONLILAR HUKMDORI- SULAYMON I QONUNY DAVRIDA TASHQI  
SIYOSAT

Tohirjonova Iroda

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat  
Pedagogika Universiteti talabasi  
tohirjonovairoda12032005@gmail.com

**Annotatsiya:** bu maqolada XVI asr Usmonli Turk Imperiyasining o'ninchi hukmdori Sulaymon I Qonuniyning hokimiyat tepasiga kelishi, harbiy yurishlari, tashqi siyosati haqida so'z yuritiladi. Sultonning o'limi, unga bo'lgan sabab, harbiy yurishlardagi mahoratlari, xulq-atvori haqida so'z ketadi

**Kalit so'zlar:** podagra. Sulaymon I Qonuniy, Sigetavr, Yevropa, Belgrad, Rodos, Mohach, Vena, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, O'rtayer dengizi, Qizil dengiz

Usmonli imperiyasining o'ninchi sultoni (1520-1566) 1494-yil 6-noyabr: 1566-yil 6-sentabr), g'arbda Sulaymon Muhtasham, sharqda Sulaymon Qonuniy Usmonli imperiyasining o'ninchi va eng uzoq hukmronlik qilgan sultoni. U 1520-yildan to 1566- yilgacha (vafotigacha) hukmronlik qildi. Uning hukmronlik yillarida, Usmonli imperiyasida kamida 25 million aholi istiqomat qilardi.

Sulaymon taxtga 1520-yilda 30-sentyabrda, otasi Salim I vafot etganidan so'ng, o'tirdi va hukmronligini markaziy Yevropa Xristian kuchlariga qarshi va O'rta yer dengizidagi yurishlar bilan boshladi. Belgrad 1521-yilda va Rodos oroli 1522-23-yillarda imperiyaga qo'shib olindi. 1526-yil avgust Mohach jangida Sulaymon Vengriya harbiy kuchlarini yengdi.

Sulaymon Usmonli imperiyasining iqtisodiy, harbiy, siyosiy kuchlariga raislik qilgan holda, XVI asr Yevropasida taniqli monarxga aylandi, Sulaymon Vena gamalida (1529) harbiy salohiyati sinovdan o'tganga qadar, Usmonli armiyasini Belgrad, Rodos va Vengriya xristian kuchlariga qarshi janglarda boshqardi. U Savafiyalar bilan to'qnashuvlarda Yaqin Sharq yerlarini va Shimoliy Afrikaning katta qismini imperiyaga qo'shib oldi. Uning boshqaruv davrida, Usmonli floti O'rtayer dengizidan Qizil dengizga qadar hukmronlik qildi.

Usmoniyalar imperiyasining o'ninchi sultoni bo'lmish Sulaymon I saltanatini misli ko'rilmagan qudratga ega bo'lishini ta'minladi.

Buyuk sarkarda shuningdek, oqilona qonunlar muallifi, yangi maktablar asoschisi va me'moriy obidalar qurilishining tashabbuskori sifatida ham tanilgan. Sulaymon 26 yoshida taxtni egalladi. Venetsiyalik elchi Bartolomeo Kontarini uni quyidagicha tasvirlagan: "Baland bo'lyi, istarasi issiq. Uning bo'yni odattagidan uzun, yuzi ingichka, qirra burun, terisi rangpar. Xalq uni dono hukmdor sifatida ta'riflar hamda oqilona hukmdorlik qilishiga ishonadi".

Sulaymon avvaliga bu ishonchni oqladi. Hukmdorlik davrini xalqparvarlik hissi bilan boshladi otasi tomonidan bosib olingan mamlakatlarning yuqori martabali asirlarini ozod qildi. Bu harakati bilan chet el mamlakatlari bilan munosabatni yaxshilab, ular bilan savdo-sotiq aloqasini yo'lga qo'ydi. Sulaymon I

hukmdorligi davrida mayda urushlarni hisobga olmaganda 13 ta yirik harbiy yurish qildi, ulardan 10 tasini Yevropa hududida amalga oshirdi. Bu paytga kelib Usmoniyalar imperiyasi Jazoir dan to Erongacha bo'lgan hududda yastanib, misli ko'rilmagan darajadagi qudratga ega bo'ldi. U davrlarda "Turklar darvoza yaqinida", degan ibora yevropaliklar uchun vahimaning o'zi edi, hukmdorini esa dajjol bilan tenglashtirishar edi. Sulaymon I taxtga o'tirganidan bir yil o'tib Vengriya chegarasiga qarab yurish qildi. Turk qo'shinlarining hujumi natijasida Shabats qal'asi ishg'ol qilindi. Shundan keyin g'alaba ketidan g'alaba kelaverdi - mag'lubiyat nimaligini bilmagan usmoniyalar Qizil dengiz, Jazoir, Tunis, Rodos oroli, Tebriz va Iroqni zabr etib, u yerlarni o'z nazoratlari ostiga oldilar.

Sulaymon I taxtga o'tirganidan bir yil o'tib Vengriya chegarasiga qarab yurish qildi. Turk qo'shinlarining hujumi natijasida Shabats qal'asi ishg'ol qilindi. Shundan keyin g'alaba ketidan g'alaba kelaverdi - mag'lubiyat nimaligini bilmagan usmoniyalar Qizil dengiz, Jazoir, Tunis, Rodos oroli, Tebriz va Iroqni zabr etib, u yerlarni o'z nazoratlari ostiga oldilar. Qora dengiz bilan O'rtayer dengizining sharqiy hududlari ham jadallik bilan o'sib borayotgan Usmoniyalar saltanatining xaritasidan joy oldi. Vengriya, Sloveniya, Transilvaniya, Bosniya va Gertsogovina kabi davlatlar ham sultonga bo'ysinar edi. 1529 yilda turk sultoni katta ketib, Avstriyaga qarshi yurush boshladi va 120 ming nafarli qo'shini bilan poytaxtga hujum uyushtirdi. Biroq u yerda tarqalgan epidemiya Venani



ishg'ol qilinishdan asrab qoldi

Shundan keyin shahar qamali bekor qilindi Sulton Sulaymon faqatgina Rossiyagagina jiddiy yurushlarni uyushtirmadi, chunki uni na bir harakatu va na bir pul sarflashga arzimaydigan xilvat bir viloyat, deb hisoblar edi. Shuxratparast sulton Sulaymonning hukmdorlik davrining oxiriga kelib Usmoniylar imperiyasi musulmon olamining tarixdagi eng buyuk va qudratli saltanatiga aylandi. Biroq harbiy harakatlar davlat xazinasiga jiddiy zarar yetkazar edi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, 200 ming harbiylardan iborat bo'lgan qo'shinning ta'minoti tinch davr sarf harajatlarining uchdan ikki qismini tashkil qilar edi.

Sulton Sulaymonni Yevropada "Muhtasham", musulmon olamida esa "Qonuniy nomi bilan atashar edi.

Uning hayot davri nafaqat harbiy muvaffaqiyatlardan iborat, balki mamlakatning ichki ishlaridagi faoliyati bilan ham to'lgan edi. Sultonning topshirig'i bilan Ibrohim qozi XX asrgacha tadbiiq qilinib kelingan qonunlar majmuasini yangiladi. Jazolash va o'lim hukmi ancha qisqartirildi, biroq pul va hujjatlarni qalbakilashtirish, poraxo'rlik va yolg'on guvohlik berish kabi jinoyatlar ustida qo'lga olinganlarning qo'li avvalgidek kesilar edi.

Sulaymon I hukmdorlik qilayotgan saltanatda turli din vakillari qo'shnihilikda yashar edi, shuning uchun ogil sulton shariat ta'sirini kamaytirishga qaror qildi hamda dunyoviy qonunlarni ishlab chiqdi. Biroq bu qonunlarning bir qismi doimiy urushlar tufayli hayotga tadbiiq qilinmay qolib ketdi.

Ta'lim tizimi ham yaxshi tomonga o'zgardi: birin ketin boshlang'ich maktablar ochila boshladi, ta'limni davom ettirish niyatidagi bitiruvchilar esa sakkizta eng asosiy madrasalar qoshidagi kolledjlarda tahsil ola boshladilar. Ko'pgina kuchli mamlakatlarni bo'ysundira olgan sulton o'zi xohlagandek urushda omonatini topshirdi. Bu voqea Vengriyaning Sigetavr qal'asini ishg'ol qilish vaqtida sodir bo'ldi. 71 yoshli Sulaymon ancha paytdan beri podagra kasalligidan azob chekib kelar edi. Kasallik borgan sari kuchayib bordi, sulton hattoki otda ham yurishga qiynalib qoldi. Tabiblarning qilgan hatti-harakatlari sultonni asrab qola olmadi. Sulaymon sulton 1566 yilning 6 sentyabrda vafot etdi. U qal'aning asosiy hujumiga ikki soat qolganda omonatini topshirdi.

Sultonidan ayrilganini bilgan askarlar tushkunlikka tushishlari va buning natijasida isyon kelib chiqishi mumkin edi. Shuning uchun sultonning o'limi haqidagi xabar qo'shinga yetib bormaslik maqsadida saroy tabiblari darhol o'ldirildi. Taxt vorisi Salim Istambulda o'z hokimiyatini o'ratgandan keyingina qo'shinlar hukmdorning vafoti haqidagi xabarni eshitdilar.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Sulaymon Qonuniy". Usmoniylar imperiyasining buyuk sultoni. 1520-1566", G.Lemb "Sulaymon. Sharq sultoni",
2. G.Lemb "Sulton Sulaymon va Roksolana. Nomalar, she'rlar, hujjatlar..."Buyuklar nasri.
3. "Muhtasham yuz yil" kitoblarining seriyalari. N.Pavlisheva
4. "Sulaymon hamda Xurram-sultonning mushtasham asri". P.J. Parker
5. "Usmoniylar imperiyasining yuksalishi va so'nishi. Cheksiz hudud hukmdorlari", Gudvin Jeyson, M.Sharov
6. "Roksolana, Sharq qirolichasi". O. Nazaruk Li.: Novichev A. D., Istoriya Tursii, t. 1, L. 1963.



СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ  
ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI: YANGI  
IMKONIYATLAR VA KOMPLEKS YONDASHUV

**Bozorboyev Eldorbek**

O‘zbekistonda davlat jahon tillari universiteti  
xalqaro jurnalistika fakultetini siyosatshunoslik  
yo‘nalishi 3 kurs talabasi

**ANNOTATSIYA**

Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati har qanday jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy taraqqiyotini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilayotgan kompleks yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlarning ta‘lim, ish bilan ta‘minlash, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, yoshlarga oid davlat siyosati, imkoniyatlar, kompleks yondashuv, ta‘lim, ish bilan ta‘minlash, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy faoliyat.

КАФЕДРА ПОЛИТОЛОГИИ ФАКУЛЬТЕТА МЕЖДУНАРОДНОЙ  
ЖУРНАЛИСТИКИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА МИРОВЫХ  
ЯЗЫКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ,

Студент 3 курса **Бозорбоев Эльдорбек**  
Молодежная государственная политика в  
новом Узбекистане: новые возможности и  
комплексный подход

**АННОТАЦИЯ**

В новом Узбекистане государственная политика в отношении молодежи важна для будущего любого общества. В данной статье рассматриваются комплексные подходы, реализуемые в целях поддержки молодежи и обеспечения ее социально-экономического и духовного развития. Анализируются государственная политика Республики Узбекистан в отношении молодежи, новые возможности, созданные для развития образования, занятости, здравоохранения и социальной активности молодежи.

**Ключевые слова:** Узбекистан, молодежная политика, возможности, комплексный подход, образование, занятость, здравоохранение, социальная деятельность.

DEPARTMENT OF POLITICAL SCIENCE AT THE FACULTY OF INTERNATIONAL  
JOURNALISM OF THE STATE UNIVERSITY OF WORLD LANGUAGES IN UZ-  
BEKISTAN

3rd year student **Bozorboyev Eldorbek**  
Youth state policy in the new Uzbekistan:  
New opportunities and a comprehensive approach

**ANNOTATION**

In the new Uzbekistan, the state policy on youth is important for the future of any society. This article examines the comprehensive approaches implemented in order to support young people and ensure their socio-economic and spiritual development. The state policy of the Republic of Uzbekistan



on youth, new opportunities created for the development of education, employment, health care and social activities of young people are analyzed.

**Key words:** Uzbekistan, youth policy, opportunities, comprehensive approach, education, employment, health care, social activities.

### KIRISH

Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Yoshlar — bu nafaqat davlatning kelajagi, balki uning istiqboli uchun zarur bo'lgan innovatsiyalar va rivojlanishning asosiy kuchidir. Ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ijtimoiy muhitda faolligini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni oshirish maqsadida davlat tomonidan qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yangi imkoniyatlar yaratishga va ular uchun kompleks yondashuvlar ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu siyosat yoshlarga o'z bilim va malakalarini rivojlantirish, ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, ta'lim olish va ijtimoiy hayotda faol qatnashish imkonini beradi.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlar uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar, shuningdek, davlat siyosatining kompleks yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Yoshlarga oid siyosatning muhim jihatlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini, hamda yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Bu orqali davlat siyosatining samaradorligi va istiqbolini baholashga harakat qilinadi.

Natijada, maqola O'zbekistondagi yoshlarga oid davlat siyosatini yangi imkoniyatlar va kompleks yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilishga, hamda yoshlarning jamiyatdagi roli va o'z o'rnini belgilashga qaratilgan.

### NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va islohotlar natijasida bir qator ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Ushbu siyosatning asosiy natijalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**Ta'lim va malaka oshirish:** Davlat ta'lim tizimining takomillashuvi natijasida yoshlar uchun yangi ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslari joriy etildi. Bu yoshlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, professional ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlarining sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

**Ish bilan ta'minlash:** Yoshlarga ish berish imkoniyatlarini oshirish maqsadida yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha qator dasturlar ishlab chiqildi. Yoshlar uchun yangi biznes tashabbuslari va loyiha dasturlari ko'plab qo'llab-quvvatlanmoqda, bu esa ularning iqtisodiy mustaqilliklarini ta'minlashga yordam bermoqda.

**Sog'liqni saqlash:** Yoshlarning sog'lig'ini saqlash va rivojlantirish uchun yangi sog'liqni saqlash dasturlari amalga oshirilmoqda. Sog'lom turmush tarzi targ'ib qilinmoqda, shu bilan birga, psixologik va ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar ko'paymoqda.

**Ijtimoiy faoliyat:** Yoshlarga ijtimoiy hayotda faol qatnashish imkoniyatlarini yaratish maqsadida turli ijtimoiy dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Yoshlar tashkilotlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini rag'batlantirish orqali, ularning ijtimoiy muhitda o'rnini mustahkamlashga yordam berilmoqda.

**Qonunchilik va siyosiy ishtirok:** Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida yoshlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik islohotlari amalga oshirildi. Yoshlar jamiyatda o'z fikrlarini bildirish va qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishlari uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Natijada, yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirilgan chora-tadbirlar orqali yoshlarning imkoniyatlari kengaymoqda, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shmoqda va mamlakatning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Ushbu natijalar, shuningdek, O'zbekistonning global raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

### MUHOKAMA

Vatan ichra vatanli, ya'ni boshpanali bo'lish har bir yosh oilaning orzusi. Yangi turmush qurgan yigit-qiz yo'qki, farzandlarini o'zining uyida dunyoga keltirib, ulg'aytirishni istamasa. Barcha tuman va shaharlarda, jumladan, chekka hududlarda "Yoshlar uylari"ni qurish bo'yicha to'rt yillik aniq reja ishlab chiqilgani yosh oilalarning mana shu orzusiga etishishi yo'lida umid mayog'i bo'ladi.

So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar samarasi o'laroq, mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-



quvvatlashning kompleks tizimi yaratildi. Bilimli, keng dunyoqarashga ega vatanparvar yigit-qizlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Yoshlarga muammo emas, rivojlanishning asosiy drayveri, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi, yangi g'oyalarning dadil tashabbuskori, xalqimizning tayanchi va suyanchi sifatida yondashilmoqda.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, sohadagi muammolarga yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida 2020-yilda davlat organi — Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

Yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlardagi muammolarni hal etishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish maqsadida yaxlit infratuzilma yaratildi. Jumladan, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tashkil etildi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida esa Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya faoliyati yo'lga qo'yildi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Mamlakatda ilk bor ish boshlagan O'zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi respublika bo'ylab 70 dan ortiq volontyorlik guruhlarini birlashtirdi.

Chet elda o'qiyotgan va mehnat qilayotgan yoshlarimiz bilan doimiy aloqalar o'rnatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi tashkil etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar — 2030 kun tartibi" dasturiga ko'ra, yoshlarning sifatli bilim olishi uchun imkoniyat yaratish barcha davlatlarning zimmasidagi eng asosiy vazifalardandir. Mamlakatimizda ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar natijasida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.

Keyingi besh yilda oliy ta'lim muassasalari soni ikki barobar oshirilib, 2016-yildagi 77 tadan 141 taga yetdi, oliy ta'limga qabul kvotasi ham 3 barobar oshirilib, 28 foizga yetkazildi. Yosh ayol-qizlarning ta'lim olishi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratilib, 3 ming nafardan ortiq qiz uchun alohida grantlar ajratilgani ham ta'kidlab o'tishga arzigulik dalil.

Oliy ta'lim muassasalarida a'lo baholarga o'qiyotgan 3,5 ming talabaning shartnoma to'lovi uchun 10 milliard so'm mablag' ajratildi. Chin yetim, nogiron, Mehribonlik uyida tarbiyalangan va boquvchisini yo'qotgan 729 nafar talabaning 2,1 milliard so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari "Yoshlar ta'lim granti" loyihasi doirasida, 3,5 ming nafarga yaqin talabaning 13 milliard so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari "Yoshlar daftari jamg'arma"lari hisobidan qoplab berilgani ham bu boradagi islohotlar samarasidir.

So'nggi besh yilda yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli va fidoyi o'g'il-qizlarning 795 nafari davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Jumladan, 142 nafar yigit "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, 61 nafar yosh esa "Kelajak bunyodkori" medali, 592 nafari "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangani ham ular muvaffaqiyatining yuksak e'tirofidir. Ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida doktorantura bosqichi uchun kvota ikki barobarga oshirilgani ular safining kengayishiga sabab bo'layotir. 2020-yildan boshlab bu kvotani har yili 50 foizga oshirib borish tartibi joriy etildi. Ushbu maqsadlar uchun har yili qo'shimcha ravishda 100 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilandi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun Prezident granti, shuningdek, yurtimizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun Prezident va davlat stipendiyalari joriy etilishi iqtidor egalariga yanada katta rag'bat berdi.

Yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini rag'batlantirish maqsadida "Bo'lajak olim" tanlovini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Ushbu tanlov g'oliblariga 50 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilandi.

Yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishini rag'batlantirish uchun xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan 808 nafar yoshga 1,5 milliard so'm miqdoridagi imtihon xarajatlari qoplab berildi.

2021-yildan boshlab yoshlarning "Biznesga birinchi qadam" startap g'oyalari tanlovi doirasida har bir tuman va shaharda kamida uch nafardan g'olibga bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobarigacha davlat byudjetidan grantlar berish amaliyoti joriy etildi.

Yoshlar bandligini ta'minlash, ularning muammolarini hal etishga qaratilgan mutlaqo yangi tizim — "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" joriy etilganini ham yangi islohot samarasi deb baholash mumkin. Tizimni raqamlashtirish, yoshlarga berilayotgan imtiyozlar shaffofligini ta'minlash, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni 3 bosqichda monitoring qilib borish imkonini beruvchi "yoshlardaftari."



uz” yagona elektron platformasi ishga tushirildi.

Yoshlarga qaratilgan e’tibor faqat tilda emas, balki amalda ham o‘z isbotini topyapti. Jumladan, navqiron avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash uchun har bir tuman (shahar)da “Yoshlar daftari” jamg‘armalari tashkil etildi hamda ularda 231,8 milliard so‘m miqdorida mablag‘ shakllantirildi. Ushbu mablag‘lar va boshqa manbalar hisobidan “Yoshlar daftari”dagi 430 ming nafar yigit-qizga 300 milliard so‘m miqdorida yordam ko‘rsatildi. Bu shunchaki kun kechirishga ajratilgan mablag‘ emas. Aksincha, yigit-qizlarning kelgusi farovon hayotini barpo etishi uchun ajratilgan samarali investitsiyadir.

Bugun yoshlar bandligini ta’minlash kun tartibidagi muhim masalalardan. Biroq aksariyat muassasalar hali muayyan kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lmagan yigit-qizlardan ko‘ra, tajribali insonlarni ishga olishni ma’qul ko‘radi. Shu o‘rinda yoshlarni ishga olgan korxonalar va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlarning joriy etilgani ayni muddao bo‘ldi. Jumladan, ish beruvchilarga ularning 25 yoshdan oshmagan ishchi-xodimlari uchun hisoblangan ijtimoiy soliq summasini byudjetdan to‘liq qaytarib berish tartibi joriy etildi. Kasb-hunar maktabi va texnikumlar o‘quvchilariga korxonalarda amaliyot o‘tagan davri uchun 6 oy davomida 500 ming so‘mdan subsidiya berish tartibi joriy etildi. Bu ish beruvchi uchun ham, ish o‘rganuvchi uchun birdek manfaatli taklif.

Yurtimizda ishbilarmonlikni qo‘llab-quvvatlash borasida yaratilgan imkoniyatlar haqida so‘z ketganda so‘nggi to‘rt yilda 30 yoshgacha bo‘lgan tadbirkorlar soni 5 barobar ko‘payib, 500 mingdan oshganini mamnuniyat bilan qayd etish joiz. Ular faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish maqsadida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilib, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 100 million AQSH dollari ajratildi. Bu nechog‘li muhim qo‘llov-quvvatlov ekanini soha vakillari juda yaxshi biladi.

Barcha jabhalarga raqamlashuvning keng va faol tatbiq etilayotgani axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ilmini chuqur egallagan kadrlarga ehtiyojni oshiryapti. Qolaversa, IT mutaxassislariga dunyo miqyosida ham talab yuqori. Shuni e’tiborga olib, hududlarda 134 ta Raqamli texnologiyalar o‘quv markazi tashkil etildi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 168 ming nafar yigit-qiz kompyuter dasturlash asoslari bo‘yicha bepul o‘qitildi. Bu degani shuncha yosh bir kasbni egallab, shaxsiy ehtiyojlari uchun pul topish imkoniga ega bo‘ldi.

Yoshlarning pul topishni o‘rgangani, ota-onasiga, oilasiga ko‘makchi bo‘lgani juda yaxshi. Biroq xalqimiz doim moddiy farovonlikni ma’naviyat bilan uyg‘un holda ko‘rib kelgan. 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturining qabul qilinishi ham mana shu qadriyatning amaliy ifodasidir. Uning dastlabki nishonasi sifatida “Ma’rifat karvoni” loyihasi doirasida yoshlarga 4 milliondan ortiq kitob yetkazib berildi. Kitobxonlik umummilliy harakatga aylanib, “Yosh kitobxon” hamda “Yosh kitobxon oila” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish an’ana tusiga kirdi. Natijada 11 nafar yosh kitobxon hamda 2 ta kitobxon yosh oila Prezident sovg‘asi — “Spark” avtomashinasi bilan taqdirlandi. Bu sa’y-harakatni kitobxonlikka undash bo‘yicha dunyoda muqobili yo‘q loyiha sifatida baholash mumkin.

Vatan ichra vatanli, ya’ni boshpanali bo‘lish har bir yosh oilaning orzusi. Yangi turmush qurgan yigit-qiz yo‘qki, farzandlarini o‘zining uyida dunyoga keltirib, ulg‘aytirishni istamasa. Barcha tuman va shaharlarda, jumladan, chekka hududlarda “Yoshlar uylari”ni qurish bo‘yicha to‘rt yillik aniq reja ishlab chiqilgani yosh oilalarning mana shu orzusiga yetishishi yo‘lida umid mayog‘i bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning bilimli, kasb-hunarli, hur fikrli bo‘lib voyaga yetishi, munosib daromad topishi uchun barcha zarur sharoit va imkoniyat yaratib berildi. O‘zbekistonning yoshlar bilan ishlash borasidagi tajribasi noyob hisoblanib, xorijiy mamlakatlarning yoshlar tashkilotlari va ekspertlarining e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimiz yoshlar mamlakati sifatida xalqaro maydonga chiqmoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, mamlakatning kelajagi uchun muhim va strategik ahamiyatga ega. Ushbu siyosatning mazmuni, yo‘nalishlari va natijalarini tahlil qilish orqali, yoshlar uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar va kompleks yondashuvlar samaradorligini baholash mumkin:

**Kompleks yondashuvning ahamiyati:** Yoshlarga oid davlat siyosatining kompleks yondashuvi, turli sohalarni birlashtirish va bir-biriga integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qaratilgan. Bu, ta’lim, sog‘liqlikni saqlash, ijtimoiy muammolar va iqtisodiy rivojlanish kabi sohalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bunday yondashuv, yoshlar uchun yanada yaxshiroq sharoitlar yaratishga va ularning muammolarini kompleks hal etishga yordam beradi.

**Yangi imkoniyatlar:** Yoshlar uchun taqdim etilgan yangi imkoniyatlar, ularning iqtisodiy va



ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan turli dasturlar, jumladan, tadbirkorlikni rivojlantirish, malaka oshirish kurslari, yoshlarning ijtimoiy faoliyatini rag'batlantirish, ularning o'z fikr va g'oyalarini ifoda etishlariga imkon yaratadi. Bu imkoniyatlar, yoshlarning shaxsiy va professional rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

**Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik:** Yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar, nafaqat ularning shaxsiy hayotlariga, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik, o'z navbatida, mamlakatning kelajagi uchun muhim omil hisoblanadi. Yoshlar faol ishtirok etadigan jamiyatlar, mustahkam ijtimoiy tuzilmalarga ega bo'lib, kelgusida barqaror rivojlanishga erishishi mumkin.

**Qiyinchiliklar va muammolar:** Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar ham mavjud. Bu muammolar, ko'pincha resurslar etishmasligi, ta'lim tizimidagi kamchiliklar va yoshlarning ijtimoiy hayotga integratsiya qilinmasligi kabi holatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun yanada samarali strategiyalar va resurslarni jalb qilish zarur.

**Kelajak istiqbollari:** Yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni yaratish, O'zbekistonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Yoshlar, o'z navbatida, mamlakat taraqqiyotida faol ishtirok etishi va o'zlarining g'oya va tashabbuslarini amalga oshirishlari kerak. Bu jarayon, yoshlarni rivojlantirish orqali, mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi.

Natijada, yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, kompleks yondashuv va yangi imkoniyatlar orqali, mamlakatning kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarni ijtimoiy hayotda faol qatnashishga undaydi. Ushbu siyosatni yanada takomillashtirish va muammolarni hal etish, O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlari uchun zarurdir.

### **XULOSA**

Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, mamlakatning kelajagi uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga jalb etish va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu siyosat doirasida amalga oshirilayotgan kompleks yondashuvlar, yoshlar uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar va ularning rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Yoshlar uchun imkoniyatlar:** Davlat tomonidan taqdim etilgan yangi dasturlar va loyiha tashabbuslari, yoshlarning ta'lim, ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik sohalarida faol ishtirok etishlariga imkon yaratmoqda. Bu esa, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga yordam beradi. **Kompleks yondashuv:** Yoshlarga oid siyosatning kompleks yondashuvi, turli sohalar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi va muammolarni bir vaqtning o'zida hal etishga imkon beradi. Bunda, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muammolarni yechish uchun resurslarni integratsiyalash va birlashtirish zarur. **Ijtimoiy barqarorlik:** Yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishi, mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ularning yutuqlari va ijtimoiy faoliyati, ijtimoiy barqarorlikni oshiradi va jamiyatni yanada rivojlantirishga hissa qo'shadi. **Qiyinchiliklar:** Yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi jarayonida duch kelinadigan muammolar, resurslar etishmasligi va ta'lim tizimidagi kamchiliklar kabi qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Bularni bartaraf etish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur. **Kelajak istiqbollari:** Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish, mamlakatning kelajagini ta'minlash va yoshlarni global raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan harakatlar orqali amalga oshirilishi lozim. Yoshlar, o'z navbatida, mamlakat taraqqiyotida faol ishtirok etishlari va o'z g'oya va tashabbuslarini ilgari surishlari kerak.

Natijada, yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, yangi imkoniyatlar va kompleks yondashuvlar orqali, mamlakatning kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon yoshlarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undaydi va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1. Yoshlar va ijtimoiy taraqqiyot:** Kadirova, M. «Yoshlar siyosati: O'zbekiston tajribasi». *O'zbekiston ilmiy jurnali*, 2021.
- 2. Yoshlar siyosati va ta'lim:** Akbarova, D. «Ta'lim sohasida yoshlar uchun yangi imkoniyatlar». *Ta'lim va taraqqiyot*, 2022.
- 3. Iqtisodiy imkoniyatlar:** Mustafayeva, G. «Yoshlar uchun ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy



siyosat”. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2023.

4. **Yoshlar va sog’liqni saqlash:** Sobirova, L. «Sog’lom avlod uchun davlat dasturlari». *Sog’liq va jamiyat*, 2022.

5. **Tadbirkorlik va yoshlar:** Tursunov, S. «Yosh tadbirkorlarni qo’llab-quvvatlash: muammolar va yechimlar». *Tadbirkorlik va iqtisod*, 2022.

6. **Yoshlar ijtimoiy faoliyati:** Murodova, N. «Yoshlar va ijtimoiy faollik: O’zbekiston misolida». *Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 2023.

7. **Yoshlar va madaniyat:** Qodirova, S. “Yoshlar madaniyati va identifikatsiyasi”. *Madaniyat va san’at*, 2021.

8. **Yoshlar siyosati nazariyasi:** Sultonov, T. “Yoshlar siyosati: nazariy va amaliy jihatlar”. *Siyosat va boshqaruv*, 2022.

9. **Innovatsiya va yoshlar:** Shokirova, R. “Innovatsiyalar va yoshlar: yangi imkoniyatlar”. *Innovatsion rivojlanish*, 2023.

10. **Yoshlar va xavfsizlik:** Tohirov, E. “Yoshlarning xavfsizlik masalalari”. *Xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik*, 2022.

11. **Yoshlar bilan ishlash usullari:** Anvarov, F. “Yoshlar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlar”. *Pedagogika va psixologiya*, 2021.

12. **Yoshlar va globalizatsiya:** Karimova, M. “Yoshlar globalizatsiya sharoitida”. *Global tadqiqotlar*, 2023.

13. **Yoshlar va munosabatlar:** Jorayev, X. “Yoshlar o’rtasida munosabatlar va ijtimoiy tarmoqlar”. *Ijtimoiy psixologiya*, 2022.

14. **O’zbekistonda yoshlarga oid siyosat:** Shodmonova, B. “O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati: imkoniyatlar va qiyinchiliklar”. *O’zbekiston va jahon*, 2023.





Esnazarova Aydana Nasiratdin qizi  
Berdaq nomidagi QQDU talabasi  
aydanaesnazarova75@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqola zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar, xususan, ularning yoshlarning psixologik, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Ushbu maqola jamiyat va yoshlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, insonlararo munosabatlar, virtual muloqot, o'zini ifoda etish, raqobat, ijtimoiy mas'uliyat, ruhiy salomatlik

#### **Влияние социальных сетей на отношения.**

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению влияния современных социальных сетей на сознание молодежи. В исследовании анализируется положительное и отрицательное влияние социальных сетей на психологическое, социальное и нравственное развитие молодых людей. Эта статья поможет глубже понять процессы взаимодействия между обществом и молодежью.

**Ключевые слова:** Социальные сети, молодежь, межличностные отношения, виртуальное общение, самовыражение, конкуренция, социальная ответственность, психическое здоровье.

#### **The influence of social networks on relationships.**

**Abstract.** This article is devoted to the study of the influence of modern social networks on the minds of young people. The study analyzes the positive and negative effects of social networks, in particular, on the psychological, social and moral development of young people. This article provides a deeper understanding of the interaction processes between society and youth.

**Keywords:** Social networks, youth, interpersonal relations, virtual communication, self-expression, competition, social responsibility, mental health

Texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatdagi ko'plab sohalarni, jumladan, insonlararo munosabatlarni ham sezilarli darajada o'zgartirdi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yoshlar o'rtasida asosiy aloqa vositasiga aylangan. Facebook, Instagram, TikTok kabi platformalar yoshlarning kundalik hayotiga chuqur kirib kelib, real hayotdagi munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu maqola yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar ta'sirini o'rganib, ularning ijtimoiy muloqot va munosabatlarni qanday o'zgartirayotganiga e'tibor qaratadi. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar, masalan, Facebook, Instagram, TikTok va Twitter, zamonamizning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu platformalar yoshlar orasida insonlararo munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish, balki shaxsiy muloqot va o'zini ifoda etish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Biroq, bu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish, yoshlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash zarur.

Ijtimoiy tarmoq — bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma.<sup>1</sup> Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ular orqali odamlar bir-biri bilan muloqot qilish, yangi tanishuvlar o'rnatish va qiziqishlariga mos kontentni topish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ijtimoiy media platformalari bizning bir-biriga bog'langan dunyomizning yurak urishiga aylandi. Turli xil kelib chiqishi va yosh guruhlarini qamrab olgan milliardlab odamlar ushbu platformalarni hayotlarining ajralmas qismi sifatida qabul qilishdi. Quyida o'rtacha odam va ularning ijtimoiy tarmoqlardan har kuni foydalanishi bo'yicha 2023 yilgi yangilangan statistik ma'lumotlar keltirilgan:

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni: Dunyo bo'ylab 4.8 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bor, bu dunyo aholisining 59.9 foizini va barcha internet foydalanuvchilarining 92.7 foizini tashkil qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda o'rtacha kunlik vaqt: O'rtacha odam kuniga 2 soat 24 daqiqa vaqt sarflaydi. Eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar: Eng ko'p ishlatiladigan ijtimoiy media platformalari -

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy\\_tarmoq](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_tarmoq)



Facebook, YouTube, WhatsApp va Instagram. Ijtimoiy tarmoqlardan eng ko'p foydalanadigan yosh guruhlari: Ijtimoiy tarmoqlardan eng ko'p foydalanadigan yosh guruhi 18-29 yosh.

Ijtimoiy tarmoqlardan eng ko'p foydalanadigan jins: Erkaklar va ayollar ijtimoiy tarmoqlardan teng foydalanadilar.<sup>1</sup> Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun muloqot qilish usulini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda ko'plab yoshlar o'z hayotlarini onlayn muhitda, ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda namoyon etishni afzal ko'rmoqda. Onlayn muloqot, bir tomondan, insonlar o'rtasida masofani yengillashtiradi va turli madaniyatlar va fikrlarni birlashtiradi. Boshqa tomondan, virtual muhitda yuzaga keladigan muammolar ham mavjud. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internetda ko'p vaqt sarflash real hayotdagi muloqot va ijtimoiy aloqalarni kamaytirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning eng maqtoqli, ahamiyatli jihatlaridan biri — ilm olish, kasb-hunar o'rganishdagi beqiyos yordamidir. Kundalik turmushda duch kelinadigan turli yumushlarni bajarishni ham internet, xususan ijtimoiy tarmoqlar yordamida oson o'zlashtirish mumkin. Oddiy misol, ayollar bichish-tikish yoki pazandalik sirlarini Youtube tarmog'idagi kanallardan bemalol o'zlashtira oladi.

Zamonaviy matematika, dasturlash, iqtisodiyot asoslari, psixologiya, chet tillar kabi bugunning eng dolzarb, talab yuqori bo'lgan fan yo'nalishlari bo'yicha ham istalgancha videodarslar, qo'llanmalar topish mumkin. Virtual auditoriya uchun tashkil etiladigan onlayn darslarda qatnashsa bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqlar arzon va bepul ta'lim olish uchun imkoniyat eshiklarini juda keng ochgan. Bu nafaqat ilm olish, balki ilm tarqatishda ham qo'l keladi. Turli soha mutaxassislari o'z pedagogik mahoratlarini namoyish etishi, virtual o'quvchilar yig'ishi mumkin. Ular kun kelib bu mutaxassisning hayotdagi real talabalariga aylanishi ehtimoli ham yuqori. Bundan tashqari, obunachilari ko'p va videolari namoyishi yuqori kanal egalari reklama orqali qo'shimcha daromadga ega bo'la oladi. Jahonda ayni shu yo'nalishda millionerga aylangan bloger va vlogerlar juda ko'p.<sup>2</sup> Virtual olam o'z "asir"iga boshqalarga tobe bo'lmasdan huzur-halovatda yashash, o'zini turli xil yo'llar bilan doimo xursand qilib yurish imkoniyatini beradi. Virtual dunyo asiriga tushish turli ijtimoiy nizolarga, qadriyatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bizningcha, jamiyat ma'naviy muhitining buzilishida zamonaviy axborot vositalarini "aybdor" sifatida ko'rsatish to'g'rimi? Balki aybni hissiz, jonsiz kompyuterlarga emas, millatimiz axloqi, turmush tarzi, mentaliteti, an'ana va qadriyatlariga zid bo'lgan turli shakldagi ma'lumotlarni yuklayotgan "zamonamiz qahramon"lariga qo'ysak, adolatdan bo'lar!<sup>3</sup>

Yoshlar orasida virtual muloqotlar o'rnini bosgan real hayotdagi muloqotlar o'rnini bosishi natijasida ruhiy izolyatsiya va depressiya holatlari paydo bo'lishi mumkin. Yoshlarning ba'zilar o'zlarini onlayn muhitda yanada qulay his qilishlari mumkin, ammo bu holat ularni real dunyoda muloqot qilishdan mahrum qiladi. Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda real muloqotni rivojlantirish uchun to'g'ri balans saqlanishi muhim. Haddan tashqari onlayn muloqot hissiy bog'lanish va chuqur munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o'rtasida insonlararo munosabatlarni rivojlantirishda va yangi imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ammo, ularning salbiy ta'sirlarini inkor etish mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, Yoshlar uchun sog'lom va ijtimoiy mas'uliyatli muloqotni qo'llab-quvvatlash zarur. O'zini ifoda etish va raqobat o'rtasida muvozanatni saqlash, ijtimoiy tarmoqlardan mas'uliyatli foydalanish yoshlar orasida sog'lom insonlararo munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari va ota-onalar yoshlarni onlayn va oflayn muloqotlar o'rtasida muvozanatni saqlashga yo'naltiruvchi dasturlarni ishlab chiqishlari kerak. Bu esa, yoshlarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi, muloqot qilish madaniyatini oshirishi va ularni ruhiy sog'lomligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy\\_tarmoq](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_tarmoq)
2. <https://sinaps.uz/maqola>
3. Михайлов А.Н. Диагностика виртуальной образности [Текст] А.Н. Михайлов, Н.А. Носов. М.: 2008. – С. 8.
4. Маркузе Г. Техногенная цивилизация. – М.: Элигия, 1998. – С. 45.
5. <https://inlibrary.uz>
6. <https://uz.martech.zone/how-social-networks-influence-our-lives/>

<sup>1</sup> <https://uz.martech.zone/how-social-networks-influence-our-lives/>

<sup>2</sup> <https://sinaps.uz/maqola/7705/>

<sup>3</sup> <https://inlibrary.uz/index.php/development-science-education/article/view/18121>



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

SYMBOLISM OF ARTISTIC IMAGE: THE PROBLEM OF INTERPRETATION.

Sharipova Dilnoza Shavkatovna

Senior teacher, Bukhara State University,

dilnoza-shavkatovna@mail.ru

tel: 998914155001

**Abstract.** The article is devoted to the problem of interpretation of visual art images. The author points out the relationship between the symbol, image and the meaning that this image conveys, transmitting both “hidden” meanings and elements of knowledge of a particular era. The hermeneutic approach is applied in the interpretation of texts, plots and artistic images as an effective way of understanding the value and meaning of the plot of the picture and/or text.

**Аннотация.** Статя посвящена проблеме интерпретации визуальных художественных образов. Автор указывает на взаимосвязь между символом, образом и смыслом, который этот образ передает, транслируя как «скрытые» смыслы, так и элементы знания конкретной эпохи. В интерпретации текстов, сюжетов и художественных образов применяется герменевтический подход как эффективный способ понимания ценностного значения и смысла сюжета картины и/или текста.

**Annotatsiya.** Maqola vizual badiiy tasvirlarni talqin qilish muammosiga bag'ishlangan. Muallif ma'lum bir davrning "yashirin" ma'nolarini ham, bilim elementlarini ham etkazadigan ramz, tasvir va bu tasvir o'tkazadigan ma'no o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi. Matnlar, syujetlar va badiiy obrazlarni talqin qilishda germenevtik yondashuv rasm va/yoki matn syujetining qiymati va mazmunini tushunishning samarali usuli sifatida qo'llaniladi.

**Keywords:** image, meaning, interpretation, epistemology, hermeneutics.

**Ключевые слова:** образ, смысл, интерпретация, эпистемология, герменевтика.

**Kalit so'zlar:** obraz, ma'no, talqin, epistemologiya, germenevtika.

**Introduction** We judge the value and cultural significance of works of art on the basis of the meaning conveyed by the subject and its individual images. It is the problem of images that is considered in this article. Visual images of art works often become the objects of research, including interdisciplinary research. In particular, in connection with the problem of interpretation, which falls into the field of view of philosophical hermeneutics and modern epistemology, which implies the raising of a number of questions concerning both the specifics of creativity and the artistic context, the understanding of which is precisely the task of the interpreter. The goal is to uncover the meanings (of signs, symbols, individual objects) that give completeness to an artistic work.

Such work on reconstructing the meaning of the images of artistic works is exegetically directed. It presupposes the development of the principles of interpretation and at the same time relies on them [13, p. 71]. It is also associated with the search for central meanings-images characteristic of a particular artist or typical for his “school” and cultural tradition. of the art tradition. By examining the “typical” and highlighting the “special” in artistic creation, the researcher understands the conditions of creation of specific images, reveals their content and meaning, recreating the epistemological context of what is understood. At the same time, individual works of fine art (paintings, sculptures, integral architectural complexes) are considered as carriers of a certain type of knowledge that they convey. For example, mythological knowledge, historical or religious content, finally, they can reflect real life events of people of a particular historical epoch.

Interpretation is a fundamental problem of epistemology and central to hermeneutics; its objects are not only texts, written sources, historical facts, social phenomena, but also samples of artistic culture. Understanding the deep meaning of artistic images, individual signs, symbols or whole contexts is connected with the task of their interpretation. Artistic creativity is aimed at creating images, and



they are carriers of a certain meaning (historical, traditional-cultural, semantic, mystical, symbolic, etc.). However, the concept of “image” has many meanings and needs to be interpreted, to clarify the semantic context of interpretation. A number of questions arise: does the understanding of a visual image change over time, or is its meaning unchanged? Comparing images and meanings, signs and meanings, is it possible to identify any integrative characteristics in the very concept of “meaning”, and if so, why does the problem of interpreting the meaning of a visual artistic image remain relevant for philosophy? What dictates such an interest, what is the reason for it? Finally, is there a relationship between an image, a symbol and its meaning, and how do they combine in perception in the form of a certain knowledge? The problem of reconstructing the meaning of an artistic image, as will be shown in the article, appears as an epistemological problem, and the study of the cognitive features of creative activity expands the range of epistemology itself through the hermeneutic approach.

The word “symbol”, “image”, “meaning” The word “symbol” has several aspects of use: the symbol is discussed in connection with cognition, correlating the process of symbolic description of reality with the type of thinking, which is characterized as “figurative thinking”, as an embodiment of the inseparable unity of conceptual and figurative thinking. Meanwhile, the ability to perceive the world in figurative and symbolic form presupposes representativeness, understood as the ability to represent another object (phenomenon, the subject of our reasoning), as the ability to express a particular thought or idea through the use of other subjects, objects or concepts.

Numerous depictions of Mary Magdalene are also known, the image of which is attributed on the basis of those symbols-signs that are present on the paintings. Usually artists depict a young woman with loose hair (which symbolizes repentance), with a crucifix in her left hand and a skull, which she holds with her right hand. The main, meaning-controlling signs-symbols here are the skull and the cross, which indicates the connection between the Old and New Testament, and the image of Mary Magdalene as a whole reflects the attitude to her as an equal to the Apostle. This traditional theme receives an interesting realization in the painting of J. de Latour. His unusual iconographic depiction of the penitent Mary Magdalene (Paris, Louvre) is a simple composition with no hint of any action. The colors chosen by the artist (the red color of her skirt and the flame of the lamp in the darkness of the cell) are interpreted as the second, deeper meaning of Magdalene's image, and her pale, matte complexion, tightly compressed mouth and almost unseeing gaze are intended to reveal to the viewer the true philosophical meaning of the painting: the providence of fate, insight into the mysteries of life and death. In general, this is the image of a woman who has learned these mysteries.

Thus, the artist makes us penetrate into the integral meaning of the plot, which unites in its individual details the idea of the value of human life as a combination of bodily and spiritual beginning. The term “artistic symbol” is a category of aesthetics. Identifying the aesthetic features of an artwork, it is necessary to pay attention to the epistemology of the symbol. The fact is that the symbol as a concept with epistemological meaning, on the one hand, is adjacent to the concept of image and relates to the finished work as a result of the author's creative efforts. On the other hand, a symbol is a sign that allows us to recognize an object as a concrete embodiment of the artistic concept. Thus, the symbol is associated with the image, which we consider in the aspect of its cognitive significance in order to understand the meaning of the image (purpose, identification of the image in the system of world understanding or to determine the authorship, time of creation, etc.). The artistic image appears as an object of cognition, becomes the subject of epistemological analysis.

However, an image, especially a visual art image, is always subject. Its “subjectness” appears as embodied in the text or in a specific material (watercolor, glass painting, graphics, drawing).

The specific program of embodiment of the artistic idea (plot, style, artistic techniques, language, etc.) becomes the subject of philosophical study, both from the point of view of the “technique” of implementing the idea of the work of art, and from the point of view of understanding the hidden meaning. Realizing the cognitive act of understanding, the interpreter comprehends a certain meaning of the symbol perceived and connected with a concrete image, thanks to the participation of the natural cognitive ability of perception (imagination, thinking, consciousness) and translation of knowledge, relying on the linguistic baggage of language (speech) and internal experience of understanding. Coming together, experience and meaning, symbol and image receive a verbal linguistic framing. Thus language concretizes in a concept the visual image that was originally created in the imagination. At the same time, there is also the so-called symbolic language, which is most clearly manifested in artistic creation. Here the perception of the image and the understanding of the true meaning of the work is influenced by the position of the interpreter himself. Sometimes symbols of the language of



literary images are associated with certain ideal images-actions.

Thus, the concept of “pure femininity” of the Dantean ideal and the image of “spiritual ascent” in Dante's *Divine Comedy* can be seen associatively as the growth of the human spirit. The semantic proximity of these concepts reflects the tendency to intellectualize the very interpretive activity aimed at understanding the hidden meaning of the work. The possibility of multiple meanings should also be recognized. The “success” of interpretation and its result depend on the position of the interpreter himself, who is able to overcome the vicissitudes of subjectivism in the evaluation of the artwork and avoids superficial judgments, as well as avoids objectivism, understood as “final interpretation”.

### Literature

1. Averintsev S.S. *Poetics of Early Byzantine Literature*. St. Petersburg: “Azbuka-classika” publishing house. 2004. 352 c.
2. Averintsev S.S. *Collected Works*. Sofia-Logos. Dictionary. K.: SPIRIT I LITERA. 2006. 912 c.
3. Actual problems of modern cognitive science. Materials of the sixth All-Russian scientific-practical conference with international participation, Ivanovo, 2013. 325 c.
4. Berdyaev N.A. *The Meaning of Creativity: The Experience of Justification of Man*. Moscow: AST; Astrel, 2011. 460 c.
5. Kudryashova T.B. To the question of the role of imagination in culture // *Izvestiya vysshee obrazovaniya vysshee obrazovaniya*. Series: Humanities. Ivanovo State Chemical-Technological University (Ivanovo). T. 1, № 1. 2010. C. 34-37.
6. Pilyugina M.A. Interrelation of experience and meaning in the process of interpretation // *Experience and meaning*. Moscow: Institute of Philosophy of the Russian Academy of Sciences. 2014. C. 197-206.
7. Tondl L. *Problems of Semantics*. Moscow: Progress, 1975. 508 c.
8. Florensky P. *Iconostasis*. St. Petersburg: Azbuka, Azbuka-Atticus. 2014. 224 c.
9. Shulga E.N. Exegesis: the origin and development of the method of interpretation // *Values and Meanings*. № 4 (7). 2010. C. 71-95.
10. Shulga E.N. Artistic image as an object of cognitive hermeneutics // *Actual problems of modern cognitive science*. Ivanovo. 2013. C. 131-141.
11. Shulga E.N. Meaning-making as an epistemological and hermeneutical problem // *Bulletin of the Faculty of Humanities of Ivanovo State Chemical-Technological University*. Vop. 7. 2014. C. 15-21.



## АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ADABIYOT DARSLARIDA “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TAHLILI

**Vafoqulova Go’zal Ochilovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida poklanish maslaki bo’lmish Farhod xususida so’z brogan.

**Kalit so’zlar:** ishq, maslak, poklik, tarixiy haqiqat, ramziy makon, tasavvuf, tariqat, ta’limot, iymon, islom.

Dostonda Farhod poklanish matlabi ila komillik sari intilayotgan solik (mo’min, muslim banda) ning timsoli. Uning tasavvuf yo’li – tariqat orqali haqiqiy mahbub – o’z Yaratuvchisi tomon intilishi, bu yo’ldagi mashaqqatlari ramziy va ma’juziy shaklda tasvirlangan. Mazkur bosh qahramonning yurti bo’lmish Chin mamlakati ham ramziy bir makon. Negaki o’tmishda Chin (Xitoy)da musulmon dinida bo’lgan xoqon o’tganligi, yolg’iz o’g’il farzand ko’rib, uni Qur’on yod oldir gani haqida gapirish, badiiy asarda bo’lsa-da, tarixiy haqiqatga zid bo’lur edi. Unda daho adib nega bosh qahramon Vatani deb aynan shu yurtni tanladiykin? Chin qadimdan ajdodlarimiz tomonidan do nishlik, san’at, naqsh va nafosat o’lkasi sifatida qabul qilingan va e’tirof etilgan. Navoiy e’tiqodining asosi bo’lgan naqshbandiylik ta’limotiga ko’ra iymon va islom deya atalmish haqiqiy (ya’ni ko’ngilga solinadigan go’zal ma’naviy) naqsh, nafosat va donishlik inson qalbida bo’lmog’i darkor. Ko’rinadiki, ana shu fazilatlar bilan bezangan makongina haqiqiy Chin hisoblanadi. Chin so’zining ona tilimizda asil, haqiqiy so’zlari bilan ma’nodoshligini Siz bilasiz. Navoiy bu bilan pokiza islomiy e’tiqod, iymon ustuvorligi, haqiqat va adolat hukmron bo’lgan yurt, jamiyat va insonning ko’ngil olami asl Chin mamlakati (haqiqiy insoniy davlat) bo’ladi degan fikrni ilgari suradi. Aks holda u soxta, chirkin, tanazzuli muqarrar bir muvaqqatlik (vaqtinchalik)dan boshqa narsa emas. Farhod visol yo’lida yovuz kuchlar, zolim shaxslarga duch keladi. Shirin ham bu yovuz va zolimlardan omonda emas. Ular ilohiy visolga yetishishdagi to’siqlar, mashaqqat va sinovlarning ramziy ifodalaridir. Ayni paytda bosh qahramonlarning o’zlari ham ramziy ma’no kasb etadi. Shirin Farhod uchun jismda jon kabi asraladigan nihoyatda go’zal, o’ta nafis va nozik iymon ko’zguna ko’ringanidir. Shunday ko’zguki, unda Yaratganning jamoli jilva qiladi. Farhodning Arman yurti (bu ham ramz) – Shirinning huzuriga bo’lgan yo’ldagi tortgan azoblari bir insonning komil iymon yo’lida chekadigan mashaqqatlarining timsollari edi. Komil iymonga yetishish oson emas, nihoyatda qiyin, og’ir. Insonning iymoniga bolta uradigan ana shu gina-kudurat, nafrat tuyg’ulari, jaholatga, o’zlikni yo’qotishga sabab bo’ladigan havaslar dostonida Xusrav deb atalgan Shayton, nafs hukmronligining lashkarlari bo’ladi. Hayotda komillikka erishgan har inson Farhoddir. U aslo xayoliy, romantik to’qimagina emas. Uning darajasi faqat kitoblarda bo’ladigan qo’l yetmas, ko’z ilg’amas maqom ham emas. Qaysi inson jism qal’asida (xuddi Farhod Arman yurti qal’asidagi kabi) Shirin yanglig’ go’zal iymonining himoyasida bo’lsa, u shu maqomga ko’tarila oladi. Aksincha, qaysi kimsa gina, nafrat domiga cho’ngan bo’lsa, amal, boylik, shuhrat kabi dunyo matolari orqasidan o’zligini yo’qotsa (ya’ni shularni deb o’zgalarning haqiga xiyonat qilsa, kimningdir dili og’rishiga, uning og’rinishiga sabab bo’ladigan biror ish qilsa, Yaratganning amriga xilof amallar qilsa) shayton tiyatidagi Xusravga yoki uning lashkarlaridan biriga aylanadi. Endi anglagan bo’lsangiz, dostonidagi Farhodning Shirin istiqomat qiladigan qal’ani, yurtni himoya qilishi tasviri aslida komil iymonli shaxsning qalb qal’asi ichidagi dunyodagi eng bebaho, go’zal ne’mat – Yaratganning iymon tuhfasini asrashi, unga tajovuz qilayotgan shayton lashkarlaridan, nafs qutqularidan himoya qilishining ifodasidir. Demak, inson har bir xatti-harakati, aytayotgan so’zi, muomalasi va amali bilan o’zaro ikki qarama-qarshi kuchlardan biri – yo iymon, yo shayton tomonida bo’ladi. Navoiy saboqlaridan xulosa shuki, har birimiz uchun Farhod yo’li – ishq, iymon yo’li mashaqqatli, ammo oxiri xayrli, sharaffli, aksincha, Xusrav va Sheruya timsollarining



topgan qismlari bizga bir ibratdir.

**“Farhod va Shirin” dostoni mavzusi yuzasidan test savollari**

1. Xamsachilik an’anasiga ko‘ra, har bir asar “Xamsa” deb atalmog‘i uchun ikkinchi doston kimga bag‘ishlanmog‘i kerak edi?

- A) Iskandar haqida yozilmog‘i kerak      B) Xusrav haqida yozilmog‘i kerak  
C) Farhod haqida yozilmog‘i kerak      D) Bahrom haqida yozilmog‘i kerak

2. Demonkim, ko‘ngli poku ham ko‘zi pok, Tili poku, so‘zi poku, o‘zi pok. (Navoiy) Ushbu ta‘rif qaysi qahramon haqida? A) Layli B) Majnun C) Shirin D) Farhod

3. Qaysi adib qahramoniga tug‘ilganidayoq: Yuzinda ishq asrori yozilg‘on, Ichinda dard ta‘vizi qozilg‘on», — deya ta‘rif beradi? A) «Farhod va Shirin»da - Farhodga

- B) «Gul va Navro‘z»da — Navro‘zga  
C) «Sab‘ai sayyor»da — Bahromga  
D) «Layli va Majnun»da — Qaysga

4. “Farhod va Shirin” yakunidagi maxsus bob kimning madhiga bag‘ishlangan?

- A) Sulton Husayn madhi  
B) Sulton Husaynning o‘g‘li - Badiuzzamon Bahodir mirzo madhi  
C) Shahzoda Abulfavoris Shohg‘arib Bahodir madhi  
D) Muhammad payg‘ambar madhi

5. Farhod tosh yunish sana‘tini qaysi ustozidan o‘rganadi?

- A) Moniydan B) Boniydan C) Qorandan D) Suqrotidan

6. “Layli va Majnun” dostoni aruzning qaysi bahrida yozilgan?

- A) Sariy  
B) Mutaqoribi musammani mahzuf  
C) Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf  
D) Hafifi musaddasi maxbuni mahzuf

7. Ey, ishq, g‘arib kimyosen, Bal o‘yinayi jahonnamosen. Ushbu misralar qaysi dostonidan olingan?

- A) «Farhod va Shirin»dan  
B) «Saddi iskandariy»dan  
C) «Saba‘i sayyor»dan  
D) «Layli va Majnun»dan

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qozoqboy Yo‘ldoshev va boshqalar Adabiyot (darslik). 9-sinf uchun “O‘zbekiston” nashriyoti T., 2019.53-86-betlar.

2. B To‘xliyev va boshqalar Adabiyot(majmua). 11-sinf uchun “O‘zbekiston milliy esklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti ,T, 2018.



Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasiga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy biografiya, shoirona ko'ngil, «Xatti Boburiy», paykon – kamon uchidagi metall, boshqoq, dushvor – qiyin, evrulmoq – aylanmoq, na'shimni – tobut, ko'y – ko'cha, qishloq, aylondur – aylantir, osig' – foyda, xob olud – uyqudagi, un – ovoz, tuman – o'n ming, bexar – tikansiz, xud – xuddi.

Boburning hayoti faqat janglar bilangina emas, ilhomiy onlar bilan ham to'la edi. U yigirma yoshida yangi bir yozuv – «Xatti Boburiy»ni kashf qildi. Umr bo'yi ajoyib she'rlar yozdi, devon tartib qildi. Musiqa bilan shug'ullanib, «Chorgoh» maqomiga «savt»lar bitdi. 1521-yilda she'riy yo'lda soliq ishlarini tartibga soluvchi «Mubayyin al-zakot» («Zakot bayoni») asarini yozdi. 1523-1525-yillarda aruz vazni haqida «Muxtasar» nomli risola bitdi. Boburning «Harb ishi», «Musiqa ilmi» nomli asarlari hozirgacha topilgan emas. U tarjima bilan shug'ullandi. Xo'ja Ahrorning «Volidiya» asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga o'giradi.

Muallifning «Boburnoma» asari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotining nodir namunasi sanaladi. Bu memuar, (estalik) asarida Bobur o'n ikki yoshida taxtga chiqishidan boshlab umrining oxirigacha boshidan o'tkazganlarini, ko'rgan-kechirganlari, guvohi bo'lgan voqealarni siyosatchi, davlat arbobi, olim, sayyoh va shoir nigohi bilan tahlil etadi. Shuning uchun bu asar tarix, etnografiya, geografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqa fanlar uchun birday manba bo'la oladi. «Boburnoma»ning o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir.

Bobur o'zbek va fors tillarida ijod etgan zullisonayn, shoirdir. U ona tilida yozgan she'rlarini to'plab, 1519- yilda Kobulda. 1528, – 1529- yillarda Hindistonda .devonlar tuzgan. Bu ikki to'plam o'sha joylar nomi bilan «Kobul devoni», «Hind devoni» deb ataladi. Kobul devoni topilgan emas. Mutaxassislar fikricha, saqlanib qolgan she'rlarining soni to'rt yuzdan ortiq. Shundan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy. Shuningdek, shoir devonidan .tuyuq. .fanl, niasnaviy, qitla, muamrnk kabi janrlar ham joy olgan.

Bobur devonining katta qismi g'azallardan iborat. G'azallarining ma'lum guruhi hasbi hol xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan lavhasi bilan bog'lanadi. Mana, uning «topmadim» radifli g'azalini olaylik. Bu she'ning yozilish tarixi «Boburnoma»da ham keltirilgan. Shoirning umrbayonida aytilganidek, 1500, – 1501 - yillarda Bobur Samarqandni ikki bor olib, yana boy beradi. Bir muddat sarsonliklardan so'ng biror viloyat berar degan umidda Toshkentga xon dodasi Yunusxon huzuriga boradi. Bobosiga berishini aytadi, ammo bu gaplar va'daligicha qolib ketadi. Sargardonlik, xiyonatlar, yaqinlaridan judo bo'lish, qarindoshlar hamiyatsizligi, Shayboniyxonning tinimsiz ta'qibi shoirning ko'nglini cho'ktiradi. Buning ustiga Boburning ashaddiy dushmani ..Ahmad Janbal bilan to'qnashgan Yunusxon u bilan murosaga keladi va buni nishonlab ov hamda ziyofat uyushtiradilar. Bu hol Boburni qattiq qiynaydi. Ko'nglidagi iztiroblarni: «Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim, Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim» matlasi bilan boshlanuvchi g'azalda ifoda etadi. «Yod etmas emish kishini mehnatta kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi ham shu kunlarda ruhiy ezilishlar natijasi o'laroq yozilgandi. Ba'zan bunday biografik chizgilar oshiqona kayfiyatdagi satrlar bilan almashinib keladi va nafis badiiyat libosida ko'rsatiladi. Quyidagi g'azalga diqqat qilaylik:

Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,  
Yuzungning ishtiyoqida ne sabr-u ne qarorim bor.  
Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,  
Nechun holim yamon qildi, men andin bir so'rorim bor.

Avval g'azalning badiiyatiga e'tibor qarataylik. Tanosub<sup>1</sup> san'atidan foydalangan shoir ma'shuqa go'zalligi va oshiqning ruhiy kechinmalarini mohirlik bilan chizadi. «Qaro», «zulf», «parishon», «ko'z», «yamon» so'zlarini o'zaro qora rang, «yuz», «lab», «qon» so'zlarini qizil rang bilan bog'liq tushuncha birlashtirib, tasvir va ifodada o'ziga xoslikni yuzaga keltirgan. Shuningdek, asosiy qofiya (ro'zgorim – qarorim – so'rorim) bilan birgalikda saj – ichki qofrya (firoqida – ishtiyoqida; qon –

<sup>1</sup> Tanosub – ma'no va mantiq jihatdan o'zaro aloqador, tushunchalarni keltirish bilan hosil qilinadigan she'riy san'at.





ravon – yamon) hamda radif (qildi; bor)ning qo‘llanishi g‘azalga mayin musiqiylik baxsh etgan. Oshiqning hayoti (ro‘zgori) ma’shuqa zulfi firoqida parishon, yor yuzining ishtiyoqi, lab tamannosi uning sabr-qarorini ihtihosiga yetkazadi. Sof oshiqona kechinmalar bayoni bilan boshlangan ushbu satrlar keyingi baytlarda hasbi hollik yo‘siniga o‘ta boshlaydi.

Jahondin menga g‘am bo‘lsa, ulusdin gar alam bo‘lsa,

Ne g‘am yuz muncha ham bo‘lsa, seningdek g‘amgusorim bor.

«Jahondin menga g‘am bo‘lsa...» Bolalikdanoq hokimiyatning og‘ir yuki gardaniga ortilgan, hayotining ko‘p qismi qirg‘in urushlar qa‘riga kechgan, do‘st-u yori necha bor sotgan, alamlardan diydasida ko‘z yoshlari qotgan Boburning hasrati bu. Ulusdin gar alam bo‘lsa...» Saltanat ishtiyoqida ne yurtlarni kezgan, dushman bo‘lsa-da kimlarningdir dilbandi bo‘lgan yot navkarni tig‘ bilan kesgan, umr bo‘yi janglarda qonlar kechgan va bu bilan ne-ne odamlar – ulus qayg‘usiga sabab bo‘lgan Boburning iqrori bu. Hasrat va iqrorlardan so‘ng u yorga qarata: «Bu g‘am va alamlardan yuz barobar bo‘lsa ham, mening g‘amim yo‘q, chunki sen borsan» deya uning g‘amgusorligini istaydi. Bu kabi she‘rlarni shoir devonidan ko‘plab topish mumkin. «Mening ko‘nglumki gulning g‘unchasidek tahbatah qondur», «Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur» g‘azallarida, «Beqaydman-u xarobi siym ermasmen», «Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi» kabi ruboiylarida, «Bir kecha xotirim mushavvash edi» masnaviyasida Boburning ziddiyatga to‘la hayoti yuksak badiiy ifoda etilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qozoqboy Yo‘ldoshev va boshqalar Adabiyot (darslik). 9-sinf uchun ”O‘zbekiston” nashriyoti T., 2019. 47-53-betlar.
2. Qozoqboy Yo‘ldoshev va boshqalar Adabiyot (darslik). 7-sinf uchun ”Sharq” nashriyoti T., 2017.
3. B To‘xliyev va boshqalar Adabiyot(majmua). 11-sinf uchun “O‘zbekiston milliy esklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti ,T, 2018.



## ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### TIBBIYOT INFRATUZILMA TARMOQLARINI TARAQQIY QILDIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Qobulov Ozodbek O‘ktambov o‘g‘li,**  
Urganch davlat universiteti Menejment va marketing  
kafedrası stajyor-o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tibbiyot infratuzilma tarmoqlarini taraqqiy qildirishning mazmuni, imkoniyatlari, zarurligi, roli va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье описаны содержание, возможности, необходимость, роль и особенности развития сетей медицинской инфраструктуры.

**Abstract.** This article describes the content, opportunities, necessity, role and specific features of the development of medical infrastructure networks.

**Kalit so‘zlar.** Tibbiyot, infratuzilma, infratuzilma tarmoqlari, Tibbiyot infratuzilmasi, muammo, qism.

**Ключевые слова.** Медицина, инфраструктура, инфраструктурные сектор, медицинская инфраструктура, проблема, часть.

**Key words.** Medicine, infrastructure, infrastructure sector, medical infrastructure, problem, part.

Tibbiyot infratuzilma tarmoqlari infratuzilma tarmoqlarining muhim tarkibiy qismidir. Tibbiyot infratuzilmasi faoliyat ko‘rsatayotgan tibbiyot tizimining asosini tashkil etadi. Ushbu infratuzilma sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishni ta‘minlash va aholi salomatligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Tibbiyot sohasi muammolari davlat va xususiy sektorda tibbiyot xizmatlarini ko‘rsatish va xavflarni birlashtirish tuzilmasini o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqardi [1]. Tibbiyot infratuzilma tarmoqlari bir qator unsurlarga ega bo‘ladi. Kasalxonalar va klinikalardan axborot texnologiyalari tizimlari va tibbiy ta‘minot zanjirlarigacha tibbiyot infratuzilmasi kishilar va jamoalarga yordam ko‘rsatish uchun birgalikda ishlaydigan qator unsurlarni o‘z ichiga oladi [2].

Jahonda tibbiyot infratuzilma tarmoqlarini taraqqiy qildirish raqamli texnologilar samaradorligiga bog‘liq. Xususan, raqamli texnologiyalar, ulanish va ma‘lumotlar integratsiyasi bilan tavsiflangan sog‘liqni saqlash - 4.0 tizimining paydo bo‘lishi sog‘liqni saqlash sanoatida operatsion samaradorlikni oshirish uchun imkoniyatlarga ega bo‘ldi [3].

Tibbiyot infratuzilmasi tibbiyot xizmatlarini ko‘rsatishni birgalikda qo‘llab-quvvatlaydigan jismoniy va tashkiliy tuzilmalar, obyektlar va tizimlarni anglatadi. U tibbiy muassasalar va jihozlari, shuningdek axborot texnologiyalari, tibbiyot ishchi kuchi va tizimlarigacha bo‘lgan barcha narsani o‘z ichiga oladi. Bu mamlakat tibbiyot tizimining tarkibiy qismidir. Chunki, u tibbiy yordam ko‘rsatish va tibbiyotdagi favqulodda vaziyatlarga javob berish qobiliyatini asoslaydi.

Tibbiyot infratuzilmasining asosiy unsurlari quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:

- tibbiy muassasalar: Kasalxonalar, klinikalar, qariyalar uylari va boshqa tibbiyot muassasalari tibbiyot infratuzilmasining asosiy qismlari hisoblanadi.

- Tibbiyot xodimlari: malakali tibbiyot mutaxassislari, jumladan shifokorlar, hamshiralar, farmasevtlar va texniklar tibbiyot xodimlari qismidir.

- tibbiy asbob-uskuna va texnologiyalar: Bu diagnostika vositalari, davolash uskunalari va bemorlarning yozuvlari va tibbiyot ma‘lumotlarini boshqarish uchun axborot texnologiyalari tizimlarini o‘z ichiga oladi.

- ta‘minot zanjiri va logistika: Tibbiyot infratuzilmasi farmatsevtika, tibbiy buyumlar va asbob-uskunalarini yetkazib berish zanjirini boshqaradi va zarur resurslarga o‘z vaqtida kirishni ta‘minlaydi.

- jamoat salomatligi tizimlari: Ushbu tizimlar epidemiologiya, kasalliklarni nazorat qilish va aholi salomatligini muhofaza qilish va yaxshilash uchun salomatlikni mustahkamlash dasturlarini o‘z ichiga oladi.

Tibbiyot infratuzilmasi kishilar, jamoalar salomatligi va farovonligi uchun ajralmas qism bo‘lib



hisoblanadi. Uning ahamiyati keng qamrovli bo‘lib, tibbiyotning quyidagi jihatlariga faol ta‘sir qiladi:

- xizmatdan foydalanish imkoniyati. Yaxshi rivojlangan tibbiyot infratuzilmasi kishilarning joylashgan joyidan qat‘iy nazar, tibbiy xizmatlardan o‘z vaqtida foydalanishlarini ta‘minlaydi.

- favqulodda vaziyatlarda javob. Pandemiya yoki tabiiy ofatlar kabi favqulodda vaziyatlarda resurslarni safarbar qilish va tezkor javob berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

- kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish. Tibbiyot infratuzilmasidagi tibbiyot tizimlari aholining umumiy salomatligiga hissa qo‘shadigan kasalliklarning tarqalishini kuzatib boradi va ularga javob beradi.

- tibbiy innovatsiyalar. Zamonaviy tibbiyot infratuzilmasi tibbiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va yangi davolash usullari va texnologiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

- xizmat sifati. Tibbiyot infratuzilmasi yuqori sifatli tibbiy yordam ko‘rsatishni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa bemorning yaxshi natijalariga olib keladi.

Tibbiyot infratuzilma tarmoqlari tarkibida kelajakni rivojlanayotgan texnologiyalar, rivojlanayotgan tibbiyot modellari va o‘zgaruvchan tibbiyot landshafti shakllantiradi. Shunga asosan, uning asosiy tendensiyalariga quyidagi yo‘nalishlar kiradi:

- raqamli salomatlik: telemeditsina, taqiladigan qurilmalar va tibbiyot ilovalarining integratsiyasi ommalashib bormoqda;

- aholi salomatligini boshqarish: u surunkali kasalliklar yukini kamaytirish uchun profilaktika yordami va aholi salomatligiga qaratiladi;

- ma‘lumotlar tahlili: Ilg‘or ma‘lumotlar tahlili aniqroq tashxis qo‘yish va davolash rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi;

- global tibbiyotga tayyorlik: Dunyo so‘nggi pandemiya nuqtai nazaridan global tibbiyot xavfsizligi va tayyorgarligiga e‘tibor beradi;

- barqaror tibbiyot: Ekologik barqarorlik tibbiyot infratuzilmasida muhim rol o‘ynaydi, asosiy e‘tibor uglerod izini kamaytirishga qaratiladi.

Tibbiyot infratuzilmasi tarmoqlarining tarkibiy qismlari quyidagi guruhlariga bo‘linadi (1-rasm):



1-rasm. Tibbiyot infratuzilmasi tarmoqlarining tarkibiy qismlari<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.



Fikrimizcha, to'plangan tajribalarga asoslanib, tibbiyot infratuzilmasi ko'plab tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- tibbiy yordam olish imkoniyatini ta'minlaydigan jismoniy vositalar;
- laboratoriya, o'quv va boshqa yordamchi vositalar;
- farmasevtika va boshqa materiallarning ishonchli ta'minoti;
- o'qitilgan xodimlar va kasbiy ta'lim tizimlari;
- resurslar va tajribani taqsimlash mexanizmlari.

Shuningdek, tibbiyot infratuzilmasi tibbiy yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynasa-da, u quyidagi muammo va kamchiliklarga duch keladi:

- tibbiyotning nomutanosibligi: Tibbiyot muassasalari va xizmatlaridan foydalanishning tengsizligi tibbiyotning nochor qatlamlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- resurslarni taqsimlash: Resurslarni samarali taqsimlash muhimdir. Ammo, budget cheklovlari va raqobatbardosh tibbiyot ehtiyojlari uchun murakkab bo'lishi mumkin.

- tibbiyot xodimlarining yetishmasligi: Tibbiyot xodimlarining yetishmasligi xizmat ko'rsatilmagan hududlarda tibbiyot tizimini murakkablashtiradi.

- texnologik integratsiya: Telemeditsinagacha tibbiyot texnologiyalarining uzluksiz integratsiyasiga erishish doimiy harakatlarni talab qiladi.

- pandemiyaga tayyorgarlik: COVID-19 pandemiyasi global pandemiyaga tayyorgarlik va javob berishdagi kamchiliklarni ochib beradi.

Shular bilan birgalikda, tibbiyot infratuzilmasi tarkibiadgi mavjud muammolarni hal qilish eng asosiy ustuvor masala sifatida qaraladi va qator yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Muammolarni hal qilish bo'yicha harakatlar davom etmoqda va tizimni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi strategiyalar va tashabbuslar mavjud bo'ladi:

- ishchi kuchini rivojlantirish: tibbiy xizmat ko'rsatilmagan hududlarda tibbiyot mutaxassislarini o'qitish va yollash bo'yicha tashabbuslar ishchi kuchi yetishmasligini yengillashtirishi mumkin.

- tibbiyot ma'lumotlari almashinuvi: Tibbiyot bo'yicha ma'lumotlar almashinuvini kengaytirish va tibbiyot tizimlarining o'zaro ishlashini yaxshilash axborot almashishni yaxshilaydi.

- telemeditsinaning kengayishi: Telemeditsina xizmatlari joylashuv muammolarini bartaraf etish va tibbiy yordam olish imkoniyatini yaxshilashga yordam beradi.

- favqulodda vaziyatlarga tayyorlik: Favqulodda vaziyatlarga tayyorlanishning kengaytirilgan rejalari va tibbiy buyumlar zaxiralari tibbiyotdagi favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berishga xizmat qiladi.

- tibbiyot sohasidagi tenglik: Tibbiyot sohasidagi tenglik tashabbuslariga e'tibor berish tibbiyotdan foydalanish va natijalardagi nomutanosiblikni kamaytirishga imkon beradi.

Tibbiyot infratuzilmasida jismoniy shaxslar eng muhim omillar sifatida muhim rol o'ynab, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga hissa qo'shadi:

- profilaktik yordamga murojaat qilish: Muntazam tekshiruv va skrininglar sog'liq muammolarini erta aniqlashi mumkin. Bu esa tibbiyot infratuzilmasi yukini kamaytiradi.

- tibbiyot sohasidagi tenglikni amalda qo'llash: Ijtimoiy-iqtisodiy yoki demografik omillardan qat'iy nazar, tibbiyot tengligi va barcha kishilar uchun parvarishdan foydalanish imkoniyatini himoya qilishga imkon beradi.

- texnologiyani qabul qilish: telesalomatlilik va tibbiyot ma'lumotlarini almashishni qo'llab-quvvatlaydigan raqamli tibbiyot vositalari va texnologiyalarini qabul qilish lozim.

- tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash: Tibbiyot infratuzilmasini rivojlantiruvchi tibbiy tadqiqotlar va klinik sinovlarda qatnashishga ochiq bo'lish lozim.

- turmush tarzini tanlash: tibbiy aralashuv va tibbiyot xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish uchun sog'lom turmush tarzini tanlashni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa shuki, tibbiyot infratuzilmasi sog'lom jamiyatning asosi bo'lib, sifatli tibbiy yordam olish, profilaktika xizmatlaridan foydalanish va tibbiyotdagi favqulodda vaziyatlarga javob berish vositalarini ta'minlaydi. Tibbiyot muassasalaridan boshlab tibbiyot xodimlari, texnologiya va tibbiyot tizimlarigacha tibbiyot infratuzilmasi zamonaviy tibbiyotning ko'p qirrali va muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Natijada, tibbiyot infratuzilma tarmoqlarini taraqqiy qildirish asosida u samarali rivojlanib boradi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rathina K. Health care infrastructure in India – operation and challenges. // Conference: International conference on development economics, February 2023. - p. 4.
2. <https://enterprisewired.com/meaning-of-healthcare-infrastructure/>
3. Prashnatita Pal, Bikash Chandra Sahana, Jayanta Poray. Secure Electronics Medical Infrastructure for Healthcare 4.0: A Voice Identity Management-Based Approach. // International Conference on Machine Learning and Data Engineering (ICMLDE 2023). - p. 468.



ВЛИЯНИЕ МЕТОДОВ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНЫХ КОМАНД НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В ИТ-КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА.

Курбаниязова Лалахан Рахимжановна,  
Магистр Ташкентского государственного  
экономического университета  
Телефон: +998(93) 750 88 80  
flordenus@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** В данном тезисе анализируется влияние организации проектной команды на эффективность бизнес-процессов в ИТ-компаниях Узбекистана с акцентом на методологии Agile, Scrum и Kanban. Эти международно признанные методы повышают гибкость, способствуют сотрудничеству в команде и ускоряют циклы разработки. Оцениваются преимущества и потенциальные проблемы внедрения этих подходов в Узбекистане, а также предлагаются рекомендации по их адаптации к местному культурному и организационному контексту.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** проектные команды, Agile, Scrum, Kanban, ИТ-компании, Узбекистан, гибкость, адаптация.

Эффективное управление проектными командами - ключевой фактор ускорения циклов разработки, повышения качества продукции и адаптации к изменениям на рынке. В условиях динамичного развития ИТ-сектора в Узбекистане способность компаний эффективно организовывать и управлять проектными командами стала критически важным фактором поддержания конкурентоспособности как на местном, так и на международном уровне.

В данном тезисе рассматривается влияние организации проектных команд на эффективность бизнес-процессов в узбекских ИТ-компаниях с акцентом на методологии Agile, Scrum и Kanban, которые доказали свою успешность на международном уровне. Эти подходы направлены на повышение гибкости, коммуникации и продуктивности команды. Анализируются преимущества и возможные проблемы внедрения этих методов в Узбекистане, а также предлагаются рекомендации по их адаптации к местному культурному и организационному контексту.

Методология Agile гибкая и основана на итерационном подходе, ориентированном на тесное сотрудничество внутри команды, быстрое создание продукта и адаптацию к меняющимся требованиям. Она особенно эффективна в динамичных проектах, таких как разработка программного обеспечения, где требования рынка и технологий быстро меняются. Главное преимущество Agile - гибкость, которая позволяет командам быстро адаптироваться к новым приоритетам [1]. Однако успех Agile во многом зависит от способности команды к самоорганизации и самоконтролю. Сложности могут возникнуть, когда проект необходимо масштабировать на несколько команд, что усложняет внедрение этой методологии.

Scrum - это конкретизация Agile, которая структурирует работу команды на 2-4 недельные спринты. Этот подход определяет три ключевые роли: Scrum-мастера, владельца продукта и команды разработчиков, что способствует частому взаимодействию, быстрому решению проблем и прозрачности процесса. Итеративный подход Scrum способствует постоянному совершенствованию, гарантируя, что конечный продукт будет соответствовать потребностям клиента [2]. Однако Scrum может быть сложен для применения в проектах с жесткими требованиями и сроками, поскольку он ориентирован на непрерывное развитие и адаптацию, а не на заранее определенные результаты.

Канбан, с другой стороны, фокусируется на визуализации рабочих процессов и оптимизации потоков задач, что делает его идеальным для процессов, требующих постоянного контроля и оперативных изменений [3]. Например, в ИТ-компаниях он часто используется при техническом обслуживании и эксплуатации. Однако для эффективного управления Канбан требует высокого уровня дисциплины и контроля со стороны членов команды.

Каждый из этих подходов обладает уникальными преимуществами, которые могут значительно повысить эффективность бизнес-процессов в ИТ-организациях. Выбор методологии зависит от конкретных целей проекта, характеристик команды и организационного



контекста предприятия. Внедрение этих методологий в узбекских ИТ-компаниях может не только повысить производительность, но и улучшить способность адаптироваться к изменяющимся условиям внешней среды.

Внедрение методологий Agile, Scrum и Kanban в узбекских ИТ-компаниях открывает широкие возможности для повышения гибкости, качества продукции и скорости разработки. Однако внедрение этих подходов сталкивается с рядом проблем, таких как сопротивление изменениям в компаниях с традиционной структурой управления, нехватка квалифицированных специалистов и отсутствие самоорганизации и гибкости, необходимых для успешного внедрения Agile и Scrum [4].

Для успешной адаптации этих методологий в Узбекистане крайне важно учитывать местный контекст, включая культурные и организационные факторы. Ключевым фактором успеха станет постепенный переход к этим методам, начиная с небольших проектов и проводя обучение сотрудников. Кроме того, решающее значение будет иметь поддержка высшего руководства и создание условий, способствующих гибкому управлению командой. Постепенно внедряя эти методологии и учитывая местные условия, ИТ-компании в Узбекистане смогут эффективно использовать преимущества Agile, Scrum и Kanban, повышая свою конкурентоспособность на рынке.

### Список литературы

1. Highsmith, J. (2009). Agile Project Management: Creating Innovative Products. Addison-Wesley.
2. Cohn, M. (2004). User Stories Applied: For Agile Software Development. Addison-Wesley.
3. Anderson, D. J. (2010). Kanban: Successful Evolutionary Change for Your Technology Business. Blue Hole Press.
4. Абдулазизов, Ш. (2021). Повышение эффективности формирования проектных команд и распределения задач IT-проектов. Журнал IT-менеджмента, 33(2), 74-80.



## ИҚТИСОДИЁТНИ ТЕХНОЛОГИК ИННОВАЦИЯЛАР АСОСИДА ТАДБИҚ ҚИЛИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Ўқитувчи-ассистент, **Хикматова Дилдора Шухратовна**  
Тошкент Амалий Фанлар Университети  
Телефон рақами: +998(77)1272999  
E-mail почта: dildorakhikmatova786@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада иқтисодиёт, хусусан, ҳудудлар иқтисодиётини модернизация қилишда технологик инновацияларнинг ўрни ва долзарблиги очиб берилган. Технологик инновациялар асосида иқтисодиётни модернизация қилишнинг самарали бўлишини таъминлаш учун зарур шартлар, механизмлар таҳлил этилган. Технологик инновациялардан фойдаланиш ва уларни амалиётга татбиқ этиш билан боғлиқ муаммолар аниқланган ҳамда уларни бартараф этиш йўллари таклиф этилган. Иқтисодиётни технологик инновациялар асосида модернизация қилиш бўйича илмий-амалий таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** технологик инновациялар, модернизация, инновацияларга эҳтиёж, технологик инновацияларни татбиқ этиш, инновацион ривожлантириш дастурлари, инновациялар самарадорлиги

### Кириш

Технологик инновациялар технологик жиҳатдан янги маҳсулотлар, жараёнлар, хизматларни ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш ёки мавжуд маҳсулотлар, жараёнлар, хизматларда жиддий технологик ўзгаришларни ўз ичига олади. Бунда татбиқ этилаётган маҳсулотлар, жараёнлар, хизматлар самарадорликнинг сезиларли даражада ошиши, меҳнат унумдорлиги, фойданинг ўсиши, маҳсулот ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш учун харажатларнинг қисқаришига олиб келиши кўзда тутилади. Технологик инновациялар инновацион фаолият натижасида яратилган ёки такомиллаштирилган маҳсулот, хизмат, усулларни ўз ичига олади. Корхона, ташкилот учун сотиб олинган ва татбиқ этилган ҳамда ўзлари ишлаб чиққан технологик инновациялар бир хилда муҳимдир. Гарчи охириги йилларда технологик инновацияларнинг ўрни ва аҳамияти кескин ошган бўлса-да, уларни тадқиқ этишга йўналтирилган илмий ишларнинг кўлами анча тор. Айниқса, иқтисодиётни модернизация қилишда технологик инновациялардан фойдаланиш масалаларини ўрганишга қаратилган уринишлар жуда кам. Шу нуқтаи назардан, иқтисодиётни технологик инновациялар асосида модернизация қилиш масалаларини таҳлил қилиш ҳамда шу асосда ушбу жараённи такомиллаштиришга қаратилган илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқиш долзарб аҳамият касб этади. Иқтисодиётни инновациялар асосида модернизация қилиш деганда инновацияларни кенг татбиқ этган ҳолда иқтисодиётни юқори технологик, илмий сифими юқори бўлган, кам энергия талаб этадиган маҳсулотлар, хизматларнинг салмоғини оширишга хизмат қиладиган структуравий ўзгаришларни амалга ошириш орқали янги даражага олиб чиқиш жараёнини тушуниш мумкин. Иқтисодиётни инновациялар асосида модернизация қилишнинг пировард натижаси инновация иқтисодиётини шакллантиришдан иборат. Технологик инновациялар иқтисодиётнинг модернизациясига жиддий туртки бўлишини таъминлаш учун бир қатор шартлар бажарилиши лозим, хусусан:

- фан, бизнес ва давлат ўртасида технологик инновацияларни амалга ошириш учун самарали ўзаро ҳамкорлик;
- ишлаб чиқилаётган технологик инновацияларни амалиётга татбиқ этиш учун зарур институционал асос, ташкилий тузилмалар, уларни ўзлаштириш учун зарур инфратузилма;
- инновацияларни татбиқ этиш учун тўлов қобилиятига эга бўлган эҳтиёж.

Булардан ташқари, технологик инновацияларни амалиётга татбиқ этиш бўйича инструмент ва механизмлар доимий равишда такомиллаштириб борилиши талаб этилади, чунки айрим ҳолатларда айнан мазкур инструментларнинг мавжуд ҳолатга етарлича мослашмаганлиги, замонавий талабларга жавоб бермаслиги яратилган инновацияларнинг ўз вақтида ва самарали ўзлаштирилишига тўсқинлик қилади. Объектив омилларга кўра саноат соҳаси иқтисодиётнинг технологик инновациялар асосида модернизация қилишнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. 2023 йилда иқтисодиётнинг реал сектори тармоқларида яратилган 1021 та янги технологиялар (техник натижалар), дастур маҳсулотларининг 1030 таси айнан саноат тармоғига тегишли. Шуларни ҳисобга олган ҳолда иқтисодиётни модернизация қилишда





инновацияларнинг ролини оширишга қаратилган ҳаракатлар, биринчи навбатда, саноат соҳасини модернизация қилиш бўйича тадбирлар билан уйғунлашган ҳолда олиб борилиши кўзда тутилади. Саноатни инновациялар асосида модернизация қилишнинг самарадорлигини таъминлаш вазифасини амалга ошириш учун тегишли механизмни шакллантириш талаб этилади. Мазкур механизм иқтисодийни модернизация қилиш йўналишларини ҳамда мазкур жараёнга алоқадор бўлган барча институтларнинг функцияларини аниқ белгилаб бериши зарур. Шу нуқтаи назардан давлатнинг иқтисодий жараёнларни ташкил этишдаги роли, иқтисодийнинг инновацион-технологик даражасини ошириш шартлари, модернизациянинг молиявий таъминотини ташкил этишга ёндашувлар ҳамда иқтисодийни модернизация қилишдаги бозор механизмларини ўз ичига олувчи қуйидаги механизм диққатга сазовор.

Албатта мазкур механизмни инновацион ривожлантиришнинг мукамал инструменти деб бўлмайди, хусусан, бу механизмни самарали қўлланиши учун инновацион ривожлантиришнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари етарли даражада шаклланган бўлиши лозим. Бундан ташқари, иқтисодийнинг инновацион-технологик даражасини оширишга йўналтирилган тадбирлар мажмуаси инновацияларни амалиётга татбиқ этишдаги иқтисодий рискларни камайтириш, технологик инновациялар юзасидан маълумотларни олиш ва тарқатиш бўйича тадбирлар ва шу кабиларни ўз ичига олиши зарур. Ҳозирги вақтда ҳудудларда технологик инновациялардан фойдаланиш ва уларни амалиётга татбиқ этиш билан боғлиқ қатор муаммолар мавжуд. Хусусан: • иқтисодийни технологик ва бошқа турдаги инновациялар ёрдамида ривожлантириш, мунтазам равишда модернизация қилиб бориш бўйича тадбирлар ва ҳаракатларнинг мужассамлаштирилмаганлиги, хусусан бу мақсадларга йўналтирилган дастурий ва стратегик ҳужжатларнинг ишлаб чиқилмаганлиги, инновацион ривожлантиришга комплекс ёндашувнинг мавжуд эмаслиги; • технологик инновацияларни яратувчилар, ундан потенциал фойдаланувчилар ўртасидаги алоқаларнинг заифлиги, инновацион кластерларнинг мавжуд эмаслиги, уларни ташкил этиш учун рағбатлантирувчи омилларнинг етарли эмаслиги; • технологик инновацияларни амалиётга татбиқ этишни тартибга солувчи меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мукамал эмаслиги. Бу муаммо технологик инновациялар натижаларидан фойдаланиш истагида бўлган субъектлар ҳамда мазкур инновацияларнинг яратувчилари ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш соҳасида айниқса долзарб; • пировард моддий ҳамда технологик самараси жиҳатдан унча катта бўлмаган инновациялар тоифасига кирадиган технологик инновацияларни молиялаштириш учун манбаларнинг камлиги. Бундай ҳолатнинг юзага келиши кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг аксарият ҳолларда бундай инновацияларни амалиётга татбиқ этиш учун техник ва технологик, молиявий имкониятлари, кадрлар салоҳияти етарли эмаслиги сабабчи. 2023 йилда тадбиркорлик субъектлари ўртасида ўтказилган сўров натижалари ҳам бу фикрни тасдиқлайди: сўралганларнинг деярли ҳар тўртдан бири (24%) янги ишланмаларни амалиётга татбиқ этиш қиймати баланд эканини таъкидлашган. Йирик бизнес учун эса кичик даражадаги технологик инновациялар иқтисодий жиҳатдан камсамарали ҳисобланади ва улар томонидан инвестиция киритилиши эҳтимоли жуда паст; • республиканинг ҳудудларида хориждан янги, илғор технологиялар, ишланмалар, ноу-хау, дастурий маҳсулотларни харид қилиш, жалб этиш даражаси пастлигича қолмоқда. 2023 йил давомида республика бўйича бор-йўғи 45 та шундай харидлар амалга оширилган ва уларнинг барчаси Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти ҳиссасига тўғри келади; • инновацион ишланмаларни молиялаштириш учун корхонанинг ўз маблағларидан бошқа, қўшимча молиявий ресурсларни жалб этишдаги қийинчиликлар. Тижорат банклари ва бошқа молиявий манбалар учун инновацияларни амалиётга татбиқ этиш бўйича рағбатлантирувчи механизмларнинг мавжуд эмаслиги уларнинг мазкур вазифани амалга оширишдаги иштирокини чеклайди, натижада технологик инновациялар (жумладан, уларга хос бўлган рискларнинг юқорилиги туфайли) молиялаштириш учун устуворлиги паст бўлган лойиҳалар сирасида қолиб кетаверади; • ахборот алмашинуви жадал ривожланиб бораётгани ҳамда технологик инновацияларнинг ривожланиши учун долзарблигига қарамадан, ханузгача янги технологиялар, инновацияларни сотиш бозорлари тўғрисида маълумотларнинг етишмаслиги муаммоси сақланиб қолмоқда. Тадбиркорлар субъектлари ўртасида ўтказилган сўров натижаларига кўра, сўралганларнинг 13,7%и мазкур омилларни инновацияларнинг зарур даражада ривожланмаётганлигининг асосий сабаблари сифатида кўрсатганлар; • технологик инновацияларни жалб этиш ва татбиқ қилиш бўйича тадбиркорлар учун ўқитиш, тренинг дастурлари мавжуд эмаслиги.



### Хулоса

Иқтисодий инновациялар ёрдамида ривожлантиришнинг энг муҳим вазифаларидан бири узоқ муддатли истиқболда инновацион ривожлантиришнинг етакчиси бўлишга қодир саноат тармоқларини аниқлаб, инновацияларнинг бошқа тармоқларга тарқалишини рағбатлантириш орқали инновацияга асосланган саноатнинг ядросини шакллантиришдан иборат. Иқтисодий инновациялар асосида ривожлантириш мамлакат, ҳудудларнинг ривожланиш стратегиясининг асосий йўналишларидан бири эканини ҳисобга олган ҳолда мамлакатда инновацион ривожланиш стратегияси ҳамда ҳар бир ҳудудни узоқ ва ўрта муддатларда инновацион ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш зарур. Ишлаб чиқилган ҳудудларни инновацион ривожлантириш дастурларини амалдаги ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий (комплекс) ривожлантириш дастурларига интеграция қилиш талаб этилади. Мазкур дастурлар ҳудудни инновацион ривожлантиришга қаратилган тадбирларнинг мазмуни, молиялаштириш манбалари, ресурс таъминоти, ижрочилар ва муддатларини белгилаб беришдан ташқари инновацион фаолият иштирокчиларининг ҳар бир тоифаси, давлат бошқарув идораларининг вазифаларини белгилаб бериши лозим. Барча чора-тадбирлар инновацион фаолиятни рағбатлантириш ҳамда ҳудуд иқтисодийтини инновацион иқтисодийга айлантиришни кўзда тутувчи пировард натижага йўналтирилган бўлиши зарур. Инновация дастурлари қабул қилингандан сўнг уларнинг ўз вақтида ва тўлиқ амалга оширилишини таъминлаш учун зарур бўлган тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилиниши муҳим. Дастурларни ишлаб чиқишда қуйидагиларни ҳисобга олиш зарур: – иқтисодий, биринчи навбатда саноатнинг технологик базаси, таркиби, мавжуд таркибий номуносибликлар ва уларнинг юзага келиш омиллари; – инновацион тадбирларни молиялаш ва кредитлашнинг амалдаги тизими; – илмий-тадқиқот базаси, кадрлар таъминоти ва салоҳияти; – инновацияларни амалиётга татбиқ этиш механизмлари ва мавжуд тўсиқлар; – ҳудуднинг рақобатбардошлигини таъминловчи асосий омиллар ва ш.к. Дастурларда, жумладан қуйидаги муҳим шартлар ва йўналишлар ўз аксини топиши зарур: – аниқ асосланган устувор инновацион йўналишлар ва лойиҳалар турлари белгилаб берилиши, уларни амалга ошириш учун зарур молиявий ва бошқа имтиёзлар, қўллаб-қувватлаш механизмлари; – корхоналарни, айниқса саноатни ривожлантиришнинг устувор йўналишларига мансуб юқори технологик ишлаб чиқаришга асосланган корхоналарни инновацияларни кенг жалб этиш ва инновацион ривожланишга рағбатлантириш тизими; – кўзда тутилаётган тадбирлар чуқур таҳлилга асосланган бўлишини таъминлаш; – иқтисодий инновациялар асосида ривожлантириш учун зарур кадрлар салоҳиятини шакллантиришга қаратилган тизимни шакллантириш; – ҳудудий ҳокимият идораларига инновацияларни қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирларни амалга оширишда кенг ваколатлар бериш.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодий ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги фармони, 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5053-сонли Фармони.
2. Жигайло В.В. Теоретические и методологические вопросы управления инновационным обеспечением модернизации промышленности. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени. Санкт-Петербург, 2022.
3. Батукова Л.Р. Управление инновационной модернизацией экономики регионов Сибири. // Диссертация доктора экономических наук. Сибирский государственный аэрокосмический университет- Красноярск, 2014. –С. 450.
4. Основные показатели развития научно-технического потенциала и инноваций Республики Узбекистан в 2023 году. // Статистический бюллетень.



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPARATIV BOSHQARUV FAOLIYATINI  
TAHLIL QILISH USULLARI

i.f.f.d., dotsent **Ishmanova D.N.**  
**Abduraximova Sabrinaxon Shuxrat qizi**  
BA- 401 guruh talabasi  
Millat Umidi Universiteti  
rector@cambridge.uz  
sabrinaabduraximova@icloud.com  
Telefon: +998(94) 844 11 55


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korxonalar rivojlanishi va muvaffaqiyatga erishishi uchun to'g'ri boshqaruv juda muhim ahamiyatga ega ekanligi, samarali boshqaruv aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilishi hamda kompaniyaning barqarorligini va raqobatdoshligini oshirishi va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlashi ilmiy tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Aksiyadorlik jamiyati, aksiya, korporativ boshqaruv, samaradorlik, iqtisodiy rivojlanish.

Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalasi katta ahamiyatga ega. Muvaffaqiyatli bo'lish uchun har bir sohada korporativ sektorni rivojlantirish, samarali zamonaviy menejmentni joriy etish zarur mexanizmdir. Bundan tashqari boshqaruv faoliyatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega, chunki bu investitsiyalarni jalb qilish va samaradorlikni oshirishda katta rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro integratsiyasini faollashtirishda aksiyadorlik jamiyatlari ishtiroki tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, korxonalar strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkinmablag'larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, unda alohida milliy korxonalar aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylashtirilishiga erishish, ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta'minlashga erishish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobat muhitini yaratish hamda mahsulotlar va xizmatlar bozorida bosqichma-bosqich monopoliyani qisqartirishga erishish yo'lida ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarining aksiya va ulushlarini sotib olishda tadbirkorlik sub'ektlarining hujjatlarini ko'rib chiqish tartibini soddalashtirishni ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda korporativ faoliyatning zamonaviy tamoyillarini shakllantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda boshqarish va ilmiy-uslubiy asoslarni yaratish. Bu birinchi ilmiy tomonidan amalga oshirildi korporativ boshqaruv sohasida olib borilgan tadqiqotlar. Korporativ harakatlarni baholash bo'yicha iqtisodchilar va ekspertlar aksiyadorlik jamiyatlarida o'z ilmiy tadqiqot va xalqaro konferensiyalarida o'z fikr va mulohazalarini bildirishdi. Ular aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ harakatlarni baholash amaliyoti takomillashtirilganligini ko'rsatdi. Masalan: D.S.Tagaverdievaning tadqiqotlarida korporativ boshqaruv sifati bilan taqqoslash usuli. benchmark, benchmarking tizimiga asoslangan baholash, kapital qiymatini aniqlash usuli, usuli mulkning yakuniy qiymatini aniqlash va jozibador investitsiyalar asosida baholash metodologiyasi korporativ boshqaruv sifati ko'rsatkichlari taklif etdi[1]. I.S.Rumyantsev korporativ boshqaruv samaradorligini miqdoriy baholash metodologiyasini taklif qildi. Bundan tashqari uslubiy yondashuv, aksiyadorlik faoliyatini aniqlash uchun matematik apparati taklif qildi[2].

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari mamlakat iqtisodiyotining muhim qismi bo'lib, ular orqali investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy boshqaruv tajribalarini qo'llash va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Korporativ boshqaruv tizimi aksiyadorlar, direktorlar kengashi va boshqaruv organlari o'rtasida shaffof va samarali munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan. Bundan tashqari O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tartibga soluvchi asosiy hujjatlar ham mavjud, bular quyidagilardan iborat:



**1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tartibga soluvchi asosiy hujjatlar<sup>1</sup>**

Asosiy tamoyillar:

1. Shaffoflik – Aksiyadorlik jamiyatlari o‘z faoliyatiga doir to‘liq va ishonchli ma‘lumotlarni aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ochiq holda taqdim etishlari zarur.

2. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish – Aksiyadorlarning ovoz berish huquqlarini ta‘minlash, ularning kompaniya boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatini yaratish va dividendlardan foydalanishni kafolatlash muhim hisoblanadi.

3. Boshqaruv kengashining mustaqilligi – Direktorlar kengashining faoliyatini mustaqil va samarali tashkil etish, ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlar aksiyadorlar va kompaniya manfaatlariga xizmat qilishi kerak.

4. Hisobot va audit – Korxonalar muntazam ravishda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi va mustaqil auditorlar tomonidan tekshirilishi lozim.

O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish uchun qator islohotlar amalga oshirildi. Masalan, davlat tomonidan strategik aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida xalqaro korporativ boshqaruv amaliyotlari joriy etilmoqda. Bundan tashqari, aksiyadorlar kengashining mustaqilligini ta‘minlash uchun xorijiy ekspertlar va mutaxassislar jalb qilinmoqda. Hamda korporativ boshqaruvning samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili keng qo‘llanilmoqda. Bu usul kompaniyaning moliyaviy ahvolini baholash uchun foydalanuvchi turli ko‘rsatkichlarni ko‘rsatadi, jumladan:

- Rentabellik ko‘rsatkichlari (masalan, sof foyda marjasi, ROE – aksiyadorlar kapitalining rentabelligi);

- Likvidlik ko‘rsatkichlari (joriy likvidlik koeffitsiyenti, tezkor likvidlik);

- Moliyaviy barqarorlik (kapital tuzilishi, qarz/kapital nisbati).

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning amaliyoti korporativ boshqaruv kodeksiga rioya qilish darajasi bilan ham baholanadi. Bunda kompaniya:

- Aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish;

- Kengash a‘zolarining mustaqilligini ta‘minlash;

- Korrupsiyaning oldini olish choralari;

- Hisobotlarning ochiqligi va shaffofligi kabi omillarni tahlil qiladi.

Bugungi kunda qaysi davlatda kompaniyalar o‘zlarining boshqaruvida korporativ boshqaruv tamoyillari asosida boshqaruvni yo‘lga qo‘ygan bo‘lsa iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga erishayotgan hisoblanadi. Korporativ boshqaruvning rivojlanib borishi o‘tgan asrning 70 yillariga to‘g‘ri keladi

<sup>1</sup> Muallif tahlili



lekin bundan ancha oldin korporativ boshqaruv mavjud bo'lgan. AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlarida korporativ boshqaruv o'tgan asrning 50 yillaridan keyin juda tez rivojlangan. Aslida buning boshlanishi feodalizm tugab sanoat davrining boshlanishi bilan paydo bo'lgan. Sanoat davrida korporatsiyalarni tizimli va tartibli boshqarish uchun korporativ boshqaruv kerak bo'lgan. Ya'ni mulkdorlar mulkka egalik qilgan holda uning boshqaruvini yollanma boshqaruvchilarga topshirgan va nazorat qilgan. Bu esa kompaniya faoliyatining tez rivojlanishiga hamda kompaniya egasining vaqtini tejashga hamda mas'uliyatini cheklashga olib kelgan. Rivojlangan mamlakatlarda bu tizim ishlaydi. Ularda kompaniyalar ayniqsa yirik aksiyadorlik jamiyatlari boshqacha boshqaruvni bilmaydi. Investitsion banklarning boshqaruvi ham shunga asoslangan. Respublikamizda tijorat banklaridan tashqari investitsion banklarni tashkil qilish kerak. Tasavvur qiling tijorat banklari investor vazifasini bajaradi. U o'z resurslari bevosita real aktivlarni tashkil etish va moliyaviy aktivlarni xarid qilishga yo'naltiradi. Shu orqali tijorat banklari bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subektlarining pul kredit shaklida yuzaga keluvchi investitsion talablarini amalga oshirishini rag'batlantiradi. Korporativ boshqaruvning ham Yapon modelida korporatsiyalarning yirik ulushiga Investitsion banklar egalik qiladi. Ular kompaniyalarni kredit orqali emas balki investitsiya orqali moliyalashtiradi va har doim korporatsiyalarning o'ziga tegishli ulushini doimiy o'zida saqlab keladi. Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiyoti eng kuchli 10 davlatlar qatoriga kiradi hamda investitsion loyihalar, robototexnika, suniy intellekt va startaplar mamlakati hisoblanadi. Buning barchasi investitsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilgani uchun va ilm fan loyihalariga asosan investitsiyalariga mablag'lar yo'naltirilganligi evaziga bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosida xulosa chiqaradigan bo'lsak, O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish investitsiyalarni jalb qilish, korxonalarining samaradorligini oshirish va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tagaverdieva D. S. Methody otsenki effektivnosti korporativnogo upravleniya // Russian Journal of Economics and Law. 2012.No.2(22). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metody-otsenki-effektivnosti> .
2. Rumyantsev Ilya Sergeevich Analiz kolichestvennykh metodov otsenki effektivnosti korporativnogo upravleniya v sovremennykh rossiiskikh usloviyax. // Vestnik ChelGU. 2011. No. 31. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-kolichestvennyh-metodov-otsenki-effektivnosti-korporativnogoupravleniya-v-sovremennyh-rossiyskih-usloviyah> .



KORXONALARDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA GLOBAL  
TENDENSIYALAR

Aminjonov Afzalbek Murodjon o'g'li  
Qobiljonov Muhammadtemur Qaxramonjon o'g'li  
Millat Umidi universiteti BA-401 guruh talabarlari  
Telefon: +998505700023  
afzalmuradov@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu tezisdagi, korxonalarda boshqaruv tizimining rivojlanishidagi global tendensiyalarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Boshqaruv tizimlari har doim o'zgarib boradi, chunki global iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar boshqaruv jarayonlariga doimiy ravishda ta'sir qiladi. Maqolada boshqaruvning asosiy yondashuvlari, jumladan, agile boshqaruv, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyat, xodimlarni boshqarishning yangi usullari, va boshqaruvning global raqobatbardoshlikni oshirishdagi o'rni o'rganiladi. Tezisdagi zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va metodologiyalarining global korxonalarda qanday muvaffaqiyatli qo'llanilishini va ularning biznesni optimallashtirishdagi o'rni haqida so'z yuritadi.

**KALIT SO'ZLAR:** Boshqaruv tizimi, global tendensiyalar, agile boshqaruv, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, ijtimoiy mas'uliyat, raqobatbardoshlik, boshqaruv innovatsiyalari, korxonalar boshqaruv.

Korxonalarda boshqaruv tizimining rivojlanishi davomiy jarayon bo'lib, global iqtisodiy, siyosiy, texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga bog'liq. Bugungi kunda boshqaruv tizimining samarali bo'lishi nafaqat ichki omillarga, balki global tendensiyalarga ham bevosita bog'liq. Zamonaviy boshqaruvni shakllantirishda global innovatsiyalar va yangi boshqaruv yondashuvlarining ahamiyati oshmoqda. Tezis korxonalarda boshqaruv tizimining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi global tendensiyalarni o'rganadi va ularning korxonalar muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi.

1. Global boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar va tendensiyalar

Agile boshqaruv: O'zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslashishga imkon beruvchi agile yondashuvlarining rivojlanishi. Bu yondashuv korxonalar innovatsiyalarni tez joriy etish va muammolarni samarali hal qilishda yordam beradi.

Raqamli transformatsiya: Texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (AI), ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirish, boshqaruv jarayonlarini tezlashtirish va samaradorlikni oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Raqamli transformatsiya orqali boshqaruv tizimlari yanada aniqroq va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyat: Korxonalar faqat iqtisodiy foyda emas, balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ham hisobga olishni boshladi. Barqaror rivojlanishning asosiy prinsiplari boshqaruv tizimlariga integratsiya qilinmoqda.

Xodimlarni boshqarishning yangi yondashuvlari: Xodimlarni o'z-o'zini boshqarish, malaka oshirish va yaratgan ish muhiti orqali korxonalar yuqori darajadagi innovatsiyalarni qo'llashga intilmoqda. Shuningdek, masofaviy ishlash va moslashuvchan ish vaqti tizimlari global tendensiyalardan biridir.

2. Global boshqaruv tizimlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Iqtisodiy o'zgarishlar: Global iqtisodiy inqirozlar, global savdo urushlari va pandemiyalar boshqaruv tizimlariga jiddiy ta'sir qiladi. Bunday holatlar korxonalar yangi yondashuvlarni, tez moslashishni va risklarni boshqarishni talab qiladi.

Texnologik yangiliklar: Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), blokcheyn va IoT kabi texnologiyalar boshqaruv tizimlarida yangiliklarni kiritishga imkon yaratadi.

Madaniy va ijtimoiy omillar: Yangi avlodning ish joyidagi qadriyatlar, xodimlarning ehtiyojlari va raqobatbardoshlikni oshirishdagi etnik, madaniy va gender tenglikka bo'lgan talablar boshqaruv tizimining shakllanishiga ta'sir qiladi.

3. Global boshqaruv tizimlarining muvaffaqiyatli amaliyotlari va tavsiyalar

Boshqaruv tizimlarining muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish va barcha xodimlar uchun innovatsion ta'limni ta'minlash zarur.

Barqaror rivojlanishning ilg'or yondashuvlarini qo'llash orqali korxonalar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z faoliyatiga kiritishi kerak.

Agile va raqamli boshqaruv yondashuvlari o'rtasidagi uyg'unlik korxonalar yangi innovatsion



va raqobatbardosh qiladi.

Global tendensiyalar korxonalarda boshqaruv tizimini yanada murakkab va dinamik qilmoqda. Bugungi kunda korxonalar o'z boshqaruv uslublarini raqamli va texnologik yutuqlar, raqobat kuchayishi, ijtimoiy mas'uliyat talablarining oshishi va inson kapitalining rivojlanishi bilan uyg'unlashtirishi zarur bo'lib qoldi.

Raqamli transformatsiya jarayoni boshqaruvda samaradorlik va tezlikni oshiradi. Sun'iy intellekt va avtomatizatsiya yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlari optimallashtirilmoqda, bu esa korxonalarining tezkor o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini kuchaytirmoqda. Raqamli texnologiyalarning kiritilishi menejment sohasida an'anaviy usullarni eskirishga olib kelmoqda, chunki bugungi kunda tezkorlik, aniq ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish va xarajatlarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyat tendensiyalari esa korxonalarining atrof-muhitni muhofaza qilishga, ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga va resurslarni tejamli ishlatishga yo'nalishini talab qilmoqda. Barqaror boshqaruv modelini qabul qilish korxonalar uchun nafaqat ekologik mas'uliyat, balki raqobat ustunligini saqlash vositasi sifatida ham ahamiyatli.

Inson kapitaliga sarmoya kiritish va xodimlarning malakasini oshirish ham zamonaviy boshqaruv tizimida ustuvor vazifa bo'lib qoldi. Zamonaviy boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lgan xodimlar korxonalariga raqobat ustunligini ta'minlashga yordam beradi. Korxonalar ilg'or texnologiyalarni qo'llab, shu bilan birga, xodimlarning texnologik yangiliklarga moslashishini ta'minlash uchun ularni malaka oshirish kurslariga yuborishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, korxonalarda boshqaruv tizimining global tendensiyalarga moslashtirilishi raqobat ustunligini saqlab qolish, barqarorlikni ta'minlash va samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy qilish korxonaga bozor o'zgarishlariga moslashish, mehnat bozorida o'z xodimlariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, va oxir-oqibatda, barqaror o'sish uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bois, korxonalar doimiy yangilanish va rivojlanish orqali zamonaviy menejment tamoyillarini o'zlashtirishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Davenport, T. H. (2013). *Process Innovation: Reengineering Work through Information Technology*. Harvard Business Review Press.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.
3. Xujayev, K. M. (2020). *Boshqaruv tizimi va korxonalarda strategik menejment*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
4. Ismoilov, I. A. (2019). *Raqamli iqtisodiyot va korxonalarda boshqaruv tizimining yangilanishi*. Toshkent: Ilm Ziyo Publishing.
5. Madaliyev, D. T., & Mirmatov, M. F. (2018). *Korxonalar boshqaruvi: Yangi yondashuvlar va tendensiyalar*. Toshkent: Sharq Publishing.



ТА’ЛИМ ТИЗИМИНИ RIVOJLANTIRISHDA ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Ismatullayev Sh.Sh.  
Millat Umidi universiteti  
BA-401 guruh talabasi  
shovkat4747@icloud.com


**ANNOTATSIYA:** Ushbu tezisda ta’lim tizimida samaradorlikka erishish maqsadida informatsion texnologiyalardan fodalanishning afzalliklari, masofaviy ta’limning talabalar bilim olishidagi ahamiyati ilmiy tadqiq etilgan. Hozirgi kunda ta’lim sohasi jadal rivojlanmoqda va texnologiyalarning joriy etilishi bilan an’anaviy ta’lim metodlari o’zgarishlar kiritmoqda. Yangi onlayn ta’lim platformasi yaratish, ayniqsa pandemiya davridan so’ng, talabalar va o’qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tezisda, o’ziga xos onlayn ta’lim platformasining biznes modeli, maqsadlari, marketing strategiyasi, moliyaviy rejasi va amalga oshirish yo’llari ko’rsatiladi.

**Kalit so’zlar:** online platformalar, masofaviy ta’lim, masofaviy o’qitish platformalari, masofaviy o’qitish afzalliklari.

Mamlakatimizda ta’lim jarayonlarini yanada yaxshilash, qulay qilish maqsadida masofaviy ta’lim va masofaviy ta’lim platformalari yaratilmoqda. Hozirgi kunda onlayn ta’lim bozorida Coursera, Udemey, edX kabi yirik platformalar mavjud. Biroq, bizning platformamiz o’zining raqobatdagi afzalliklari bilan farqlanadi. Bular quyidagilar:

- Maxsus yondashuv: Foydalanuvchilar uchun individual o’quv dasturlari va yo’nalishlar.
- Mahalliyashtirish: O’zbekistonda onlayn ta’lim sohasidagi ehtiyojlarni inobatga olib, o’zbek tilida va mintaqaviy muhitga mos kurslarni taqdim etish.
- Yuqori sifatli o’quv materiallari: Yangi metodikalar va interaktiv usullar yordamida o’quvchilarning samarali o’qishini ta’minlash. Ko’pchilik Internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, informatsiya qidirish, elektron pochtdan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya’ni Internet turli sohalarga tadbiiq qilindi. Internet texnologiyalar: masofadan o’qitish, elektron kutubxonalar, elektron magazinlar va boshqalar. Masofaviy ta’lim o’z o’rnida o’qituvchilar va talabalarga ko’pgina qulayliklar olib kelmoqda. Platformalarning afzalliklari juda ko’p. Bunda talabalar o’qish bilan birgalikda vaqtdan unumli foydalangan holda ishlashi ham mumkin.

Yangi onlayn ta’lim platformasining asosiy maqsadi – yuqori sifatli ta’limni keng auditoriyaga, jumladan, professional va talabalarni nisbatan kamroq narxlar bilan taqdim etish. Platforma foydalanuvchilarga turli fanlar bo’yicha kurslar, sertifikatlar, webinarlar va interaktiv o’quv materiallari taqdim etishni rejalashtirmoqda. Shu bilan birga, o’qituvchilar uchun o’z bilimlarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatini yaratishdir.



1-rasm. Platforma asosida 3 ta asosiy biznes modeli<sup>1</sup>

1 Muallif taxlili





Foydalanuvchilar uchun o'quv materiallari va kurslarga to'liq kirish uchun pullik obuna tizimi.

Kurslarni muvaffaqiyatli yakunlagan foydalanuvchilarga sertifikatlar berish va bu orqali qo'shimcha daromad olish.

Boshqa ta'lim resurslari yoki kompaniyalar bilan hamkorlik qilib, platformada reklamalar joylashtirish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bugungi raqamli transformatsiyalar jarayonida masofaviy ta'lim barcha uchun qulay va samarali deb hisoblanmoqda. Uning foydasi va samarasi qachonki foydalanuvchi muntazam o'z ustida ishlab ,mustaqil harakat qilganda bilinadi. Bilim olish istagida bo'lgan talabalar, o'quvchilar uchun internet tarmog'ining barcha jabhalarida ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan bir necha yillar oldin masofaviy ta'lim orqali o'qitish juda kam edi. Onlayn ta'lim platformasi yaratish - bu nafaqat biznes, balki ta'lim sohasidagi muhim bir inqilobdir. Innovatsion yondashuv va texnologiyalarni samarali qo'llash orqali biz talabalar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratamiz. Yangi platforma, yuqori sifatli ta'limni qulay va arzon narxlarda taqdim etib, keng auditoriyani qamrab olishni maqsad qilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Jur'atbek G'.A. Ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanishni tashkil etish. Volume 4 | CSPU Conference 1 | 2023 Effectiveness of Introduction of Digital Technologies in the Educational Process

2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov P.Q., Shirinov M.K. Umumiy pedagogika. Toshkent. Navro'z. 2016

3. Оришев, Ж. Б. (2019). Олий таълим муассасаларида инновацион таълим технологияларидан фойдаланишнинг имкониятлари

4. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). Узлуксиз таълимда” дарсларда экологик танаффус” педагогик технологиясига асосланган электрон қўлланмаларни жорий этиш



O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESLARDA  
MARKETINGNING O'RNI

Qudratov I.R. va To'laganov S.F.

Millat Umidi universiteti

BA-402-guruh talabalari

rector@cambridge.uz

kudratovisfandiyor@gmail.com

+998333232423

+998997202100

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik va o'rta bizneslar raqobatda ustunlikka erishish va o'z mahsulotlarini yoki xizmatlarini kengroq auditoriyaga yetkazish uchun marketingdan foydalanish masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Marketing bu bizneslar uchun mahsulot va xizmatlarni bozorda joylashtirish, brend yaratish, mijozlar bilan aloqa o'rnatish va sotuvlarni oshirish kabi jihatlarda yordam beradi. Kichik va o'rta bizneslar samarali marketing strategiyalarini qo'llamasa, bozorga kirish va katta raqobatchilar bilan kurashish juda qiyin bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes va tadbirkorlik, smm, seo, marketing strategiyasi, bozor segmenti.

Bugungi globalizatsiya jarayonida to'g'ri amalga oshirilgan marketing esa, hatto cheklangan resurslarga ega bo'lgan kichik va o'rta bizneslar uchun ham bozor ulushini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kichik va o'rta hajmdagi kompaniyalar tadbirkorlik sub'ektlarini ifodalaydi. Odatda, ular katta kompaniyalarga qaraganda kamroq ishchi kuchiga ega va moliyaviy ko'lamlari ham kichikroq bo'ladi. Ammo, ularning iqtisodiyotdagi roli katta bo'lib, ular yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy aholini band qilish va yangi innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishda muhim o'rinni egallaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning ulushi 50% dan ortig'ini tashkil qiladi. Kichik va o'rta bizneslar iqtisodiy barqarorlik va bandlikni ta'minlashda asosiy kuch sifatida tan olinmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 390 898 tani tashkil etdi.

Kichik va o'rta bizneslar uchun marketingning roli katta. Ular raqobatbardosh bozor sharoitida o'z joylarini mustahkamlash va iste'molchilarga to'g'ri takliflarni yetkazish uchun marketing strategiyalarini rivojlantirishi zarur. Quyida marketingning kichik va o'rta bizneslar uchun qanday muhim ekanligi haqida batafsil ma'lumot berganmiz (1-rasm)



1-rasm. Marketingning kichik va o'rta biznesdagi ahamiyati<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



Yuqorida aks ettirilgan 2-rasm tahliliga ko'ra, marketing kichik va o'rta bizneslar uchun mahsulot va xizmatlarni bozorda to'g'ri joylashtirishga yordam beradi. O'z mahsulotini qaysi mijoz segmentiga mo'ljallanishi, qanday reklama vositalari orqali yetkazilishi, va raqobatchilardan ajralib turish strategiyalari — bularning barchasi marketing orqali amalga oshiriladi. Kichik bizneslar yirik raqobatchilar oldida imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun maqsadli marketing yondashuvi kerak. Kichik va o'rta bizneslar marketing orqali yangi mijozlar topish va ularni sodiq mijozlarga aylantirish imkoniyatiga ega. Mahalliy bozor uchun moslashtirilgan marketing kampaniyalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilish va maqsadli reklama vositalari kichik bizneslar uchun yangi mijozlar oqimini ta'minlashi mumkin. Bunda O'zbekistonning ichki bozoridagi o'sib borayotgan raqamli marketing imkoniyatlari katta rol o'ynaydi. Sodiqlik marketingi kichik va o'rta bizneslar uchun eng qimmatli vositalardan biridir. Bonus dasturlari, aktsiyalar va chegirmalar orqali kichik va o'rta bizneslar mijozlarni qayta-qayta mahsulot sotib olishga undaydi va ularni kompaniya bilan uzoq muddatga bog'lab qo'yadi. Bu esa, bozorga yangi raqobatchilar kirib kelgan taqdirda ham mijozlarni yo'qotmaslikda yordam beradi. Marketing kichik va o'rta bizneslar uchun katta sarmoya bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin ularning o'sishi va daromadlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan diagrammada ko'rinib turganidek, marketing xarajatlari oshishi bilan savdo daromadlari ham o'sadi. Bu ko'rsatkichlar kichik va o'rta biznes uchun marketing strategiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi. Mamlakatimizda kichik va o'rta bizneslar marketing bilan bog'liq qator qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek, so'ngi yillarda internet texnologiyalarining rivojlanishi tufayli kichik va o'rta biznes uchun yangi imkoniyatlar ham kengaymoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonda kichik bizneslar o'zlarining umumiy byudjetlarining atigi 5-10% ini marketingga sarflaganlar, bu esa global miqyosdagi o'rtacha ko'rsatkichdan pastdir. Dunyo bo'ylab kichik bizneslar o'z daromadlarining o'rtacha 15-20% ini marketingga yo'naltiradi. O'zbekiston bozorida kichik va o'rta biznes ko'plab raqobatchilarga duch kelmoqda. Ichki bozorda mahsulotlar va xizmatlar ko'paygani sari iste'molchilar talablari ham oshib bormoqda. Katta kompaniyalar katta marketing byudjetlari bilan raqobatbardosh mahsulotlar yaratmoqda, bu esa kichik bizneslarning bozorga kirishini qiyinlashtiradi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan kichik va o'rta bizneslar soni 700,000 ga yaqinlashgan, bu esa mahalliy bozorning kuchli raqobatga duch kelayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yirik bizneslar reklama va marketingga katta sarmoya kiritishmoqda, bu esa kichik bizneslarga yangi mijozlarni jalb qilishni qiyinlashtirmoqda. Ko'plab kichik va o'rta bizneszamonaviy texnologiyalarni tushunmasligi yoki ularga kirish imkoniyatining cheklanganligi sababli raqamli marketingdan samarali foydalana olmaydi. Internet marketing, SEO, SMM kabi usullar ko'plab kichik tadbirkorlar uchun yangi yoki tushunarsiz soha bo'lib qolmoqda.

2023-yilda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 25 million kishiga yetdi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni ham yil sayin oshmoqda, bu kichik bizneslarga mijozlar bilan raqamli kanallar orqali bog'lanish imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, kichik va o'rta bizneslar O'zbekistonda marketing bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa-da, yangi texnologiyalar va raqamli marketingning kengayishi ularni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Kichik va o'rta biznes marketingga sarmoya kiritish va raqamli marketing vositalaridan foydalanish orqali bozor ulushini oshirish va raqobatda ustunlikka erishish imkoniyatiga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. A. Amado, P. Cortez, P. Rita, and S. Moro, "Research trends on big data in marketing: A text mining and topic modeling based literature analysis," *European Research on Management and Business Economics*, Vol. 24, 2018, pp. 1-7.

2. Dr. Hatem E-Marketing - A literature Review from a Small Businesses perspective. El-Gohary Birmingham City University Business School, Birmingham, UK Cairo University Business School, Cairo, Egypt E-mail: hatem.elgohary@bcu.ac.uk, Tel: 0044 -121- 202- 4616

www.stat.uz




KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING  
BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI

Muhiddinov Ozodbek Ikromjon o'g'li va  
Shahzod Olimov shuxrat o'g'li  
Millat Umidi universiteti  
BA-402 guruh talabarlari  
rector@cambridge.uz  
shahzodolimov1717@gmail.com  
+998997682637  
+998910028133

**Annotatsiya:** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ular mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga, ish o'rinlari yaratishga va mahalliy daromadlarni oshirishga hissa qo'shadi. Kichik korxonalar tezkorlik va moslashuvchanlikka ega bo'lib, innovatsiyalarni joriy etishda faol qatnashadi. Shuningdek, ular mahalliy resurslardan foydalanib, jamoa iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam beradi va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga intilishadi. Bularning barchasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatini yanada oshirib, ularni davlat siyosati va iqtisodiy strategiyalarda e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes va tadbirkorlik, start ap loyihalar, moliyaviy institutlar, raqobatbardoshlik.

Bugungi kunda, kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, ish o'rinlari yaratadi va aholi daromadini oshiradi. Bu jarayon iqtisodiyotning barqarorligini oshirishga yordam beradi. Kichik korxonalar ko'pincha yangi g'oyalar va innovatsiyalarni amalga oshirishda oldinda bo'ladi. Ular bozorda tezkor o'zgarishlarga moslashish va yangiliklarni joriy etish uchun moslashuvchanlikka ega. Kichik bizneslar mahalliy resurslardan foydalanib, jamoalar iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu esa mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari va xizmatlar yaratishga imkon beradi. Xususiy tadbirkorlik aholi orasida o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyatini taqdim etadi. Bu, ayniqsa, qiyin ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat dasturlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kerak. Bu orqali kreditlar, treninglar va maslahatlar bilan ta'minlash imkoniyatlari yaratiladi. Ekologik va ijtimoiy masalalarga e'tibor berish, kichik bizneslarni barqaror rivojlantirish uchun muhimdir. Ular ko'pincha ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va mahalliy resurslardan foydalanishga intilishadi.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning bugungi kundagi dolzarbligi



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning bugungi kundagi dolzarbligi quyidagi asosiy jihatlardan iborat:

Kichik bizneslar bozorda katta korxonalar bilan raqobatlashish imkoniyatini beradi. Ular maxsus xizmatlar yoki mahsulotlar taklif etish orqali o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin. Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ularni qo'llab-quvvatlash, yangi imkoniyatlar yaratish va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali, jamiyatning barqaror va rivojlangan kelajagini ta'minlash mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati quyidagi omillarga bog'liq bo'lib turibdi.

**1. Iqtisodiy o'sish:** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning asosiy komponentlaridan biridir. Ular mamlakat iqtisodiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shadi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va mahalliy daromadlarni oshiradi. Bunday korxonalar iqtisodiy muhitda raqobatni oshirish orqali narxlar va sifatni yaxshilashga olib keladi.

**2. Ish o'rinlari yaratish:** Kichik bizneslar mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha ish o'rinlarining katta qismini ta'minlaydi. Ular ko'pincha yirik korxonalar bilan solishtirganda ko'proq ish o'rinlari yaratish qobiliyatiga ega, chunki kichik korxonalar tez-tez yangi ishchilarni qabul qiladi va malakali kadrlarni tayyorlaydi.

**3. Mahalliy iqtisodiyotning rivoji:** Kichik bizneslar mahalliy resurslardan foydalanib, jamoa iqtisodiyotini rivojlantiradi. Ular mahalliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.

### Rivojlanish uchun shart-sharoitlar

**1. Davlat qo'llab-quvvatlashi:** Kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhimdir. Kreditlar, grantlar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy yordamlar orqali kichik tadbirkorlikka yordam berish zarur. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini osonlashtirish uchun qonunchilikni soddalashtirish, birokatik to'siqlarni kamaytirish kerak.

**2. Ta'lim va malaka oshirish:** Kichik bizneslar uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kasb-hunar ta'limi, biznes-treninglar va seminarlar tashkil etilishi zarur.

**3. Innovatsiyalar va texnologiyalar:** Kichik bizneslar innovatsion yechimlarni amalga oshirishda oldinda bo'ladi. Ular yangi texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatdoshligini oshiradi. Innovatsiyalarni rivojlantirish va tadbirkorlikda foydalanish uchun ilmiy-tadqiqot markazlari va startap ekosistemalari bilan hamkorlik qilish muhimdir.

### 4. Ijtimoiy va ekologik jihatlar

**Ijtimoiy mas'uliyat:** Kichik bizneslar ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga intilishlari kerak. Mahalliy jamoalar bilan aloqalar o'rnatish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish va ekologik masalalarga e'tibor berish bu jarayonning ajralmas qismidir.

**1. Ekologik barqarorlik:** Kichik bizneslar ko'pincha ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga intilishadi. Ular o'z faoliyatlarida barqarorlikni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanish orqali ekologik muammolarni hal qilishga hissa qo'shishlari mumkin.

### 2. Raqobatbardoshlik va kelajak istiqbollari

**1. Raqobatbardoshlikni oshirish:** Kichik bizneslar o'z mahsulot va xizmatlarining sifatini yaxshilash, narxlarini raqobatbardosh darajada saqlash va iste'molchilarga o'ziga xos takliflar yaratish orqali raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Bunday tadbirlar, shuningdek, iste'molchilarni jalb qilishga yordam beradi.

**2. Kelajak istiqbollari:** Kichik bizneslar uchun raqamli texnologiyalar, elektron tijorat va onlayn marketing kabi yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu imkoniyatlarni to'g'ri foydalanish orqali tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va global bozorlar bilan integratsiyalashish mumkin.

### Xulosa

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi kunda har bir mamlakat uchun muhim vazifadir. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish, mahalliy iqtisodiyotlarni rivojlantirish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish orqali ularning ahamiyati yanada oshadi. Biroq, buni amalga oshirish uchun davlat, ta'lim muassasalari va tadbirkorlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va ekologik masalalarga e'tibor berish zarur.

Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu jarayonning muvaffaqiyati ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va jamoatchilikning farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.



**Adabiyotlar ro'yhati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori.



**ЦИФРОВИЗАЦИЯ И АВТОМАТИЗАЦИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ НА ПРИМЕРЕ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**Ишманова Динара Нурмамад кизи**

кафедра “Управление бизнесом и логистика”

Ташкентский государственный экономический университет, Ph.D., доцент.

rector@millatumidi.uz

**Кушбокова Хуснора Фуркат кизи**

Ташкентский государственный экономический университет

Телефон: +998881275725

husnorafurkatovna2002@gmail.com

**Аннотация**

Данная статья посвящена изучению цифровой трансформации отельной индустрии в Узбекистане, которая стала важным направлением модернизации туризма. Исследование освещает, как цифровые технологии, такие как системы управления бронированием, онлайн-регистрация и цифровая коммуникация, могут повысить эффективность и удобство для клиентов. Особое внимание уделено актуальным вызовам, включая технические и кадровые ограничения, которые ограничивают возможности внедрения цифровых решений. В заключении подчеркивается значение автоматизации как фактора, способного ускорить развитие туристической отрасли в Узбекистане, улучшить имидж страны и привлечь больше международных гостей.

**Ключевые слова:** Цифровизация гостиничного бизнеса, Автоматизация в отельном секторе, Гостиничные технологии, Туризм в Узбекистане, Системы управления гостиницей (PMS), Технологические инновации в туризме, Конкурентоспособность гостиничного бизнеса

Индустрия туризма и гостеприимства считается значимой отраслью для развития экономики Узбекистана. В настоящее время правительство республики активно проводит экономические и политические реформы для поддержания туристической сферы, включая создание благоприятных условий для предпринимателей туризма, упрощение визового режима, развитие туристической инфраструктуры и улучшение транспорта и логистики. Однако, недостаток цифровых технологий в узбекских отелях весьма ощутимый, что является одним из факторов снижения конкурентоспособности на международном рынке. В мире глобализации цифровизация в деятельности отеля играет ключевую роль для туристов, которые привыкли к стандартам гостиниц мирового уровня, таких как в Америке, Европе и Азии.

Данное исследование направлено на изучение потенциала цифровизации и автоматизации гостиничного сектора в Узбекистане, а также на разработку рекомендаций для повышения конкурентоспособности данной отрасли страны. Основные цели включают:


1. Оценку текущего уровня цифровизации и автоматизации гостиничного бизнеса в Узбекистане.
2. Определение ключевых технологий, которые могут повысить операционную эффективность и улучшить качество обслуживания клиентов.
3. Разработку рекомендаций по интеграции цифровых решений для повышения конкурентоспособности гостиниц на международном уровне.

**Цифровая трансформация** гостиничного бизнеса подразумевает внедрение технологий и автоматизацию рутинных процессов, таких как бронирование, регистрация гостей, управление ресурсами и персонализация обслуживания. Благодаря современным технологиям, гостиницы могут не только оптимизировать внутренние процессы, но и улучшить взаимодействие с гостями, повысив уровень их удовлетворенности. Автоматизация в гостиничном бизнесе Узбекистана позволяет уменьшить операционные издержки, сократить ошибки и ускорить процесс обслуживания, что становится важным фактором в конкурентной борьбе с международными отелями и качественного обслуживания огромного потока гостей.

К основным цифровым технологиям в отелях относятся: технологии больших данных (Big Data), blockchain, искусственный интеллект (AI), технологии виртуальной и дополненной реальности, Интернет вещей (IoT), мобильные устройства, робототехника, машинное обучение и другие технологии. Цифровые преобразования подразумевают активное использование



современных технологий, но для ее успешности необходимо также внедрение операционных изменений, таких как принятие новой бизнес-модели, развитие корпоративной культуры и пересмотр способов, которыми гостиница приносит ценность своим клиентам. Центральные направления оптимизации деятельности отелей с помощью цифровых технологий отображены на рис. 1.



**Рис. 1 Основные направления оптимизации деятельности отелей с помощью цифровых технологий**

Внедрение цифровых технологий имеет ряд положительных аспектов для отелей Узбекистана, а также определенные актуальные вызовы, которые могут замедлить данный процесс. (табл.1)

Таблица 1.

Преимущества	Возможные барьеры
Повышение операционной эффективности	Высокие первоначальные затраты
Снижение затрат	Нехватка квалифицированных специалистов
Улучшение качества обслуживания	Возможные трудности в адаптации систем к местным условиям и стандартам
Повышение удовлетворенности гостей	Технические ограничения и инфраструктура
Рост прибыли	Проблемы с кибербезопасностью
Повышение лояльности клиентов	Юридические и регуляторные ограничения
Укрепление позиции гостиниц на международном рынке	Низкий спрос на цифровые услуги среди туристов внутри страны

Анализ использования цифровых технологий в сфере гостиничного бизнеса показал, что их внедрение позволяет существенно трансформировать подход к обслуживанию клиентов и повысить уровень сервиса в Узбекистане. Основные направления цифровизации, такие как системы управления гостиничными ресурсами (PMS), онлайн-бронирование, персонализированные сервисы на основе искусственного интеллекта, а также киоски для самообслуживания и автоматизация маркетинга, могут оптимизировать работу гостиниц и улучшить клиентский опыт. Ожидается, что это повысит привлекательность туристического рынка Узбекистана как для иностранных, так и для местных туристов, увеличит уровень их удовлетворенности и лояльности.

### Заключение

Цифровая эволюция гостиничного бизнеса в Узбекистане имеют значительный потенциал и представляют собой необходимый шаг для успешного развития туристической индустрии страны. Внедрение технологий, таких как PMS, онлайн-бронирование, системы самообслуживания и ИИ, позволит узбекским гостиницам повысить операционную эффективность, улучшить качество обслуживания и, в конечном итоге, привлечь больше иностранных туристов. Для





успешной реализации этих изменений необходимо разработать стратегию, учитывающую национальные особенности и лучшие международные практики, а также обеспечить обучение персонала и привлечение инвестиций.

### **Использованная литература**

1. Фельдман, А. В., Григорьева, Н. Ю. «Цифровизация гостиничного бизнеса: вызовы и перспективы». – Журнал «Гостиничное дело», 2022. – № 3. – С. 45-52.
2. Петрова, Е. А., Смирнова, К. В. «Технологические тренды в гостиничном бизнесе: внедрение и адаптация». – «Туризм и технологии», 2023. – № 1. – С. 63-71.
3. Мухамедов, Р. Ш. «Проблемы и перспективы развития цифровизации гостиничного сектора в Узбекистане». – Ташкент: Издательство Узбекистанского национального университета, 2023.
4. Ким, Л. С. «Автоматизация и управление данными в сфере гостеприимства». – М.: Издательство «Наука и инновации», 2021.
5. World Tourism Organization (UNWTO). Digital Transformation in Tourism. – Madrid: UNWTO, 2021. Доступно по ссылке: [www.unwto.org](http://www.unwto.org)



ПАРРАНДАЧИЛИК КОРХОНАЛАРИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЗАРУРИЯТИ

Хайдаров Жаҳонгир Бахтиярович,  
Вазирлар Маҳкамаси масъул ходими  
Телефон: +998998263152  
xaydarov.j@gov.uz

**АННОТАЦИЯ.** Мақолда паррандачилик корхоналарига хизмат кўрсатиш самарадорлигини оширишнинг зарурияти, аҳамияти ҳамда истиқболлари йўналишлари хусусида фикр юритилган.

**КАЛИТ СЎЗЛАР.** паррандачилик, хизмат кўрсатиш, самарадорлик, рентабеллик, маҳсулдорлик, касалликларга қарши кураш, истиқболлари йўллар.

Маълумки, мамлакатимизда амалга оширилаётган аграр ислохотлар негизда озиқ-овқат хавфсизлигини, аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда қўшимча даромад манбаини шакллантириш, шунингдек, ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш орқали қўшилган қиймат яратиш имкониятларини оширишга урғу қаратилмоқда. Ушбу вазифалар учун эса иқтисодиёт тармоқларининг ҳар бир бўғинини алоҳида ривожлантириш, уларнинг ўзаро интеграциясини таъминлаш, узвий боғлиқ ҳолда ҳажм ва сифат нуқтаи назаридан барқарор ўсиб бориши учун замин яратиб бериш долзарб йўналишлардан бири саналади. Ушбу вазифаларни амалга оширишда ишлаб чиқарувчиларга хизмат кўрсатиш самарадорлигини ошириши орқали эришиш мумкин.

Иқлим ўзгаришлари ва озиқ-овқат хавфсизлиги масалаларининг долзарблашиб бораётган бугунги шароитда паррандачиликда хизматлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш маҳсулдорлик, барқарорлик ва провардида рентабелликни ошириш учун жуда муҳим қадамлардан бири саналади [1].

Хусусан, маҳсулот етиштириш жараёнида турли операцияларни соддалаштириш ва хизмат кўрсатиш самарадорлигини ошириш харажатларни сезиларли даражада тежашга олиб келишига замин яартиб беради. Мисол учун, сифатли озуқа таъминоти ёрдамида озуқа чиқиндиларини камайтириш, ресурсландан фойдаланишни оптималлаштириш ва касалликларга қарши курашишда унумли препаратлардан фойдаланиш умумий операцион харажатларни камайтириши, бу эса паррандачиликни молиявий барқарор фаолияти учун ижлобий импульс беради [2]. Бу, айниқса, унчалик катта миқёсда маҳсулот етиштирмайдиган деҳқон хўжаликларида кўл келиши табиий. Ундан ташқари саноат паррандачилигида хизматларга бўлган талаб ҳам ишлаб чиқариш ҳажмига монанд бўлади.

Паррандачиликда хизматлардан самарали фойдаланишнинг яна бир жиҳати шундаки, бу илмий асосланган наслчилик техникаси, касалликларни бошқариш ва автоматлаштирилган тизимлар каби самарали хизматлар бир бош парранда ҳисобига маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини оширишга ва унга мос равишда харажатларни камайтиришига хизмат қилган ҳолда маҳсулотларнинг рақобатбардошлигини таъминлаб беради.

Шу билан биргаликда паррандачиликда хизматлардан самарали тармоқнинг экологик таъсирини минималлаштиришга ёрдам беради. Масалан, оптималлаштирилган озиқлантириш тизимлари чиқиндиларни камайтиришга, сувни яхшироқ бошқариш эса маҳаллий сув ресурсларини бошқаришга ёрдам беради [3].

Шу билан биргаликда паррандачиликда хизматлардан самарали фойдаланиш тармоқнинг экологик таъсирини минималлаштиришга ёрдам беради. Жумладан, оптималлаштирилган озиқлантириш тизимлари чиқиндиларни камайтиришга, ер ва сув ресурсларига бўлган турли экологик босимни камайтиришга ёрдам беради. Замонавий хизматлар ёрдамида парранда чиқиндиларининг экологик зарарини камайтириш ва яшил энергиядан фойдаланиш каби соҳаларда самарадорликни ошириш орқали паррандачилик корхоналарининг янада барқарор фаолият юритиши ва атроф-муҳитга салбий таъсирини камайтириш мумкин [4].

Соҳа мутахассиларининг фикрича паррандачилик маҳсулотларини етиштиришнинг барча бўғинларида хизматлар сифатини ошириш, у билан боғлиқ бўлган илмий тадқиқотлар кўламини кенгайтириш, соҳани ривожлантиришда илмга асосланиш бугунги куннинг долзарб йўналишларидан бири саналади [5].

Айниқса парваришланаётган паррандалар ҳамда етиштирилаётган паррандачилик



маҳсулотларининг салмоқли қисми майда ва тарқоқ бўлган деҳқон хўжаликлари ҳиссасига тўғри келаётган, шу билан биргаликда саноат паррандачилиги ҳам барқарор ривожланиб бораётган бир шароитда, уларни тўйимли озуқа билан таъминлаш, касалликларга қарши курашиш, насли парранда клосларини ривожлантириш борасида амалга оширилиши лозим бўлган долзарб йўналишлар ва илмий ечимини қутаётган вазифалар сақланиб қолмоқда.

Юқоридагиларга асосан мамлакатимизда паррандачилик тармоғида хизматлар самарадорлигини оширишнинг зарурияти ҳамда унинг аҳамиятидан келиб чиққан ҳолда истиқболда қуйидаги йўналишлардаги хизматлар сифатини ва кўламини оширишига қаратилган тадқиқотлар оли бориш долзарблик касб этади. Хусусан:

- паррандаларнинг маҳсулдорлигини оширишга қаратилган наслчилик хизматлари ҳамда у билан боғлиқ илмий-техника ишланмаларни яратиш хизматлари;

- генетик модификацияланган маҳсулотларни кўпайиши ҳамда ривожланган давлатларда органик маҳсулотларга бўлган талабнинг ортиши шароитида озуқа таҳлили билан боғлиқ илмий хизматлар;

- паррандаларнинг ривожланиши, уларнинг озукланиши, маҳсулдорлиги ва касалликларини мунтазам кузатиб боришга, намлик ва ҳароратни мониторинг қилишга қаратилган рақамли чорвачилик хизматлари;

- аналитик таҳлил, мажмуали мониторинг, истиқболлари кўрсаткичларни ишлаб чиқишга ҳамда ўрта муддатли стратегик режаларни аниқлашга қаратилган сунъий интеллект хизматлари;

- тажриба ва кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган маслаҳат хизматлари;

- яшил энергия самарадорлигини таъминлашга ҳамда у билан боғлиқ харажатларни молиялаштиришга қаратилган хизматлар ва бошқалар.

Шу билан биргаликда ушбу тармоқда кўрсатилаётган хизматлар глобал илм - фандан ривожидан ортда қолмаслиги, рақамли технологияларни оптимал жорий этишни ўз ичига олиши талаб этилади. Акс ҳолда мамлакатимиз паррандачилик тармоғи ўзининг рақобатбардошлигини пасайтиб, истеъмол бозорида янги бўшлиқлар шакллантириб бораверади.

Хулоса қилиб айтганда паррандачиликда хизматлар самарадорлигини ошириш нафақат харажатларни қисқартиришга, балки бозорда рақобатбардошлигини таъминланган ҳолда устунликни сақлаб қолиш учун ҳам долзарб саналади. Паррандачилик маҳсулотларига жаҳонда талаб ўсишда давом этар экан, тармоқда хизматлардан самарали фойдаланиш паррандачилик хўжаликларининг узоқ муддатли барқарор фаолиятини таъминлашда ҳал қилувчи рол ўйнайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. У.Кўччиев. Чорвачилик хўжаликларида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. дис. иқт. фан. док.– Т., 2000.

2. У.Н.Садуллаев. Гўшт етиштириш тизимини модернизациялашни рағбатлантириш йўллари. дис...и.ф.н.– Т., 2020. – 13-150-б.

3. О.Албеков. Аграр тармоқда паррандачиликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Агроиқтисодиёт. № 4(30)2023. 130-132 бет.

4. М.Рахматалиев. Паррандачиликда инновацион фаолият самарадорлигини ошириш йўллари. дис...и.ф.н.– Т., 2023. – 35-45-б.

5. И.Ачилов. Паррандачилик маҳсулотларини етиштириш бўйича хорижий тажрибаларни мамлакатимизда жорий этиш имкониятлари. № 3(29)2023. 145-бет.



i.f.f.d, dotsent Ishmanova D.N.

Abdullaev Sh.A., Muminov A.A

Millat Umidi universiteti BA-402- guruh talabasi.


Annotatsiya:

Ushbu maqola marketing va savdo bo'limlarining korxonalarining o'sishi va barqarorligida ta'sir etuvchi muhim rolini o'rganadi. Tashkiliy strategiya, mijozlarni jalb qilish, daromad olish va brendga sodiqlik orqali ushbu tadqiqot ikki bo'limning uzoq muddatli biznes muvaffaqiyatiga erishish uchun qanday qilib birgalikda ishlashini ko'rsatadi. Shuningdek, marketing va sotish o'rtasidagi sinergiyani ta'kidlab, biznes samaradorligini oshirish uchun yaxlit strategiyalar zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: marketing, sotuv bo'limi, samaradorlik, bozor segmenti, marketing strategiyasi, reklama.

Zamonaviy ishbilarmonlik muhitidagi raqobat muhitining qisqacha sharhi, korxonalarining o'zlarini farqlashi va tobora to'yingan bozorlarda gullab-yashnashi zarurligini ta'kidlaydi. Marketing va sotishning muhim roliga qaramay, ko'pgina korxonalar hali ham ushbu ikki bo'limni moslashtirishda kurashmoqda, natijada daromad imkoniyatlarini boy berib qo'yadi va mijozlarni jalb qilmaslikka olib keladi. Marketing va savdo bo'limlarining korxonada faoliyatidagi ahamiyatini va ularning o'sish, rentabellik va barqarorlikka qo'shgan hissasini o'rganadi. An'anaviy yuzma-yuz sotishdan raqamli strategiyalar va tadqiqot yondashuvlarga bo'lgan marketing va sotish funksiyalarining tarixiy rivojlanishi. Muvaffaqiyatli biznes strategiyalarini asoslovchi marketing nazariyalarini (masalan, 4Ps, iste'molchi xatti-harakatlari modellari) va savdo nazariyalarini (masalan, munosabatlarni sotish, maslahat savdosi) o'rganish. Mijozlarning sayohatini yaxshilash va konversiya stavkalarini yaxshilash uchun marketing va savdo guruhlarini o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati bo'yicha tadqiqot.

Mijozlarda Brend haqida xabardorlik va joylashishni aniqlash, qanday qilib marketing brend xabardorligini oshirishga, korxonani iste'molchi ongida joylashtirishga va uni raqobatchilardan farqlashga yordam beradi. Maqsadli bozorlarni aniqlash, mijozlar profilini yaratish va bozorni yanada samaraliroq ta'minlash uchun segmentlashda marketingning roli. Kontent marketingi, ijtimoiy media va reklama orqali talabni shakllantirish, etakchilik qilish va mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan marketing strategiyalarini muhokama qilinadi.



1-rasm. Marketingda, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish<sup>1</sup>

Yuqorida aks ettirilgan 1-rasm tahliliga ko'ra, Strategik qarorlar qabul qilish, kompaniyalarni optimallashtirish va investitsiya daromadini (ROI) oshirish uchun marketing tahlillari va mijozlar tushunchalaridan foydalaniladi. Brendning joylashuvi-bu tovar iste'molchilar ongida o'zini

1 Muallif tahlili



raqobatchilardan qanday farq qilishi. Bu bozorda brend o'ziga xos imtiyozlarni taklif qilish yoki muammoni raqobatchilardan ko'ra yaxshiroq hal qilish sifatida qabul qilinadigan noyob makonni yaratish haqida. Ushbu joylashuv brendning o'ziga xos xususiyatiga aylanadi va ko'pincha uning xabarlarini, qadriyatlarini va mijozlarning o'zaro munosabatlari orqali xabar qilinadi. Marketing va sotuvda brend noyob identifikatorni yaratish: to'yingan bozorda tovar joylashuvi biznesni o'ziga xos qiladigan narsani ta'kidlab, ajralib turishga yordam beradi. Bu brendni ma'lum atributlar bilan bog'lashga imkon beradi (masalan, sifat, arzonlik, innovatsiya). To'g'ri auditoriyani yo'naltirish: samarali joylashishni aniqlash brendning o'ziga xos ehtiyojlari yoki istaklarini qondirib, to'g'ridan-to'g'ri maqsadli bozoriga murojaat qilishini ta'minlaydi. Mijozlarning sodiqligini shakllantirish: iste'molchilar brendni ma'lum bir qiymat bilan bog'lashganda (masalan, hashamat, barqarorlik), bu kuchli hissiy aloqani yaratadi. Tovar xabardorligi joylashishni aniqlashdan oldin: xaridor bu haqda fikr bildirishdan oldin avval brend haqida xabardor bo'lishi kerak. Tovar xabardorligi bozorda e'tiborga olinishning birinchi qadamidir, tovar joylashuvi esa ushbu tovar raqobatchilarga nisbatan qanday qabul qilinishini aniqlashga yordam beradi. Joylashuvsiz xabardorlik to'liq emas: hatto brend keng tan olingan bo'lsa ham, aniq joylashuvsiz, u iste'molchilar bilan chuqur bog'lana olmasligi yoki kuchli afzallik yaratishi mumkin. Joylashuv mijozning brend haqida xabardor bo'lgach, uning noyob qiymatini tushunishini va unga ustunlik berishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tovar xabardorligi brendni e'tiborga olishga yordam beradi, tovar joylashuvi esa iste'molchilarga uni raqobatchilardan afzal ko'rish uchun sabab beradi. Ikkalasi ham kuchli brend identifikatori va mijozlarning sodiqligini shakllantirishda uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Zamonaviy bozorda tovar xabardorligi va tovar joylashuvi muvaffaqiyatli va doimiy brendni yaratish uchun juda muhimdir. Tovar xabardorligi-bu mavjudlikni o'rnatishdagi birinchi qadam; bu iste'molchilarning brendni tanib olishlarini va eslab qolishlarini ta'minlaydi, jalb qilish uchun kirish nuqtasini yaratadi. Xabardorliksiz, hatto eng yaxshi joylashtirilgan brendlar ham e'tiborni jalb qilish yoki raqobat shovqini orasida ajralib turish uchun kurashadilar. Biroq, xabardorlikning o'zi etarli emas. Brend tan olingandan so'ng, uning joylashuvi iste'molchilar tomonidan qanday qabul qilinishi va qadrlanishini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Kuchli joylashishni aniqlash brendni o'ziga xos atributlari va o'ziga xos afzalliklarini aniq etkazish orqali raqobatchilardan ajratib turadi. Bu maqsadli auditoriya bilan rezonanslashadigan brend identifikatorini shakllantirishga yordam beradi, sadoqat va ishonchni kuchaytiradigan hissiy aloqalarni yaratadi. Eng muvaffaqiyatli brendlar nafaqat keng tan olinishga erishadigan, balki iste'molchilar ongida o'zlarini samarali joylashtiradigan brendlardir. Ular izchil branding sa'y-harakatlari orqali xabardorlikni oshiradilar va va'dalarni bajarish, aniq tasvirni rivojlantirish va o'z takliflarini mijozlar kutganlari bilan doimiy ravishda moslashtirish orqali o'z pozitsiyalarini mustahkamlaydilar. Oxir oqibat, tovar xabardorligi va tovar joylashuvi o'rtasidagi sinergiya brendning bozorda ko'rinadigan va mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu kombinatsiya korxonalariga bozor ulushini egallashga, mijozlarning afzalliklarini oshirishga va barqaror o'sishga erishishga yordam beradi. Ikkala elementni ham o'zlashtiradigan brendlar doimo o'zgarib turadigan raqobatbardosh landshaftda rivojlanish uchun yaxshi jihozlangan bo'lib, iste'molchilarda doimiy taassurot qoldiradi va uzoq muddatli sodiqlikni ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A.R. Ashurov. Savdo menejmenti – O'quv qo'llanma. TDIUNashr yili: 2021 200 bet.
2. Ergashxodjaeva Sh.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. T.:Iqtisodiyot, 2018. – 315 b.
3. Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг менеджмент: Экспресс-курс. 3-е изд. / пер с англ. под науч. ред. С.Г. Жильцова. Санкт-Петербург, 2007. С. 475.



KORXONALARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Abdurafikov Shohrux Golibjonovich

Millat Umidi University

BA-401 talabasi

Telefon: +998 90 030 89 66

Abdurafikovv.sh@gmail.com

**ANOTATSIYA:** Ushbu tezisda korxonalarda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Bugungi global iqtisodiy sharoitda raqamli texnologiyalar korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni samarali boshqarish va yangi biznes imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog'liq masalalar, ularning yechimlari va istiqbollari ko'rib chiqiladi.

**KALITSO'ZLAR:** Raqamli texnologiyalar, korxonalar, iqtisodiy samaradorlik, avtomatlashtirish, biznes jarayonlari, raqobatbardoshlik.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar dunyo bo'ylab barcha sohalarda keng ko'lamda qo'llanmoqda. Xususan, korxonalar uchun raqamli transformatsiya jarayoni biznes jarayonlarini optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Korxonalar faoliyatida axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash tizimlari va IoT (Internet of Things) kabi zamonaviy vositalarning qo'llanilishi orqali ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruv tizimlari avtomatlashtirilmoqda.

Raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, balki marketing, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish va logistika jarayonlarini optimallashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonlar orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlar va mijozlarga chiqish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shu sababli, ushbu tezisda raqamli texnologiyalarning korxonalarda joriy etilishi va ularning biznesga ta'siri keng ko'lamda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Raqamli texnologiyalar — bu axborot va ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va saqlash uchun foydalaniladigan texnologiyalar to'plami bo'lib, ular asosan kompyuter texnologiyalari, tarmoqlar, dasturiy ta'minot va texnik vositalarni o'z ichiga oladi. Korxonalarda bu texnologiyalar avtomatlashtirilgan tizimlar, ma'lumotlar bazalari, bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va IoT shaklida qo'llaniladi.

Biznes jarayonlari korxonada amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni va ular orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Bu jarayonlar mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, xizmat ko'rsatish va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishgacha bo'lgan barcha faoliyatlarni qamrab oladi. Raqamli texnologiyalar yordamida bu jarayonlarni samarali boshqarish va optimallashtirish imkoniyati yaratiladi.

Raqobatbardoshlik korxonaning bozor sharoitlarida o'z o'rnini saqlab qolish va boshqa raqiblar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashish qobiliyatidir. Raqamli texnologiyalar korxonaga yangi bozorlarni zabt etish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirishga yordam beradi.

Korxonalarda raqamli texnologiyalarni qo'llash bugungi kunda biznes faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Texnologiyalar orqali korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, bulutli texnologiyalar, IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari korxonalariga tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etishda muammolar ham mavjud. Katta boshlang'ich sarmoya, xodimlarning malakasini oshirish zarurati, texnik nosozliklar va kiberxavfsizlik masalalari bu jarayonning murakkab tomonlaridir.

Bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi: Korxonalar raqamli transformatsiyani amalga oshirishda bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llashlari maqsadga muvofiqdir. Avval kichikroq biznes jarayonlarini avtomatlashtirishdan boshlash, so'ngra tajriba orttirgan sari kengroq jarayonlarga o'tish samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Xodimlarning malakasini oshirish: Raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun xodimlarning



malakasini oshirish muhimdir. Korxonalar muntazam ravishda o'quv kurslari va treninglar tashkil qilib, xodimlarning yangi texnologiyalarga moslashishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashlari kerak.

**Kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish:** Raqamli texnologiyalar qo'llanilgan holda, ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalariga e'tibor qaratish zarur. Korxonalar xavfsizlik tizimlarini mustahkamlash, xodimlarni kiberxavfsizlik qoidalariga o'rgatish va kiberxurujlarga qarshi maxsus dasturlarni joriy etishlari lozim.

**Raqamli transformatsiyani optimallashtirish uchun tashqi mutaxassislar jalb qilish:** Murakkab texnologik yechimlarni joriy etishda va ularni texnik jihatdan to'g'ri boshqarishda tashqi mutaxassislar va IT-konsultantlar xizmatidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu, o'z navbatida, korxonaga texnologiyalarni to'g'ri yo'naltirish va samaradorlikka erishish imkonini beradi.

**Innovatsion biznes modellarini ishlab chiqish:** Korxonalar raqamli texnologiyalar orqali yangi biznes modellarini joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishga e'tibor qaratishlari lozim. Masalan, xizmatlar yoki mahsulotlar uchun onlayn platformalar yaratish, mijozlar bilan aloqalarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqarish va yangi bozor segmentlarini aniqlash orqali biznes rivojini qo'llab-quvvatlash mumkin.

**Boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish:** Korxonalar boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish orqali, rahbariyat va menejerlarga qarorlar qabul qilishda tezkor va aniq ma'lumotlar taqdim etish imkoniyatini yaratish lozim. Bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt orqali real vaqt rejimida monitoring va tahlil qilish imkoniyatlari tashkil etilishi kerak.

**Katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanish:** Korxonalar katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilini yo'lga qo'yib, mijozlarning ehtiyojlari va bozor tendensiyalarini oldindan aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va marketing strategiyalarini samarali rejalashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish va ulardan samarali foydalanish orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni zabt etish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish muhim va dolzarb masala bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). \*Artificial Intelligence for the Real World\*.
2. Schwab, K. (2016). \*The Fourth Industrial Revolution\*.
3. McKinsey & Company (2020). The future of work after COVID-19\*.
4. OECD (2019). Digital Transformation in the Age of Artificial Intelligence



**BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA MAQSADLI MIJOZLARNI ANIQLASH  
AHAMIYATI VA ULARGA YO'NALTIRILGAN MARKETING**

**Ayupov Abdurashid Abdumalik o'g'li**  
**Nabiyev Muhammadqodir Qobiljon o'g'li**  
Millat Umidi Universiteti  
BA-402 guruh talabasi

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada maqsadli auditoriyani biznes rivojida tutgan muhim o'rni va ularga samarali marketing targ'ibotini yo'naltirish ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Maqolada mijoz portreti, ular bilan samarali muloqot hamda ularni talab va istaklarini aniqlashda horij tajribalari va marketing targ'iboti bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tiladi. Zamonaviy marketingning muvaffaqiyati to'g'ri maqsadli auditoriyani aniqlashga bog'liqdir. Maqsadli auditoriya bu mahsulot yoki xizmatdan foyda ko'rishi kutilayotgan, ma'lum bir demografik, psixografik, va xulq atvor ma'lumotlariga ega bo'lgan insonlar guruhidir. Ushbu maqola, maqsadli auditoriyani aniqlash usullari va ularga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar.** mijoz portreti, maqsadli auditoriya, tadqiqot keyslari, samarali muloqot, horij tajribalari.

Maqsadli auditoriya marketing strategiyasi bo'yicha qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi ko'pchilik biznesning muhim ustunidir. Maqsadli auditoriya ko'pincha reklama uchun pulni qayerga sarflashni, mijozlarni qanday jalb qilishni va keyin qanday mahsulotni yaratishni hal qiladi. Maqsadli auditoriyani aniqlashdan oldin bir qator ishlar amalga oshirilishi kerak. Bunda market research muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot "mijozni bilish" ya'ni mijozlar kimligini, talab ehtiyojlarini va ularni og'riqlarini aniqlashda yordam beradi. Keyingi muhim qilishimiz kerak bo'lgan tadqiqot "raqobatchilarni anglash" yani raqobatchilarni bilish, ular o'z mijozlariga qay usulda muloqot qilishyapti, nimalarni zo'r bajaryaptiyu qaysilarini eplay olishmayapti. Navbatdagi qilishimiz kerak bo'lgan tadqiqot bu "mijoz yondashuvi" ya'ni ularni psixologik holatlaridan kelib chiqib mijozlarga qanday murojaat qilish haqida ma'lumot berish kerakligini belgilaydi. Marketing otasi hisoblanmish Philip Kotler takidlashicha "Marketing bu faqat sotish emas balki mijozni ehtiyojlarini chuqur tushunib, unga qadrlil narsa yaratish va yetkazishdir."<sup>1</sup> U marketingda mijozlar ehtiyojini qondirishni va qoniqtirishni birinchi o'ringa qo'yadi. Mijozni qanchalik yaxshi bilish ular bilan ularni tilida gaplashish imkoniyatini taqdim qiladi. Maqsadli mijozni talab istaklarini o'rganmasdan ularga taklif berish ularni talabini qondira olmaydi. Masalan shu masala bo'yicha bir keys misolida aytadigan bo'lsam, ota onada og'riq yani ular o'z farzandlarini bog'chada yaxshi tarbiya ko'rishni, ovqatlanib bo'lgandan keyin idishlarini olib borib qo'yishlarini o'rgatishlarini, navbatda tog'ri turishni o'rgatishni xohlashadi. Ushbu og'riqdan kelib chiqib, ularga 100x qiymat taklifini yaratsa bo'ladi, qaysiki birgini mijozni yaxshi bilish orqali. Quyidagi keltirilgan ma'lumotlar maqsadli auditoriyani aniqlashda yordam beradi.

Bozor tadqiqotlari, so'rovnomalar, intervyular va fokus-guruhlar orqali amalga oshiriladi. Bu usullar yordamida brendlar o'z mijozlarining qiziqishlari va talablarini aniq bilib olishlari mumkin. Veb-sayt tahlili va ijtimoiy tarmoq analitikasi, mijozlarning onlayn xatti-harakatlarini kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Google Analytics kabi vositalar, foydalanuvchilarning saytdagi harakatlarini o'rganishga yordam beradi.


Mijozlarni guruhlariga bo'lish va ularning xususiyatlarini aniqlash, brendlar uchun to'g'ri marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Segmentatsiya orqali, har bir guruhga mos keladigan takliflar yaratish mumkin. Ushbu ma'lumotlarni qo'lga kiritganimizdan keyin, mijozni shaxsiy taraflama o'rganishni boshlaymiz. Bu bizga taklif yaratishni yanada samarali qilishda yordam beradi. Quyida keltirilgan ma'lumot mijoz portretini yaratishda asosiy omil hisoblanadi. Demografik xususiyatlar — bu yoshi, jinsi, ta'lim darajasi, daromad va boshqa statistik ko'rsatkichlardir. Masalan, 18-24 yoshdagi odamlar uchun marketing strategiyalari boshqacha bo'lishi mumkin. Yoshi katta insonlarga qaraganda, chunki ularning qiziqishlari va xarid qilish odatlari farqlanadi. Psixografik segmentatsiya qiziqishlar, qadriyatlar, turmush tarzi va shaxsiy xususiyatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu ma'lumotlar yordamida brendlar o'z auditoriyasiga yanada chuqurroq kirishlari mumkin.

1 Filip Kotler. Marketing A to Z





Bu ma'lumotlar orqali ularga nimalar muhim, nima qadrlil bilish mumkin. Geografik segmentatsiya, auditoriyaning joylashuvi va mintaqaviy xususiyatlarini inobatga oladi. Masalan, iqlim sharoiti yoki mintaqaviy madaniyat mahsulotlar va xizmatlarni tanlashga ta'sir qiladi. Xulq atvor segmentatsiya xarid qilish odatlari, brendga sadoqat va mijozlarning tovarlarga bo'lgan munosabatlari asosida amalga oshiriladi. Bu ma'lumotlar, mijozlarni tahlil qilishda va ularga shaxsiylashtirilgan takliflar yaratishda muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. Maqsadli auditoriyani aniqlash

Yo'naltirilgan marketing strategiyalarida segmentatsiyalash va pozitsiyalash to'g'ri segmentlarni tanlash va ularning ehtiyojlariga mos takliflar yaratish marketing strategiyasining asosiy elementi hisoblanadi. Ushbu jarayon, brendning raqobatchilaridan ajralib turishiga yordam beradi. Kontent marketing bu maqsadli auditoriyaga mos keladigan foydali va qiziqarli kontent yaratish, brendning imijini oshirishga va mijozlar bilan aloqani mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu strategiya, mijozlarni jalb qilishda juda samaralidir.

Ijtimoiy tarmoqlarda reklamada maqsadli auditoriyani jalb qilish uchun to'g'ri platformalar va reklamalarni tanlash juda muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlar, brendlarni to'g'ridan-to'g'ri mijozlar bilan bog'lash imkonini beradi.

Maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan marketing kampaniyalarining samaradorligini o'lchash, marketing strategiyalarining muvaffaqiyatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Mijozlarning qoniqishi va sadoqatini baholash uchun so'rovnomalar va tahliliy vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

### Xulosa

Maqsadli auditoriyani aniqlash va ularga yo'naltirilgan marketing strategiyalari, zamonaviy biznesda muvaffaqiyatga erishishning kalitidir. O'z auditoriyasini to'g'ri aniqlagan brendlar, raqobatchilaridan ustun bo'lish va mijozlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish imkoniyatiga ega. Kelajakda marketing strategiyalarini rivojlantirishda, maqsadli auditoriyani chuqur o'rganish va shaxsiylashtirilgan takliflarni ishlab chiqish muhimdir. Yuqorida ta'kidlab o'tganidek ota onalar bog'chadan hamma bog'cha singari qaysi fanlarni o'qitishni kutmadi aksincha ulardan axloqiy etikani o'rgatishni talab qildi. Yo'naltirilgan marketing shu kabi masalalarda yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyot:

1. Kotler, Philip. Marketing insights from A to Z : 80 concepts every manager needs to know / Philip Kotler. p. sm. ISBN 0-471-26867-4 1. Marketing. I. Title. HF5415 .K63127 2003 658.8—dc21
2. <https://amitmathur31.medium.com/book-summary-sell-like-crazy-4b888c1a9e86>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARINING  
MARKETING STRATEGIYASINI SHAKILLANTIRISH

**Isxoqova Bonu Bunyod qizi**

Tel: +998937112829

Email: isxakovabonu8@gmail.com

**Rahimova Hosiyat Mo'min qizi**

Tel: +998935522246

Email: khosiyat\_2224@icloud.com

Millat Umidi Universiteti BA 402 guruh talabarlari

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi hozirgi kunda O'zbekiston sharoitida Nodavlat ta'lim muassasalarining marketing strategiyasini shakillantirish va rivojlantirish to'g'risida ma'lumot beriladi. Mamlakatimizda Hozirgi kunda ta'limni rivojlantirish eng ustuvor va ilg'or vazifa bo'lib kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** Strategiya, bozor tahlili, raqamli marketing, marketing kommunikatsiya, noyob sotuv taklifi.

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalari uchun marketing strategiyasini shakllantirish mamlakatdagi ta'lim sohasida o'sib borayotgan raqobat va rivojlanish talablariga javob berishga yordam beradi. Xususan, nodavlat ta'lim muassasalaridan sifatli va yangi texnologik ta'limni rivojlantirish, talaba yoshlarning o'qishga qiziqishini kelajakda yaxshi kadr bo'lib, yetishishlariga bevosita yordam beradi. Millat Umidi Universiteti misolida bu strategiyani ishlab chiqish uchun bir necha asosiy omillarga e'tibor qaratish lozim.

**Bozor tahlili va maqsadli auditoriyani aniqlash**

**Demografik xususiyatlar:** Yosh, joylashuv, ijtimoiy qatlam va iqtisodiy imkoniyatlarga qarab auditoriyani tahlil qilish.

Demografik xususiyatlar marketingda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular yordamida kompaniyalar o'z mahsulot va xizmatlarini maqsadli auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda optimallashtirishadi. Shuning uchun Universitetning marketing strategiyasini shakillantirishda maqsadli auditoriyaning demografik xususiyatlarini o'rganib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy demografik xususiyatlarga quyidalar kiradi:

**Yosh:** Odamlarning yosh guruhlari ajratilishi (masalan, bolalar, yoshlar, o'rta yoshdagilar va keksalar).

**Jins:** Ayollar va erkaklar uchun alohida bozor segmentlarini shakllantirishga yordam beradi.

**Daromad darajasi:** Maqsadli mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlariga qarab tovar yoki xizmatlarni taklif qilish.

**Ma'lumoti:** Turli ma'lumot darajalari (masalan, maktab, oliy o'quv yurtlari, magistratura) auditoriyaning bilim darajasi va qiziqishlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Kasb yoki ish o'rni:** Maqsadli auditoriyaning kasb-kori yoki faoliyat sohasi, ularning ehtiyoj va istaklarini aniqlashga yordam beradi.

**Oilaviy ahvoli:** Oilali, yolg'iz yoki bolalari bor yoki yo'qligiga qarab xarid qilish xatti-harakatlari farqlanishi mumkin.

**Geografik joylashuv:** Odamlarning yashash joylari (shahar, qishloq yoki boshqa hududlar) ularning iste'mol qilish odatlariga ta'sir qiladi.

**Raqobatchilarni o'rganish:** O'zbekiston bozorida faoliyat yuritayotgan boshqa nodavlat ta'lim muassasalarining taklif qilayotgan xizmatlarini o'rganish va ulardan farqlanish usullarini izlash.

**Istak va talablarni aniqlash:** Talabalar va ularning ota-onalari uchun nima muhim ekanini o'rganish (masalan, xalqaro diplom olish, zamonaviy infratuzilma, o'qituvchilar sifati).

**Istak va talablarni aniqlash:** Talabalar va ularning ota-onalari uchun nima muhim ekanini o'rganish (masalan, xalqaro diplom olish, zamonaviy infratuzilma, o'qituvchilar sifati). Bunda istaklar birinchi bo'ladi chunki aniq bir maqsad bilan o'qish istagida bo'lgan talabalar uchun ta'lim berish va ularni kasbga yo'naltirish Universitet uchun bir qator imkoniyatlarni olib keladi.

**Brend joylashuvi va imidjini yaratish**

Brend joylashuvi – bu mahsulot yoki xizmatni raqobatchilardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlarini ta'kidlash va maqsadli auditoriyaning ongida o'ziga xos o'rin egallashdir.

**Brending maqsadini belgilash:** Millat Umidi Universiteti O'zbekiston jamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniq ifoda etish (masalan, milliy rivojlanishga xizmat qiladigan kadrlar



tayyorlash).

**Brendning noyob taklifi (USP):** Universitetni boshqa nodavlat ta'lim muassasalaridan ajratib turadigan asosiy jihatlar (masalan, xalqaro tajriba almashinuvi, zamonaviy laboratoriyalar).

**Imidj:** Ijobiy imidj yaratish uchun sifatli o'qitish, talabalar yutuqlari va universitetning ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq loyihalarini keng targ'ib qilish.

### **Marketing kommunikatsiyalari**

**Raqamli marketing:** Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook), YouTube va universitet veb-sayti orqali onlayn reklamalarni amalga oshirish.

**Kontent marketing:** O'zbekistondagi va xorijdagi talabalar uchun ma'lumot beruvchi maqolalar, bloglar, o'qituvchilar intervyularini e'lon qilish.

**Tadbirlar va vebinarlarga taklif:** Universitet ochiq eshiklar kuni, vebinarlar va master-klasslar orqali potensial talabalar bilan aloqani o'rnatish va universitetning imkoniyatlarini ko'rsatish.

### **Narx strategiyasi va moliyaviy yondashuv**

**Narxga moslashuvchan yondashuv:** Talabalarning moliyaviy imkoniyatlariga moslashish uchun turli to'lov rejalarini ishlab chiqish.

**Stipendiya va grant dasturlari:** Iqtidorli talabalar uchun stipendiya va grantlar joriy etish orqali universitetni qiziqarli va qo'llab-quvvatlovchi muassasa sifatida tanitish.

### **Yaxshi xizmat ko'rsatish va talabalar bilan aloqa**

**Aloqa:** Talabalar bilan doimiy aloqa o'rnatish, ularning fikr-mulohazalarini yig'ish va shunga qarab ta'lim sifatini oshirish.

**Qo'llab-quvvatlash xizmatlari:** Talabalar uchun konsalting va kariyera markazlarini tashkil etish, talabalar uchun turli qo'llab-quvvatlov xizmatlarini joriy etish.

### **Xalqaro aloqalarni kengaytirish**

**Xalqaro universitetlar bilan hamkorlik:** Xorijiy universitetlar bilan almashinuv dasturlari, qo'shma diplom dasturlari va professorlar almashinuvi orqali universitetning nufuzini oshirish.

**Diplomning xalqaro e'tirofi:** Talabalarga xalqaro miqyosda e'tirof etiladigan diplom berish imkoniyatlarini yaratish.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umuman nodavlat ta'lim muassasalarida ilg'or marketing strategiyalaridan foydalanish hozirgi kunda eng samarali ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimining sifatini oshirish esa mamlakatimiz rivoji qo'shilgan eng katta hissadir. Xususan Millat Umidlari Universiteti ham ushbu samarali marketing strategiyasidan ilg'or foydalanadi degan umiddamiz!

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Karr, D. (2019). Marketing strategiyasi nima? [online] Martech Zone. Available at: <https://uz.martech.zone/what-is-a-marketing-strategy/>.admin (2020). Maqsadli auditoriya. Qanday aniqlash mumkin? [online] АЗБУКА. Available at: <https://azbyka.com.ua/uz/kak-opredelit-svoyu-tselevuyu>

2. Irodaxon Sobirovna Sodiqova (2023). NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM XIZMATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA MARKETING XIZMATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH. RESEARCH AND EDUCATION, [online] 2(3), pp.4–8. Available at: <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2662>



**Karimov Asadbek Dilshod o'g'li**  
“Millat Umidi Universiteti”  
BA-401 guruh talabasi  
Telefon: +998918811181  
karimovasad97@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Kompaniya tashkil etish jarayoni, uning nazariy va huquqiy asoslari, shuningdek, amaliy jihatlari ushbu maqolada keng yoritiladi. Kompaniya tashkil etish nafaqat iqtisodiy faoliyatni yuritish, balki huquqiy jihatdan to'g'ri yo'lni tanlashni ham talab etadi. Maqolada kompaniyaning turli shakllari, ro'yxatdan o'tish jarayoni, huquqiy me'yorlar va amaliy tavsiyalar muhokama qilinadi.

**KALIT SO'ZLAR:** Kompaniya, huquqiy shaxs, mas'uliyati cheklangan jamiyat, ochiq aksiyadorlik jamiyati, tashkil etish jarayoni, nazariy asoslar, huquqiy asoslar, marketing tadqiqotlari, moliyaviy rejalashtirish.

Kompaniya tashkil etish – zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, u iqtisodiy subyektlarning o'zaro aloqalarini va iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi. Har bir kompaniya o'z faoliyatini muayyan sharoitlarda, nazariy asoslar va huquqiy normativlar doirasida amalga oshiradi. Ushbu maqolada kompaniya tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari batafsil ko'rib chiqiladi.

Kompaniya tushunchasi va turlari: Kompaniya — huquqiy shaxs sifatida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun tashkil etilgan tuzilmadir. Kompaniyalar turli shakllarda tashkil etilishi mumkin, masalan:

- Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ): Bu kompaniya shaklida aksiyadorlar o'z majburiyatlari bilan faqat kompaniyaga kiritilgan kapital miqdorida javob berishadi. MChJ oson tashkil etilishi, boshqarilishi va nazorat qilinishi bilan ajralib turadi.

- Ochiq aksiyadorlik jamiyati (OAJ): Bu kompaniya aksiyalarini ommaviy ravishda sotish imkoniyatiga ega bo'lib, katta miqdordagi kapitalni jalb qilish imkonini beradi. OAJ davlat va xususiy sektorda muhim rol o'ynaydi.

- Yopiq aksiyadorlik jamiyati (YAJ): Bu shakldagi kompaniyalar aksiyalarini cheklangan doiradagi shaxslar o'rtasida sotish imkoniyatiga ega. Bu, ko'pincha, oilaviy yoki yaqin do'stlar o'rtasida tashkil etiladi.

Kompaniya tashkil etish jarayoni: Kompaniya tashkil etish jarayoni bir qancha muhim bosqichlardan iborat:

1. Tashkilot hujjatlarini tayyorlash: Ushbu bosqichda kompaniya nomi, asosiy faoliyat yo'nalishlari va boshqa muhim ma'lumotlar kiritiladi. Tashkilot hujjatlari, masalan, nizom, asosiy shartnomalar va boshqa hujjatlar tayyorlanadi.

2. Ro'yxatdan o'tish: Kompaniya davlat organlarida ro'yxatdan o'tishi zarur. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ro'yxatdan o'tish jarayonida kerakli hujjatlar, jumladan, tashkilot hujjatlari va faoliyat turini belgilovchi ma'lumotlar taqdim etiladi.

3. Hisob raqamini ochish: Kompaniya tashkil etilgandan so'ng, bankda hisob raqamini ochishi lozim. Bu jarayon uchun kerakli hujjatlar taqdim etiladi.

4. Moliyaviy resurslarni jalb qilish: Kompaniyaning muvaffaqiyati uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish muhimdir. Bu jarayon investorlar, kreditlar yoki boshqa manbalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Nazariy asoslar: Kompaniya tashkil etish jarayoni bir qator nazariyalar bilan bog'liq:

- Resurslar nazariyasi: Bu nazariya kompaniyaning samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan resurslarni to'plash va foydalanish usullarini ko'rsatadi. Resurslarni to'plash, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlari kompaniyaning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

- Strategik boshqaruv nazariyasi: Bu nazariya kompaniyaning maqsadlari va vazifalarini belgilash, bozorni o'rganish va raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega.

- Kompaniya evolyutsiyasi: Kompaniyaning tashkil etilishidan rivojlanish bosqichigacha bo'lgan jarayonlarni o'rganish. Bu jarayonlar kompaniyaning ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik rivojlanishi bilan bog'liq.



Huquqiy asoslar: O'zbekiston Respublikasida kompaniya tashkil etishning huquqiy asoslari quyidagi huquqiy normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi: Ushbu kodeks huquqiy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va tashkil etish tartibini belgilaydi. U kompaniya tashkil etishning asosiy prinsiplari va talablarini o'z ichiga oladi.

2. Davlat ro'yxatidan o'tish to'g'risidagi qonun: Bu qonun kompaniya ro'yxatidan o'tish jarayonidagi talablarni o'z ichiga oladi, jumladan, qanday hujjatlar taqdim etilishi kerakligini ko'rsatadi.

3. Soliq kodeksi: Kompaniyaning soliq majburiyatlari, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish tartibi haqida ma'lumot beradi. Bu qonun kompaniyaning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

4. Kompaniyalarni tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi qonunlar: Bu qonunlar turli huquqiy shakldagi kompaniyalar uchun alohida talablar belgilaydi. Ular kompaniyaning ichki boshqaruv strukturasi, aktsiyadorlar huquqlari va majburiyatlarini tartibga soladi.

Kompaniya tashkil etishning amaliy jihatlari: Kompaniya tashkil etishning amaliy jihatlari uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhimdir:

1. Marketing tadqiqotlari: Bozorni o'rganish, raqobatchilarni tahlil qilish va maqsadli auditoriyani aniqlash kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Marketing tadqiqotlari orqali kompaniya o'z mahsulotlarini samarali reklama qilish va sotish strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

2. Moliyaviy rejalashtirish: Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun reja tuzish zarur. Moliyaviy rejalashtirish orqali kompaniya kelajakdagi xarajatlarni va daromadlarni aniqlashi, shuningdek, investitsiyalarni rejalashtirishi mumkin.

3. Kadrlar siyosati: To'g'ri kadrlarni tanlash va ularni rivojlantirish kompaniyaning samarali faoliyatini ta'minlaydi. Kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Kompaniya muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun malakali mutaxassislariga ega bo'lishi zarur.

4. Innovatsiyalar va texnologiyalar: Kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion yechimlar va yangi texnologiyalarni joriy etish. Innovatsiyalarni qo'llash orqali kompaniya o'z mahsulotlarini yaxshilashi va yangi bozorlar ochishi mumkin.

### Xulosa

Kompaniya tashkil etish jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni to'g'ri boshqarish, rejalashtirish va huquqiy talablarni to'g'ri bajarish kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida asosiy omil hisoblanadi.

Nazariy jihatdan, kompaniya turli shakllarda tashkil etilishi mumkin: mas'uliyati cheklangan jamiyat, ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari. Har bir shakl o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Huquqiy asoslar, jumladan, Fuqarolik Kodeksi va Soliq Kodeksi, kompaniya tashkil etish jarayonini tartibga soladi va moliyaviy majburiyatlarni belgilaydi.

Amaliy jihatdan, marketing tadqiqotlari, moliyaviy rejalashtirish va kadrlar siyosati kompaniyaning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion yechimlar va texnologiyalarni joriy etish esa kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, kompaniya tashkil etish jarayoni har bir biznes uchun asosiy poydevor bo'lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun zaruriy shartlarni yaratadi. Huquqiy va nazariy bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish har qanday tadbirkor uchun muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. Tahririyat, 2020.
2. Davlat ro'yxatidan o'tish to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Respublikasi, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Tahririyat, 2021.
4. Abdurazzakov, A. (2022). *Kompaniya tashkil etish: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot universiteti.
5. Khamroev, M. (2020). *Strategik boshqaruv nazariyasi*. Toshkent: Iqtisodiyot va sanoat vazirligi.
6. Karimov, Sh. (2021). *Biznesni boshqarish: amaliy qo'llanma*. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.
7. Sadykova, D. (2023). *Marketing tadqiqotlari va strategiyalari*. Toshkent: O'zbekiston marketing institute.




ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGNING O'RNI

Millat Umidi universiteti  
i.f.f.d., dotsent **D.N. Ishmanova**  
BA – 401 guruh talabasi  
**I.S. Mirzayev**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda ishlab chiqarish korxonalarida raqamli marketingning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Raqamli marketing zamonaviy biznes olamida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda maqsadli auditoriyani jalb qilish uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tezisda SEO, SMM, email marketing kabi raqamli marketing vositalarining ishlab chiqarish sohasidagi qo'llanish usullari, sodiq mijozlar sonini oshirish, brend taniqligini kuchaytirish va umumiy daromadni ko'tarishga bo'lgan ta'siri keng yoritilgan. Bundan tashqari, raqamli va an'anaviy marketingning integratsiyasi orqali korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlash imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli marketing, ishlab chiqarish, SEO, SMM, mijozlar bazasi, strategik rivojlanish.

Hozirgi davrda ko'p muvaffaqiyatli kompaniyalar o'z marketing startegiyalarini raqamli marketingga ko'pro'q urg'u berishni asosiy maqsad sifatida ko'rsatishmoqda. Chunki raqamli marketing odatiy yokida an'anaviy marketingdan ko'ra ko'proq foydalilik koeffitsiyentga ega bo'lib qolmoqda va tashkilotga bozorda o'z o'rnini egallashiga juda tez fursatda erishmoqda. Bunga sabab raqamli marketing asosiy funksiyasi tahskilotga maqsadli auditoriyani topish, ular bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Raqamli marketing turli xil muhim instrumentlardan iborat misoli uchun: SEO (Search Engine Optimization), SMM (Social Media Marketing), EMAIL marketing. Ushbu instrumentlar orqali tashkilotni brend taniqligini oshirish, doimiy mijozlarga ega bo'lish va korxonaning daromadlarini sezilarli darajada oshirishga erishish mumkin. Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalari yangi mijozlarni jalb qilish hamda sotuvlarini oshirishda an'anaviy marketing turidan foydalalanishmoqda. An'anaviy marketingning ham televizor reklamalari, to'gridan to'gri pochta jo'natmalari yoki sovuq qo'ng'iroqlar foydali va effektiv bo'lishi mumkin lekin ko'p xarajat talab etadi hamda kerakli mijozlar bazasini shakllantirish qiyin bo'ladi. Lekin mamlakatimizda an'anaviy marketing yaxshi ishlayotganligi sababli raqamli marketing va an'anaviy marketingni bir maromida olib ketish juda yaxshi samara olib kelishi mumkin. Nima uchun ishlab chiqarishda raqamli Marketing muhim o'rin tutadi:



1-rasm. Raqamli marketingning muhim ko'rsatkichlari



Raqamli marketing ishlab chiqaruvchilarga uzoq muddatli mijozlarni jalb qilish imkoniyatini beradi. An'anaviy marketing darhol e'tibor qaratishga yordam beradi, lekin yangi mijozlarni uzluksiz jalb qilishda davom eta olmaydi. Masalan, televideniya reklamalari vaqt o'tishi bilan ta'sirini yo'qotadi. Raqamli marketing esa, SEO va kontent marketing orqali, biznesingizni internetda topishga yillar davomida yordam beradi. An'anaviy marketingda kimga yetib borishingizni aniq nazorat qilish qiyin. Raqamli marketing orqali esa aniq auditoriyani nishonga olish mumkin. Siz auditoriyani segmentlash orqali o'zingizga kerakli mijozlar turini aniqlab, SEO yoki maqsadli reklamalar (masalan, Google Ads yoki Facebook reklamalari) orqali ularga yo'naltira olasiz. Reklama xarajatlarini rejalashtirish doimiy o'zgarib turadigan bozor sharoitida qiyin. Raqamli marketing an'anaviy marketingga qaraganda arzonroq, chunki aniq auditoriyaga yo'naltirish imkonini beradi. Blog yozish yoki SEO optimizatsiyasi kabi uslublar uzoq muddatda katta daromad keltirishi mumkin. Masalan, email marketing har \$1 xarajati uchun o'rtacha \$42 daromad keltiradi. Marketing strategiyalaringizning muvaffaqiyatini baholash qiyin. Raqamli marketingda turli tahlil vositalari orqali asosiy ko'rsatkichlarni kuzatish mumkin. Bu esa qaysi kanallar samarali ekanini va qaysi uslublarni o'zgartirish kerakligini aniqlashni osonlashtiradi. Ishlab chiqaruvchilar uchun raqamli marketing brend imidjini oshirishga yordam beradi. O'z sohangizdagi mavzular haqida muntazam kontent nashr etish orqali ishonchli brend imidjini yaratish mumkin. Shu yo'l bilan, mijozlar internetda sizni topish ehtimoli yuqori bo'ladi, va bu obro' orttirish orqali savdo jarayonlarini yengillashtiradi SEO va qiziqarli kontent yaratish orqali, mijozlarni bosimsiz jalb qilish mumkin. Raqamli marketingning o'ziga jalb qiluvchi uslublari yordamida, mijozlar o'zlari qiziqish bildiradi va kerakli paytda siz bilan aloqaga kirishadi. Bu esa uzoq muddatli ishonchli munosabatlar o'rnatishga imkon beradi. Raqamli marketing, mavjud mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlashda samarali. Masalan, email marketing orqali mijozlarga maxsus takliflar yuborish yoki yangi mahsulotlar haqida xabar berish mumkin. Bu esa uzoq muddatli sodiq mijozlar bazasini yaratishga yordam beradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha so'ngi tendesiyalar asoslangan holda raqamli texnologiyalar rivojlanayotganligi sababli, ishlab chiqarish korxonalarida raqamli marketingni o'rni juda katta, chunki har bir kompaniyaning eng asosiy maqsadi samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishdir. Ushbu kriteriyalarga raqamli marketing instrumentlarni qo'llagan holda reklama va targ'ibot ishlarini amalga oshirish, tashkilot uchun kam xarajat qilgan holda tashkilotning rivojlanishi uchun eng muhim bo'lgan narsalar brendni tanistish, uzoq muddatli mijozlarga ega bo'lish va aniq nishondagi mijozlarga ega bo'lish va shular hammasi to'g'ri tashkil qilinganadigan bo'lsa tashkilot o'sishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Windmill Strategy. (2024). The Digital Marketing Guide for Industrial Manufacturers. [online] Available at: <https://www.windmillstrategy.com/the-ultimate-guide-to-digital-marketing-for-manufacturers/>
2. Naik, Soham & Bale, Gandharva. (2024). Digital Marketing Strategies Focusing on Unique Selling Points of the Manufacturing Industry in India.
3. Conti, E., Camillo, F. and Pencarelli, T. (2023). The impact of digitalization on marketing activities in manufacturing companies. *The TQM Journal*, [online] 35(9), pp.59–82. doi:<https://doi.org/10.1108/tqm-11-2022-0329>.
4. Shyle, I. and Erisjena Rruplli (2022). Using digital marketing from SMEs companies in the manufacturing industry in Albania. *International Journal of Business Excellence*, [online] 28(2), pp.237–237. doi:<https://doi.org/10.1504/ijbex.2022.126910>.



**IQTISODIYOTDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHDA MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**Abdusattorov Abdurashid Abdusamad o'g'li**

Telefon:+998935432884

E-mail: abdusattorovabdurashid76@gmail.com

**No'monxonova Sitoraxon Baxtiyor qizi**

Telefon:+998936706703

E-mail: numonxonovasitoraxon@gmail.com

Millat Umid universiteti BA-402 guruh talabari.

**Annotatsiya.** Iqtisodiyotda kambag'allika qarshi kurashishda biznesni moliyalashtirishning ko'plab usullari mavjud, ular orasida eng keng tarqalgan model kraudfanding hisoblanadi. Bu model biznesni boshlash uchun mablag' yetarli bo'lmaganlar uchun juda samarali usuldur. Mazkur maqola "Kraudfanding" konsepsiyasi, uni O'zbekistonda rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish istiqbollari o'rganishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** kraudinventing, kredit, venchur, investitsiya, kraudfanding, biznes, qashoqlik darajasi, kambag'allik.

Bugungi kunda iqtisodiyotda kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda moliyalashtirish va investitsiyalarning zamonaviy vositalari maydonga kelmoqda. Iqtisodiyotda qashshoqlikni yumshatishda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mablag' yig'ish doimo muammo bo'lib kelgan. Mikromoliyalashtirishning modeli kraudfanding rivojlangan davlatlarda biznesni moliyalashtirishda muammoni oson, arzon, tez yechishning demokratik vositasiga aylandi va shu bilan birga kraudfanding modeli moliyalashtirishning ommaviylashuviga olib keldi. Kelajakda butun dunyo bo'ylab mikromoliya tashkilotlari (MMT) faoliyatining kengayishi bilan model ijobiy va salbiy natijalarga olib kelgan ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechira boshladi. Qashshoqlik muammosi har bir kishini tahlikaga soladigan iqtisodiy va ijtimoiy hodisa bo'lib bugungi kunda rivojlanayotgan hamda rivojlangan mamlakatlar aholisining ko'plab qismini, hatto XXI asrda ham ta'qib qilmoqda.

Iqtisodiyotda ushbu muammoning yechimini topish maqsadida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ko'plab ilmiy ishlarining dolzarb mavzusi bo'lib kelmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar bu savolga javob topishga harakat qilishdi, ammo bugungi kunga qadar har bir mamlakat aholisining qashshoqlik darajasini baholashning yagona mezonlari va muammoni bartaraf etishning umumiy qabul qilingan yo'llari mavjud emas. Kambag'allik darajasining standart tahlili kunlik xarajat va daromad chegarasidan yuqori yoki pastda yashaydigan odamlar sonini baholash uchun ma'lum bir pul chegarasidan foydalaniladi. Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan jahon mamlakatlarida qashshoqlikni o'lchash uchun uning chegarasi, ya'ni AQSH dollarida kuniga ma'lum miqdorda daromad sifatida belgilangan. Ayni vaqtda bu korsatkich o'rtacha 1.90 dollarni tashkil qiladi. Yashash minimumining bunday tahlilini qashshoqlik darajasini baholashning eng keng tarqalgan usuli deb hisoblash mumkin.

**Kambag'allik-** bu aholining muayyan qismi asosiy ehtiyojlarini qondira olmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy xolatdir.

**Kambag'allikni qisqartirish-** bu davlat siyosatining muhim vazifalardan biri bo'lib, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan.

So'ngi yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmog'da. Buning natijasida mamlakatda kambag'allik darajasi sezilarli darajada kamaydi. Kambag'allikni qisqartirish uchun qilinayotgan ishlar:

Iqtisodiyotni rivojlantirish: yagona iqtisodiy siyosat, tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash, yangi ish orinlarini yaratish.

Ijtimoiy ximoya tizimini takomillashtirish: kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, pensiya va nafaqalar miqdorini oshirish.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini isloh qilish: sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlarni keng qamrovli qilish.

Kambag'allikni qisqartirish quydagilar uchun muhimdir:

Ijtimoiy barqarorlik: kambag'allik ijtimoiy norozilik va jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri





hisoblanadi.

Inson kapitali: ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiya kiritish orqali mamlakatning inson kapitalini oshirish mumkin.

Iqtisodiy o'sish: iste'mol qobiliyatining oshishi iqtisodiyotning barcha sohalarining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Milliy iqtisodiyotimizni qaraydigan bo'lsak, tijorat banklarida uzoq muddatli kredit resurslarining yetishmasligi, kredit berish shartlarining og'irligi, yuqori ta'minot talablari, yugori foizlar hamda mamlakatimiz kambag'al fuqarolariga kredit berish xavfi ortib borayotganini hisobga olgan holda, aholining eng kambag'al qatlami yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini, kichik va o'rta biznesni muqobil moliyalashtirishda kraudfanding mohiyalashtirish modeli an'anaviy mikromoliya, hatto, bank kreditlariga o'z vaqtida zamonaviy muqobil yechim bo'lishi mumkin.

**Kraudfanding**(inglizcha: crowdfunding) - bu ko'plab kishilardan kichik-kichik miqdordagi mablag'larni jamlab, biror loyihani amalga oshirish usulidir. Bu, oddiy qilib aytganda, ko'p odamning oz-ozdan yordam berishi hisobiga katta bir ishni bajarishdir.

G'oya: Biror shaxs yoki guruh o'zining yangi mahsuloti, xizmati yoki loyahasini amalga oshirish uchun mablag'ga muhtoj bo'ladi.

Platformalar: Ular maxsus kraudfanding platformalariga murojaat qilib, o'z loyihasi haqida ma'lumot joylashtiradi.

Moliyalashtirish: Qiziqqan odamlar ushbu loyihaga pul mablag'lari bilan yordam berishadi. O'z navbatida, loyiha mualliflari homiylarga turli mukofotlar (masalan, tayyor mahsulotning dastlabki nusxalari, loyiha haqida eslatma va boshqalar) taklif qilishi mumkin.

O'zbekistonda ham kraudfanding asta-sekin rivojlanib bormoqda. Mahalliy platformalar paydo bo'lib, ular orqali yosh tadbirkorlar va ijodkorlar o'z loyihalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Kraudfanding-kapitalni oshirish va startup loyihalarni moliyalashtirishning nisbatan yangi usuli bo'lib, biznesni kengaytirish yoki boshlash, biznes reja uchun kerakli mablag' ajratishning bir usuli hisoblanadi. Kraudfanding tadbirkorga pul to'plash imkonini berishi bilan bir vaqtning o'zida biznes atrofida shov-shuv yaratish imkoniyatini yaratadi. Qisqa qilib aytganda, kraudfanding kichik biznes uchun bank kreditlarining muqobil variantlaridan yana biri bo'lishi mumkin. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda kop turdagi kraudfanding platformalari mavjud va bu jarayon foydalanuvchilarga qarzga kirmasdan biznesni moliyalashtirish imkonini beradi, shuning uchun u iqtisodiyotda moliyaviy resurslarga muhtoj bo'lgan ko'plab kichik biznes egalari uchun juda qulay usul bo'lmoqda.

-Bugungi kunda kraudfandingni 4ta asosiy turi uchun ruxsat bor

**Fond kraudfanding** - bu birgalikdagi kraudfanding yoki aksiyadorlik jamg'armasini pul evaziga o'z biznesingizdagi ulushni sotasiz va kompaniya foydasining bir qismi investorlarga taqsimlanadi. Ushbu turdagi kraudfanding ba'zi huquiy qiyinchiliklar bilan bog'liq, ammo uni amalga oshirish mumkin. Bu turdagi kraudfandingga ixtisoslashgan kraudfanding platformalarining ayrim misollari: Angellist: Angellistda pulni jalb qilish va Venture fondlari bilan bog'lanish uchun boshlang'ich profilni yaratish mumkin. CircleUp: ushbu platforma iste'molchilarga bevosita mahsulot sotadigan kompaniyalarga garatilgan. Ishtirokchilar investorlarning hamkori bo'lishi va biznes jarayonlarida yordam olish yoki yordam berish mumkin. Fundable: ushbu platformada aksiyalar bo'yicha mablag' toplashni tanlash mumkin. Fundable \$50 000 dan \$10 milliongacha bo'lgan kompaniyalar uchun aksiyalar bilan variantni taklif qiladi. Xayr-ehsonlar kraudfandingi. Bu turdagi kraudfanding kompaniyangizga pul berib, buning o'rniga hech narsa kutmasdan ishlaydi. Xayr-ehsonga asoslangan kraudfanding kambag'allikdan chiqish uchun qulay imkoniyatga ega bolsa-da, bu g'oya egalari muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun eng qiyin bolishi mumkin. Sababi ushbu turdagi kraudfandingda qatnashuvchi donorlar odatda, xayriya tashkilotlari bilan ishlashadi yoki ijtimoiy muammolarni hal qilishga mablag'larini yo naltirishadi.

**Mukofotga asoslangan kraudfanding.** Mukofotga asoslangan kraudfanding bilan omonatchilar pul toppish uchun muayyan mukofot olishadi. Kraudfandingning bu turi birja kraudfanding deb ham ataladi va mukofot ko'pincha kompaniya uchun tikilgan pul miqdoriga bog'liq. Kompaniyalar omonatchilarga mablag' to'playdigan yangi mahsulotni yuborishlari mumkin.

**Kredit kraudfanding.** Kredit mablag'lari, foydalanuvchilararo kredit yoki bozor krediti sifatida ham tanilgan, agar shaxs yoki kompaniya bankka kreditiga emas, balki bir guruh odamlarga moliyaviy yordam so'rab murojaat qilsa, investitsiya qilingan pul belgilangan muddatlarda, foizlar bo'yicha qaytarilishi kerak. Kraudfanding biznes kreditini an'anaviy kreditlarga nisbatan past foizda taklif



gilishi bilan qulaydir. Kredit kraudfanding platformalariga quyidagilar kiradi:

foydalanadi. Kraudinvingda kapitalga talab va taklifni birgalikda tartibga solish internet platformalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tadbirkorlar kraudinving orqali goplamoqchi bo'lgan kapitalga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi.

### **Mashhur kraudfanding platformalari:**

Kickstarter: Dunyodagi eng yirik kraudfanding platformalaridan biri.

Indiegogo: Kickstarterga alternativa bo'lib xizmat qiladi.

Patreon: Asosan ijodiy loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

### **Kraudfandingning afzalliklari:**

Kichik biznes uchun imkoniyat: Katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qilishning hojati yo'q.

Jamoatchilik bilan aloqa: Loyiha mualliflari o'z g'oyasini ommaga yetkazib, ular bilan bevosita muloqot qilishlari mumkin.

Bundan tashqari kraudfanding moliyalashtirish mexanizmi orqali biznesni moliyalashtirish, aholining kam ta'minlangan qismini biznes boshlashi uchun vaqtdan yutish imkoniyatini oshirishi, kam foizli yoki hayriya tarzidagi mablag'larni jalb qilish imkoniyatini oshirishi, mahsulotning bozorga chiqishini tezlashtirishi mumkin.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkin. Kambag'allikni qisqartirish- bu uzoq muddatli jarayon bo'lib, bunda davlat, xususiy sektor va fuqarolarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar bu borada ijobiy natijalar berayotgani shubhasiz. Kraudfanding moliya bozorida kam ta'minlangan fuqarolar mablag'larni jalb qilishning eng oddiy, eng tezkor shuningdek, eng arzon shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Internetga kirish imkoniyatiga ega mobil telefonlar hozirda jamiyatning eng kambag'al qatlamlari ham foydalanishi mumkinligini hisobga olsak, kraudfandingni rivojlantirish istiqbollari cheksiz imkoniyat sifatida ko'rinadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1) Cascarilla C. (2015). Bitcoin, Blockchain, and the Future of Financial Transactions. CFA Institute Publications. Third Quarter 2015. Vol. 32. Iss. 3.

2) Kortleben H., Vollmar B. 2012, Crowdfunding: An alternative in start-up financing" PFH Forschungspapiere/Research Papers Göttingen, Deutschland:

3) Private University of Applied Sciences (PFH). No. 2012/06.

4) Sanjeyev G. (2009). Effect of Remittances on Poverty and Financial Development in Sub-Saharan Africa. Journal of World Development. Vol. 37. Iss. Pp. 104-115.

5) <https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY>

6) <https://yashil-iqtisodiyot.taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1706/1756>



**Qodirova Shahzoda Shuhratovna**

Telefon +99896590015

E-mail shahzodakadirova00@gmail.com

Millat Umidi universiteti BA-401 guruh talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada global va milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ilmiy tadqiq qilingan. Globalizatsiya, innovatsiyalar, inson kapitali, barqaror rivojlanish, siyosiy va iqtisodiy islohotlar, hamda investitsiya strategiyalari muhokama qilinadi. Milliy iqtisodiyotlarni global raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va ularning amaliyoti haqida fikr yuritiladi. Ushbu tadqiqot iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni yaratish va mavjud muammolarni hal etishda yordam berishi kutilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Globalizatsiya, iqtisodiy integratsiya, innovatsiya, texnologiyalar, inson kapitali, barqaror rivojlanish, investitsiyalar, moliya bozorlari, iqtisodiy o'sish, raqamli iqtisodiyot, xalqaro savdo.

Bugubgi globalizatsiya jarayonlarida jahon iqtisodiyotida ikki tendensiya amal qilmoqda. Bir tomondan, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, xalqaro savdoning erkinlashuvi, kommunikatsiya va axborot zamonaviy tizimi, texnik jihatdan jahon andozalari va me'yorlarining yaratilishi natijasida jahon xo'jaligining yaxlitligi, uning globallasuvi kuchaymoqda. Ayniqsa, bu jarayon transmilliy korporatsiyalarning faoliyatlari orqali aniq namoyon bo'lmoqda. Boshqa tomondan, mintaqaviy darajada mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan yaqinlashuvi va o'zaro aloqadorligi ro'y berib, jahon xo'jaligining nisbatan mustaqil markazlarini tashkil etish yo'nalishida rivojlanayotgan yirik mintaqaviy integratsion tuzilmalar shakllanmoqda.


Iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va globalizatsiya jarayoni hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Milliy iqtisodiyotlarning global bozorga integratsiyasi ularning o'sishiga va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda innovatsiya, ta'lim va inson kapitali alohida ahamiyatga ega. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida va SSSRda o'ta markazlashgan ma'muriy davlat sotsializmining inqirozi va parchalanishi natijasida yuzaga kelgan yangi mustaqil davlatlarda, masalan, Polsha va Rossiyada, postsotsialistik milliy iqtisodiyot shakllanmoqda. Boshqa ba'zi postsotsialistik mamlakatlar, jumladan O'zbekiston, o'ziga xos demokratik va bozor iqtisodiga asoslangan umumdemokratik milliy iqtisodiyotni rivojlantirmoqda. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki o'n yilida umummilliy va xususiy mulkchilikka asoslangan ko'p ukladli milliy iqtisodiyot tashkil etildi. Bu iqtisodiyotda xususiy sektor yetakchi o'rinni egallaydi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy qismi yakka shaxsiy, guruh, shirkat, jamoa, aksiyali korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklaridan iborat bo'lib, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ikki dan biridan ortib bormoqda va har doim o'sishda. Milliy ehtiyojlarni yaxshiroq qondirish zarurati iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni, tovarlar va xizmatlarning ijtimoiy zarur maksimal hajmlariga erishishni taqozo etadi. Ayniqsa, ijtimoiy zarur mahsulot (tovar) ishlab chiqarish, uni zarur miqdorlarda va sifatlarda, tabiatni asrab-avaylab, ekologiyani yaxshilab ishlab chiqarish har qanday Milliy iqtisodiyotning asosiy qonunidir.

Milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish va no-ishlab chiqarish sohalari o'rtasida maqsadga muvofiq nisbati ta'minlanishining, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning va ko'rsatiladigan xizmatlarning mumkin qadar ijtimoiy zarur yuqori hajmlarda bo'lishining muhim sharti fantexnika taraqqiyotini tezlashtirish, zamonaviy va samarali texnologiyalarni qo'llash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ishlashni xoxlovchi barcha mehnatga qobil kishilarning ish bilan ta'minlanishiga erishishdir. Birinchi navbatda, moddiy ishlab chiqarish sohasini intensiv rivojlantirish, mahsulot hajmini, ayniqsa, sof mahsulot hajmini sarf harajatlarning va aholining o'sishiga nisbatan tezroq o'stirish Milliy iqtisodiyot va Iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal etishning, uni uzluksiz yuksaltirishning bosh yo'lidir. Bundan tashqari Milliy iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa tarmoqlari ichida hamda shu tarmoqlar o'rtasida barqaror, o'suvchan tarkibiy o'zgarishlar va maqsadga muvofiq nisbatlar, mutanosibliklar bo'lishi muhimdir.

Globallashuv davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi ustamonlik bilan harakat qilishlarini cheklaydi, lekin hech ham uni bekor qilmaydi.




Hukumatlar davlatdagi investitsiya iqlimini investorlar uchun qiziqish uyg'otishini quyidagi tadbirlar orqali farqini belgilaydilar:



1-rasm. Investirlarni jalb etish yo'nalishlari<sup>1</sup>

Globalashuvning tahlili davlatlarni global dunyodagi funksiyalarni oydinlashtirib beradi, negaki ayrim sohalarda globalashuvning Ta'siri uncha katta ahamiyatga ega emas. Har qanday chegaradan yuqori turgan global jihatdan qanchalik uzoqdaligimizni anglasak ham, bir necha yo'nalishlar bo'yicha davlatlarning roli o'zgargan. Davlatlar kapitalni jalb qilish va ushlab qolish va mustaqil iqtisodiy siyosatini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, ularning roli nazoratda emas, balki iqtisodiyotni tartibga solishdan iborat. Global iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish mexanizmi esa Huquqiy me'yorlar va ularni amalga oshirish vositalari (xalqaro iqtisodiy shartnomalar, kelishuvlar, «kodekslar», xartiyalar va boshqalar), global iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadi yo'naltirilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Global iqtisodiy munosabatlar tizimiga quyidagilar kiradi



2-rasm. Global iqtisodiy munosabatlar tizimi<sup>2</sup>

Yuqorida aks ettirilgan 2-rasm taxliliga ko'ra, innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt sohalarida, samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Milliy iqtisodiyotlar yangi texnologiyalarni qabul qilgan holda global raqobatbardoshligini kuchaytirishi mumkin. Inson kapitali iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Malakali ishchi kuchini tayyorlash uchun ta'lim tizimini takomillashtirish lozim. Katta malakali kadrlarga ega bo'lgan davlatlar iqtisodiy o'sishda muvaffaqiyatga erishadi. Barqaror rivojlanish ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy o'sishni birgalikda ta'minlashni talab qiladi. Ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlash, uzoq muddatli

1 Muallif taxlili

2 Muallif taxlili



rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhimdir. Siyosiy barqarorlik va iqtisodiy islohotlar iqtisodiy o'sish uchun zarur. Korruptsiyani kamaytirish va iqtisodiy erkinlikni oshirish orqali milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligini kuchaytirishi mumkin. Davlat siyosati iqtisodiy o'sish uchun qulay muhit yaratishi zarur. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Moliya bozorlarini rivojlantirish va investitsiya muhiti yaratish orqali milliy iqtisodiyotlar global bozorga integratsiya qilinishi mumkin. Bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlarini :

1. Investitsiyalarni rag'batlantirish

2. Soliq imtiyozlari: Yangi investitsiyalar uchun soliq stavkalarini kamaytirish, bir martalik imtiyozlar berish.

Sanoat zonalari: Maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, bu yerda investorlarga qulay sharoitlar yaratish.

Xorijiy investitsiyalar: Xorijiy investorlar uchun qo'shimcha himoya mexanizmlari joriy etish va ularning xavfsizligini ta'minlash.

3. Sanoatni diversifikatsiya qilish

Yangi sohalarni rivojlantirish: Qishloq xo'jaligi, xizmatlar, yuqori texnologiyalar va boshqa sohalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash: Ushbu sohalarda yangi ish o'rinlarini yaratish va raqobatbardoshligini oshirish.

4. Ta'lim va malaka oshirish

Kadrlar tayyorlash dasturlari: Mutaxassislar tayyorlash uchun ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish.

Uzoq muddatli malaka oshirish: Ish joylarida kadrlarning malakasini oshirishga qaratilgan kurslar va treninglar tashkil etish.

5. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash

Tadqiqot va rivojlanish: Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish.

Texnologiyalarni joriy etish: Sanoatda zamonaviy texnologiyalarni kengaytirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

6. Infratuzilmani yaxshilash

Transport tizimlari: Yo'l, temir yo'l va havo transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi yo'nalishlar ochish.

Energetika ta'minoti: Energiya resurslarini samarali boshqarish va yangi energiya manbalarini kiritish.

7. Mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash

Mahalliy mahsulotlarga talab: Mahalliy mahsulotlarni xarid qilish uchun aksiyalar va kampaniyalar o'tkazish.

Eksportni rag'batlantirish: Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy bozorlarga chiqarish uchun yordam berish.

8. Mikro va kichik biznesni rivojlantirish

Kredit va moliyaviy yordam: Kichik biznes uchun past foizli kreditlar va grantlar taklif etish.

Konsalting xizmatlari: Biznesni boshlash va rivojlantirish bo'yicha maslahatlar berish.

9. Sotsial siyosat

Ijtimoiy himoya dasturlari: Kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy yordam va imtiyozlar yaratish.

Farovonlik dasturlari: Aholining barcha qatlamlari uchun farovonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish.

Bu chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi va iqtisodiy o'sishni kuchaytiradi. Har bir tadbirni amalga oshirishda mahalliy sharoitlarni hisobga olish muhimdir.

### **Xulosa**

Global va milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda bir qator strategik yo'nalishlar mavjud. Globalizatsiya, innovatsiya, ta'lim, barqaror rivojlanish va siyosiy islohotlar iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tezis, milliy iqtisodiyotlarni global raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni belgilashga qaratilgan. U iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratishda va mavjud muammolarni hal etishda qo'llanilishi kutilmoqda.



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrda PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik -T. "Universitet" 2020y.

3. Xaitboyev R. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. -T.: "Barkamol fayz media". Global iqtisodiy rivojlanish - B.E. Mamaraximov

4. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton & Company. New York, London, 2019.

5. В.В. Попкова. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления/Под ред. Учебник. М.: ЗАО «Издательство «Экономика»



TIJORAT BANKLARI BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKKA ERISHISHDA  
KORPORATIV BOSHQARUVNI QO'LLASH

i.f.f.d., dotsent **Ishmanova D.N.**  
**Zoirov A.B** va **Jalolov A**  
Millat Umidi Universiteti  
BA-402 -guruh talabasi


**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada tijorat banklarining operatsion samaradorligi va barqarorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida korporativ boshqaruv modellarining ta'siri ilmiy tadqiq etilgan. Rivojlanayotgan texnologik uzilishlar, tartibga soluvchi talablar va mijozlarning talablari o'zgarib borayotgan sharoitda tijorat banklari risklarni boshqarish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va muvofiqlikni ta'minlashning yangi usullarini qo'llashlari kerak. Bundan tashqari, korporativ boshqaruv banklarning moliyaviy barqarorligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kuchli boshqaruv tizimidagi shaffoflik, hisobdorlik va axloqiy yetakchilikni ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar**

Korporativ boshqaruv, korporativ menejment, kredit, tijorat banklari, risklar, stress test, operatsion samarasizlik.

Tijorat banklari tizimini takomillashtirishda banklarining samaradorligi va barqarorligi iqtisodiyotning moliyaviy sog'lig'ida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tijorat banklari tizimini takomillashtirish ham tarkibiy, ham operatsion masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Buni yaxshilash uchun asosiy strategiyalar:



**Tijorat banklari tizimini takomillashtirish<sup>1</sup> strategiyasi**

Banklar kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklarni o'z ichiga olgan turli risklarga duch keladilar. Risklarni boshqarishning mustahkam asoslarini ishlab chiqish ularni yumshatish uchun zarurdir. Bunga quyidagilar orqali erishish mumkin: Risklarni baholashning ilg'or vositalarini (masalan, kredit skoring uchun mashinani o'rganish modellarini) joriy etish. Noqulay sharoitlarda bankning chidamliligini baholash uchun stress test. Potentsial yo'qotishlarni o'zlashtirish va likvidlikni saqlash


1 Muallif tahlili



uchun kapital buferlarini kuchaytirish.

Fintech yuksalishi bilan tijorat banklari raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish orqali moslashishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

Foydalanuvchilar uchun qulay va xavfsiz onlayn va mobil bank xizmatlarini taklif qilish. Tranzaksiyalarning shaffofligi va xavfsizligi uchun blokcheynni integratsiyalash. Chatbotlar va robo-maslahatchilar kabi mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun sun'iy intellektdan (AI) foydalanish samaradorlikni oshirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish uchun ichki jarayonlarni avtomatlashtirish. Tijorat banklarining ishonchligi uchun tartibga soluvchi standartlarga rioya qilish zarur. Muvofiqlikni soddalashtirish uchun banklar tartibga soluvchi talablarni real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini joriy etishlari kerak. Normativ hisobotlarni avtomatlashtirish qo'lda xatolarni kamaytirishi va aniqlikni oshirishi mumkin. Yangi moliyaviy qonunlar va siyosatlariga moslashish uchun tartibga soluvchi organlar bilan hamkorlik qilish juda muhim. Mijozlarning qoniqishi bankning obro'si va daromadligiga bevosita ta'sir qiladi. Banklar o'z xizmatlarini quyidagi yo'llar bilan yaxshilashlari kerak. Mahsulotlarni turli segmentlarga moslashtirish, masalan, kichik biznes, yuqori daromadli shaxslar yoki ming yilliklar. Shaxsiylashtirilgan xizmatlar va tezroq javob vaqtlari orqali mijozlar tajribasini yaxshilashga e'tibor qaratish. Sodiqlik dasturlarini yaratish va jamg'arma va kreditlar uchun raqobatbardosh foiz stavkalarini ta'minlash. Bank sektori rivojlanmoqda va xodimlar texnologiya, qoidalar va mijozlarning xohish-istaklaridagi o'zgarishlarni kuzatib borishlari kerak. Banklar xodimlar uchun eng so'nggi tendentsiyalar va qoidalardan xabardor bo'lishlari uchun doimiy o'qitish dasturlariga sarmoya kiritish lozim. Bank muammolariga ijodiy yechimlarni rag'batlantirish orqali innovatsiyalar madaniyatini oshirish, raqobatbardosh maoshlar, imtiyozlar va o'sish imkoniyatlari orqali yuqori iste'dodlarni jalb qiling va xodimlarni saqlab qolishdan iborat. Raqobatlashish o'rniga banklar innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish uchun fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Bu o'zaro hamkorlikni yaxshilash mumkin. Mobil hamyonlar yoki to'lov shlyuzlari kabi xizmatlar orqali to'lov yechimlari, tezroq va aniqroq baholash uchun fintech platformalaridan foydalangan holda kreditlarni qayta ishlash va kredit skoring, raqamli platformalar orqali kam ta'minlangan aholiga murojaat qilish orqali moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishdan iborat. Tijorat banklarining shaffof, axloqiy va moliyaviy jihatdan mustahkam ishlashini ta'minlashda samarali korporativ boshqaruv muhim ahamiyatga ega. Banklarda korporativ boshqaruvning asosiy omillari quyidagilardan iborat (2-rasm).



**2-rasm. Banklarda korporativ boshqaruvning asosiy omillari**

Yuqoridagi 2-rasm tahliliga ko'ra, kengash umumiy strategiyani boshqarishda va bank boshqaruvini nazorat qilishda markaziy rol o'ynaydi. Asosiy majburiyatlarga quyidagilar kiradi:

- Bank faoliyatining uzoq muddatli strategik maqsadlariga mos kelishini ta'minlash.
- Ijroiya rahbariyatini qabul qilingan qarorlar va natijalar uchun javobgarlikka tortish.
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun mustaqil pozitsiyani saqlash.

Banklar manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash uchun shaffoflik muhitini ta'minlashi kerak. Buni amalga oshirish mumkin:

- Aksiyadorlar va nazorat qiluvchi organlarga muntazam va aniq moliyaviy hisobot taqdim etish.
- Moliyaviy salomatlik, xavf omillari va korporativ strategiyalarni ochib beruvchi yillik hisobotlarni nashr etish.
- Axloqsiz xatti-harakatlar to'g'risida xabar berish uchun ma'lumot tarqatish mexanizmlarini yaratish.





Samarali ichki nazorat tizimi bankning samarali ishlashini, qonun hujjatlariga rioya etishini va risklarni kamaytirishni ta'minlaydi. Ichki audit funktsiyalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- Risklarni boshqarish tartib-qoidalarining samaradorligini baholash.
- Operatsion samarasizlik yoki firibgarlik sohalarini aniqlash.
- Qoidalar va ichki siyosatga rioya etilishini ta'minlash.

Korporativ boshqaruv xavflarni boshqarishning kompleks tizimini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat berishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

- kredit riski, operatsion risk va bozor riski kabi asosiy risklarni aniqlash.
- xavflarni kamaytirish uchun mustahkam nazoratni amalga oshirish.
- risklarni boshqarish siyosatini muntazam ravishda ko'rib chiqish va yangilash.

### **Xulosa**

Moliyaviy institutlarning davom etayotgan evolyutsiyasi tijorat banklaridan raqobatbardosh, xavfsiz va samarali bo'lib qolish uchun o'z tizimlarini doimiy ravishda moslashtirish va takomillashtirishni talab qiladi. Xatarlarni boshqarishni takomillashtirish, texnologik innovatsiyalarni qo'llash va me'yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta'minlash banklar xavflarni kamaytirish va yangi imkoniyatlardan foydalanishga e'tibor qaratishlari kerak bo'lgan muhim sohadir. Raqamli transformatsiya, xususan, banklarga mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, operatsiyalarni soddalashtirish va bozor imkoniyatlarini oshirish vositalarini taqdim etuvchi o'yinni o'zgartiruvchi omilga aylandi.

Banklar faoliyatini mas'uliyatli va barqaror boshqarishni ta'minlashda korporativ boshqaruvning o'rni ham birdek muhim. Kuchli yetakchilik, shaffof qarorlar qabul qilish, hisobdorlik va tavakkalchilikni ishonchli boshqarish bilan ajralib turadigan samarali korporativ boshqaruv manfaatdor tomonlar o'rtasida uzoq muddatli barqarorlik va ishonchni mustahkamlash uchun zarurdir. Kuzatuv kengashi, ichki nazorat va axloqiy yetakchilik bank muvaffaqiyatini shakllantirishda va uning halol va strategik maqsadlarga muvofiq ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklari operativ va boshqaruv jihatlarini ko'rib chiqish orqali samaradorlikni oshirish, risklarni minimallashtirish va mijozlar, tartibga soluvchilar va investorlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish uchun o'z tizimlarini yaxshilashlari mumkin. Kuchli korporativ boshqaruv innovatsion va samarali bank tizimlari bilan birgalikda doimiy o'zgaruvchan global moliyaviy muhitda barqaror o'sish, moliyaviy barqarorlik va bozor yetakchiligi uchun asos yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Norma huquqiy axborot jurnali.
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyundagi Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizom. Ro'yxat raqami 3254.
3. Beknazarova M.B "Tijorat banklari tizimini takomillashtirish va banklarda korporativ boshqaruvning asosiy prinsiplari"



Ganjayeva Mahliyo, Bekchanov Alisher,

Urganch davlat universiteti birinchi bosqich

“Raqamli iqtisodiyot” mutaxassisligi magistratura talabalari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli platformalardan foydalanish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье освещается необходимость использования цифровых платформ, имеющиеся возможности и их особенности.

**Abstract.** This article highlights the necessity of using digital platforms, available opportunities and its specific features.

**Kalit so‘zlar.** Iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, platforma, raqamli platforma.

**Ключевые слова.** Экономика, цифровая экономика, платформа, цифровая платформа.

**Key words.** Economy, digital economy, platform, digital platform.

Hozirgi kunda raqamli platformalar (almashish platformalari, qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat platformalari va boshqalar) va ular tashkil etuvchi platforma ekotizimlari butun sanoat va turli xil ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlarini o‘zgartirib, iqtisodiy o‘shish, innovatsiyalar va raqobatning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Undan asosiy maqsad raqamli platformalar xususiyatlarini, shuningdek, xorijiy va Rossiya platformasi kompaniyalarining xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash bilan namoyon bo‘ladi. Bu borada raqamli platformalar faoliyati bilan bog‘liq xarakterli xususiyatlar, afzalliklar va kamchiliklar, imkoniyatlar va tahdidlar ko‘rib chiqiladi. Platforma biznes modelining asosiy afzalligi sub‘ektlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta‘sir va almashinuvni ta‘minlash va ularning tranzaksiya va boshqa xarajatlarini kamaytirishga asoslanadi.

Raqamli platformalar ko‘p qirrali platformalar turi bo‘lib, uchinchi tomon foydalanuvchilarining bir nechta guruhlarini o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shovqin va tranzaksiyalarni osonlashtirish orqali qiymat yaratishga qaratilgan gibrid tuzilmalardir [1]. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida raqamli platformalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushuncha turli texnologik, infratuzilma, ijtimoiy, aloqa, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy yo‘nalishlarga ega bo‘ladi. Bu borada raqamli platforma konsepsiyasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi tamoyillari va mexanizmlarini tushunishga asoslanadi. Raqamli platforma aslida raqamli ekotizimning ko‘pgina sub‘ektlari tomonidan raqamli jarayonlar, resurslar va xizmatlardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydigan va ularning uzluksiz o‘zaro ta‘sirini ta‘minlaydigan vositalar tizimini aks ettiradi.

